

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**Toshkent arxitektura-qurilish
universiteti huzuridagi
tarmoq markazi**

Yangi arxitektura

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

TOSHKENT-2025

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: TAQU a.f.n dot. Usmanov M.S

Taqrizchi: TAQU prof. Isamuhamedova D.U

O‘quv-uslubiy majmua TAQU Kengashining _____nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	3
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL	
III. TA’LIM METODLAR.....	13
IV. NAZARIY MATERIALLAR	18
V. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	78
VI. KEYSLAR BANKI	197
VII. GLOSSARIY	201
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	209

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, gidrotexnika qurilishi bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga

yo‘naltirilgan.

Ishchi dasturning mazmuni tinglovchilarni “Gidrotexnika va geotexnika muhandisligi taraqqiyoti” modulidagi nazariy metodologik muammolar, chet el tajribasi va uning mazmuni, tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari, ilg‘or g‘oyalar va maxsus fanlar doirasidagi bilimlar hamda dolzarb masalalarni yechishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Yangi arxitektura” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilari faoliyatlarida arxitektura sohasidagi zamonaviy va innovatsion yutuqlarni bilishi va uni ta’lim jarayonida qo‘llay olishi, nazariyani amaliyot bilan bog‘lay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ushbu fan so‘nggi yillarda arxitektura sohasida amalga oshirilayotgan yangi innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar, samarador va energiyatejamkor rejaviy yechimlar, qurilish me‘yorlari va qoidalari, ob‘ektlarni loyihalash jarayonlari va bosqichlari, qurilish sohasidagi xorij tajribasi bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

“Yangi arxitektura” moduli vazifalari:

Modulning muhim vazifalari qatoriga tinglovchilarda tarixiy va zamonaviy arxitektura ob‘ektlarini tahlil qila olishga, ularni malakali baholashga, muayyan vaziyatlarni inobatga olgan holda bunday ob‘ektlarga nisbatan lozim bo‘ladigan tadbirlar turlaridan eng maqbulini tanlay olishga o‘rgatishni va bunga mos ravishda tinglovchilarda kerakli bilim va malakani shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Yangi arxitektura” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- memoriy va shaharsozlik merosiga doir qonunchilik hujjatlarini;
- qayta qurish va ta’mirlash nazariyasini;

- arxitektura sohasidagi fanlarni o‘qitishdagi ilg‘or xorijiy tajribalarni; □ loyihalarining tarkibi, ularni tuzish haqida **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- tarixiy joylarni qayta qurish loyihalarini tuzish;
- ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotni bir-biri bilan bog‘lay olish;
- arxitekturaviy loyiha ishlarini bajara olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- qayta qurish yoki ta’mirlash loyihalari g‘oyasini asoslay olish;
- loyihalash jarayonidagi me’yoriy hujjatlar tarkibi va tartibini bilish;
- Arxitektura ob’ektlari loyihalarini tuzish hamda ularda qabul qilingan yechimlarni ilmiy jihatdan asoslash **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- modulga oid fanlarni o‘qitishda arxitektura va shaharsozlik sohasidagi me’yoriy hujjatlardan oqilona foydalana olish, ushbu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribalarni ta’lim jarayonida qo‘llay olish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“**Yangi arxitektura**” moduli o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liq chunonchi, “Zamonaviy shaharsozlikda an‘analar va innovatsiyalar”, “Arxitekturaviy konstruksiyalar” va “Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish” modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Arxitektorlarning ijodiy faoliyatlarida aksariyat qurilishlar yangi hududlar uchun mo‘ljallanadi. Davrlar o‘tishi bilan bo‘sh hududlar miqdori kamaya boradi. Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy binolarni loyihalash va obidalarni ta’mirlash ishlarini bajara olish kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			
			Jami	Jumladan		
				Nazariy	Amaliy	Ko'chma
1	Arxitekturaning zamonaviy muammolari. An'ana innovatsiya	2	2	2		
2	Arxitektura fanining hozirgi holati	2	2	2		
3	Tarixiy binolarni rekonstruksiya qilish muammolari	2	2	2		
4	Hududlarining bosh erajalari	2	2	2		
5	Hududlarining bosh erajalari (davomi)	2	2	2		
6	Memorchilikning shakllanish jarayonlarini yaxlit anglashda chet-el tajribasi	2	2	2		
7	Shaharsozlikda me'yoriy hujjatlar tizimi, huquqiy va me'yoriy ta'minlanganlik, shaharsozlik nazorati faoliyati sohasida ma'muriy huquqbuzarliklar	2	2		2	
8	Hozirgi kunda O'zbekistonning shaharsozlik arxitekturası tahlili	2	2		2	
9	Hozirgi kunda O'zbekistonning shaharsozlik arxitekturası tahlili (davomi)	2	2		2	

10	Arxitektura taraqqiyotining jahon jarayonini umumlashtirish	2	2		2	
11	Arxitektura taraqqiyotining jahon jarayonini umumlashtirish (davomi)	2	2		2	
12	Qishloq aholi yashash punktlarining bosh rejalari, ob'yektlarni loyihalash (rekonstruksiyalash) uchun arxitekturaviy rejalash topshirig'ini tuzish	2	2		2	
13	Qishloq aholi yashash punktlarining bosh rejalari, ob'yektlarni loyihalash (rekonstruksiyalash) uchun arxitekturaviy rejalash topshirig'ini tuzish (davomi)	2	2		2	
14	Qishloq joylarida ijtimoiy mo'ljallangan obyektlar bilan birgalikda na'munaviy loyihalar asosida quriladigan turarjoy binolari uchun joylarni tanlash va qurilish uchun er maydoni tanlash	2	2		2	
15	Qishloq joylarida ijtimoiy mo'ljallangan obyektlar bilan birgalikda na'munaviy loyihalar asosida quriladigan turarjoy binolari uchun joylarni tanlash va qurilish uchun er maydoni tanlash (davomi)	2	2		2	
16	XXI asrning yangi arxitekturasining muammolari	2	2		2	
17	XXI asrning yangi arxitekturasining muammolari (davomi)	2	2		2	
18	Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish	2	2			2
19	Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish	2	2			2

	(davomi)					
20	Shahar, tuman va qishloq aholi punktlarining rejaviy yechimlari va ularni takomillashtirish yo‘llari	2	2			2
21	Shahar, tuman va qishloq aholi punktlarining rejaviy yechimlari va ularni takomillashtirish yo‘llari (davomi)	2	2			2
22	Zamonaviy urbanizmning asosiy muammolari. Istiqbolli tendentsiyalarning paydo bo‘lishi.	2	2			2
23	Zamonaviy urbanizmning asosiy muammolari. Istiqbolli tendentsiyalarning paydo bo'lishi (davomi)	2	2			2
		46		12	22	12

NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Arxitekturaning zamonaviy muammolari. An’ana innovatsiya

Shaharlar va qishloq aholi punktlarining loyihalarining mazmun-mohiyati.Jamoat binolarining tasniflanishi (klassifikatsiyasi) tahlili. Jamoat binolarini loyihalashda va qurilishda zamonaviy texnologiyalar, xorijiy tajribalar.Ko’p funksiyali yacheykali turar-joy binosi bo’yicha umumiy tushunchalar taklif hamda tavsiyalar

2-mavzu: Arxitektura fanining hozirgi holati

Arxitektura va qurilish sohasiga oid islohotlar.Shaharsozlik va loyiha hujjatlarini ekspertizadan o’tkazishning yangilangan qoidalari. Shaharsozlik hujjatlari ekspertizadan o’tkazilishi

3-mavzu: Tarixiy binolarni rekonstruksiya qilish muammolari

Tarixiy obidalarni ta’mirlash nazariyasining shakllanishi. Me’moriy obidalarning buzilish sabablari.

4-mavzu :Hududlarning bosh erajalari

Shaharlar tipologiyasi. Shahar loyihasining asosiy prinsiplari va xususiyatlari. Mavjud shaharning rivojlanishi va yangisini qurish uchun hudud

5-mavzu: Hududlarining bosh erajalari (davomi)

Shaharlar tipologiyasi. Shahar loyihasining asosiy prinsiplari va xususiyatlari. Mavjud shaharning rivojlanishi va yangisini qurish uchun hudud

6-mavzu: Memorchilikning shakllanish jarayonlarini yaxlit anglashda chet-el tajribasi

O'zbekiston Respublikasida madaniy meros vazirligining xizmat ko'rsatish sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati. Hozirgi kunda me'morchilik uslublari tahlili. Memorchilikning shakllanishida chet-el tajribasi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Shaharsozlikda me'yoriy hujjatlar tizimi, huquqiy va me'yoriy ta'minlanganlik, shaharsozlik nazorati faoliyati sohasida ma'muriy huquqbuzarliklar.

Asosiy tushunchalar. Shaharsozlikda me'yoriy hujjatlar tizimi tushunchasi. maqsadi va vazifalari. Huquqiy va me'yoriy ta'minlanganlik, asosiy tushunchalari, mohiyati; Shaharsozlik nazorati faoliyati sohasidagi munosabatlarni tashkil etish

2-amaliy mashg'ulot: Hozirgi kunda O'zbekistonning shaharsozlik arxitekturasini tahlili (amaliy)

3-amaliy mashg'ulot: Hozirgi kunda O'zbekistonning shaharsozlik arxitekturasini tahlili (amaliy)

4-amaliy mashg'ulot: Arxitektura taraqqiyotining jahon jarayonini umumlashtirish Antonio Gaudi ijodi, BAUXAUS, Valter Adolf Georg Gropius ijodi, XX asr arxitekturasini va funksionalizm, dekonstruktivizm uslubi, Zaha Hadid.

5-amaliy mashg'ulot: Arxitektura taraqqiyotining jahon jarayonini umumlashtirish Antonio Gaudi ijodi, BAUXAUS, Valter Adolf Georg Gropius ijodi, XX asr arxitekturası va funksionalizm, dekonstruktivizm uslubi, Zaha Hadid.

6-amaliy mashg'ulot: Qishloq aholi yashash punktlarining bosh rejalari, ob'yektlarni loyihalash (rekonstruksiyalash) uchun arxitekturaviy rejalash topshirig'ini tuzish.

Qishloq aholi punktlarini me'moriy loyihalash tamoyillari. Qishloq aholi punktlarini rivojlantirish tendentsiyalari. Rejalashtirish va qurilish tamoyillar. Ta'lim dasturining tuzilishi. Arxitektura kontseptsiyasiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy me'moriy g'oya va loyihadan oldingi tadqiqotlar natijalari taqdimoti. Arxitektura kontseptsiyasi va dizayndan oldingi tadqiqotlarning ta'siri.

6-amaliy mashg'ulot: Qishloq aholi yashash punktlarining bosh rejalari, ob'yektlarni loyihalash (rekonstruksiyalash) uchun arxitekturaviy rejalash topshirig'ini tuzish.

Qishloq aholi punktlarini me'moriy loyihalash tamoyillari. Qishloq aholi punktlarini rivojlantirish tendentsiyalari. Rejalashtirish va qurilish tamoyillar. Ta'lim dasturining tuzilishi. Arxitektura kontseptsiyasiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy me'moriy g'oya va loyihadan oldingi tadqiqotlar natijalari taqdimoti. Arxitektura kontseptsiyasi va dizayndan oldingi tadqiqotlarning ta'siri.

8- amaliy mashg'ulot: Qishloq joylarida ijtimoiy mo'ljallangan obyektlar bilan birgalikda na'munaviy loyihalar asosida quriladigan turarjoy binolari uchun joylarni tanlash va qurilish uchun er maydoni tanlash

turar-joylar, uy-joy fondi, uy-joy fondini boshqarish, namunaviy uylar, namunaviy uylarni boshqarish, namunaviy uylar ekspluatatsiyasi, ko'p kvartirali uy-joy fondi, kommunal xizmatlar, namunaviy uylarni boshqarish usullari, bevosita boshqaruv, shirkatlar tuzish, boshqaruvchi tashkilotlar (boshqaruv servis kompaniyalari).

9-amaliy mashg'ulot: Qishloq joylarida ijtimoiy mo'ljallangan obyektlar bilan birgalikda na'munaviy loyihalar asosida quriladigan turarjoy binolari uchun joylarni tanlash va qurilish uchun er maydoni tanlash

turar-joylar, uy-joy fondi, uy-joy fondini boshqarish, namunaviy uylar,

namunaviy uylarni boshqarish, namunaviy uylar ekspluatatsiyasi, ko'p kvartirali uy-joy fondi, kommunal xizmatlar, namunaviy uylarni boshqarish usullari, bevosita boshqaruv, shirkatlar tuzish, boshqaruvchi tashkilotlar (boshqaruv servis kompaniyalari).

10-amaliy mashg'ulot: XXI asrning yangi arxitekturasining muammolari
XXI asr arxitekturasini, muammolar, hal qilish, smart shaharlar, ekologiya, texnologiyalar, moliya, ijtimoiy integratsiya, 3D-bosma modellash, robototexnika, tendensiyalar.

11-amaliy mashg'ulot: XXI asrning yangi arxitekturasining muammolari
XXI asr arxitekturasini, muammolar, hal qilish, smart shaharlar, ekologiya, texnologiyalar, moliya, ijtimoiy integratsiya, 3D-bosma modellash, robototexnika, tendensiyalar.

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1- ko'chma mashg'ulot: Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish

Iqlim, tahlil, geologik tuzilish, landshaft, transport, tuman, shahar, geomorfologik, agroiklimiy, ekologik shaharlar, transport tarmoqlari, shahar va qishloqlar turizm markazlari, bosh reja sxemalari, Apot rejalashtirish loyihalari.

2- ko'chma mashg'ulot: Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish

Iqlim, tahlil, geologik tuzilish, landshaft, transport, tuman, shahar, geomorfologik, agroiklimiy, ekologik shaharlar, transport tarmoqlari, shahar va qishloqlar turizm markazlari, bosh reja sxemalari, Apot rejalashtirish loyihalari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

-ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN
INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“SWOT-TAHLIL” METODI

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalami tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S - (strength)	• kuchli tomonlari
W - (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O - (opportunity)	• imkoniyatlari
T - (threat)	• to‘siqlar

Namuna: Peyzaj uslubida ko‘kalamzorlashtirish.

S Tabiiy manzarani sun’iy tarzda yaratish yuqori mahorat talab etadi.

Daraxt va butalarni erkin usulda joylashtirish imkoniyati mavjud.

Shakl berish murakkab emas.

W Qat’iy qonuniyat yoki tartib mavjud emas.

O Kichik arxitektura shakllaridan keng foydalanish mumkin.

T Parvarishlash texnologiyalarini joylashtirish.

Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bumetod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi.

Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi.

Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy vaseminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Namuna:

Ko'kalamzorlashtirish uslublari					
Peyzaj		Regulyar		Aralash	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“FSMU” METODI

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlarni tarqatiladi:

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringiz bayoniga sabab koʻrsating
M	• koʻrsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	fikringizni umumlashtiring

-ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asos boʻladi.

Namuna.

Fikr: “Koʻkalamzorlashtirishda daraxtlarni bir-biridan oziqlanish maydoniga nisbatan joylashtirish kerak”

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod taʼlim oluvchiMaming bilim darajasini baholash, nazorat qilish, oʻzlashtirish koʻrsatkichi va amaliy koʻnikmalarini tekshirishga yoʻnaltirilgan. Mazkur texnika orqali taʼlim oluvchilarning bilish faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boʻyicha tashhis qilinadi va baholanadi.


Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan maʼruza mashgʻulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini oʻrganishda, yangi maʼlumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashgʻulotlarda esa mavzu yoki maʼlumotlarni oʻzlashtirish darajasini baholash, shuningdek, oʻz-oʻzini baholash maqsadida individual shaklda

foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin

“INSERT” METODI



Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsusbelgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot			
“?” – mazkur ma’lumotni			

tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ❖ ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- ❖ navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- ❖ juftliklammg tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: Arxitekturaning zamonaviy muammolari. An’ana innovatsiya

Reja:

- 1. Shaharlar va qishloq aholi punqtlarining layiholahining mazmun-mohiyati;**
- 2. Jamoat binolarining tasniflanishi (klassifikatsiyasi)tahlili;**

3. Jamoat binolarini loyihalashda va qurishda zamonaviy texnologiyalar, xorijiy tajribalar;

4. Ko'p funksiyali yacheykali turar-joy binosi bo'yicha umumiy tushunchalar taklif hamda tavsiyalar.

Kalit so'zlar: turar joylar, Jamoat binolari , Shaharlar va qishloq aholi punktlari, ko'p qavatli uylar, Ko'p funksiyali uylar, Jamoat binolari uylar ekspluatatsiyasi, ko'p kvartirali uylarni boshqarish usullari, bevosita boshqaruv.

1. Shaharlar va qishloq aholi punktlarining layiholashining mazmun-mohiyati;

Jamoat binolari o'zining asosiy vazifalari (funktsiyalar), aholi punktlarida joylashishi, rejaviy tuzilmasi, asosiy xonalar tarkibi, arxitekturaviy kompozitsiyasining g'oyaviy-badiiy tasvirlanishi bo'yicha tasniflanadi. Jamoat binolarining joylashish o'rnini uning ahamiyatiga, unga shahar qishloq, tuman yoki mikrorayon aholisining ehtiyoji darajasiga, xizmat ko'rsatiladigan aholining toifalariga hamda uning bajaradigan vazifalariga ko'ra aniqlanadi.

Insoniyat o'z taraqqiyotida turar joyning ikkita asosiy shaklini yaratdi: shahar va qishloq. Ushbu turar -joy shakllarining tasnifi va rivojlanish istiqbollari aniqlash ularning moddiy va fazoviy xususiyatlariga nisbatan ularning ijtimoiy farqlarini aniqlashni talab qiladi. Bunga quyidagilar kiradi: aholi punktlarining kattaligi, iqtisodiy profili, turmush tarzi va aholining ijtimoiy-demografik tuzilishi, aholining tabiiy va migratsion harakatining dinamikasi, madaniy va kommunal xizmat ko'rsatish darajasi, tabiati, uy -joy fondi, hisob -kitoblar tizimida aholi punktlarining o'rnini va boshqalar. Shaharni aholi soni, zichligi va zichligi bo'yicha, asosan qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan sohalarda band bo'lgan aholi punktlari sifatida aniqlash odatiy holdir. Shahar aholisi hayotiy va kundalik faoliyatning haqiqatidan kelib chiqib, hududda yaxlit ijtimoiy shaklga – hududiy jamoaga birlashgan. Shahar nisbatan avtonom ijtimoiy tizim bo'lib, funksional va fazoviy yaxlitligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, shaharni jamiyatning hududiy tashkilotiga kiruvchi ochiq ijtimoiy-fazoviy tizim sifatida aniqlash mumkin. ¹Shahar shaharsozlik ob'ekti shahar jamoasining hayoti

¹ M. I. Samandarov, I. S. Baydjanov. «Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari»

uchun moddiy va fazoviy muhit hisoblanadi. SHahar qurilishining ijtimoiy. va shaharsozlik vazifalari o‘zaro bog‘liqdir. SHaharni rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy rejalari tasodifiy uning ijtimoiy jarayonlarini rivojlantirishning maqsadli dasturi va ularni amalga oshirishning asosiy vositalarini ishlab chiqish. SHu munosabat bilan rivojlanishni rejalashtirishni ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun moddiy asos yaratishni ta’minlaydigan, ijtimoiy rejalashtirishning eng muhim qismi deb hisoblash mumkin. SHahar – bu yuqori darajadagi turar -joy tizimining elementi. Ochiq tizim sifatida shahar tuman darajasidagi ijtimoiy-hududiy tizimlarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanadi va ishlaydi. Viloyat, respublika, mamlakat. SHu sababli, shaharni rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish me’moriy va shaharsozlik xalq xo‘jaligini rejalashtirishning umumiy pozitsiyalariga asoslanadi, shaharning turar -joy tizimidagi o‘rnini o‘rgatadi. YAngi shaharlarni rivojlantirish, rekonstruksiya qilish yoki qurish dasturlarini ishlab chiqish uchun asos-ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish to‘g‘risidagi qarorlar, ular viloyat darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tegishli rejalarda va tuman rejalashtirish loyihalarida qabul qilingan. Dizayner shaharning viloyat, respublika xalq xo‘jaligi majmuasida tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlarga asoslanib, shahar yaratuvchi bazasini kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi, o‘shir istiqbollarini, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni belgilaydi. SHahar dizaynining ijtimoiy asoslari haqida gapirganda, biz yana ijtimoiy tushunchaga qaytishimiz kerak. Biz allaqachon bu atamaning noaniqligini aytib o‘tgan edik. Birinchidan, xobitsenik> sinonimi sifatida, va shu ma’noda, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalarning barcha jihatlari – iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning ajralishi, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, aloqa shakllari va umuman – ijtimoiy reproduksiya shaxs SHahar dizaynida odam mehnat, ijtimoiy, maishiy, ijtimoiy ehtiyojlari bilan birinchi o‘ringa chiqadi ²

2. Jamoat binolarining tasniflanishi (klassifikatsiyasi)tahlili;

Jamoat binolari va uning majmualari sun’iy yaratilgan muhit bo‘lib, bir yoki bir nechta jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan insonning hayotiy fao-liyatini o‘tkazishga

² M. I. Samandarov, I. S. Baydjanov. «Arxitekturaviy loyihalashning ijtimoiy asoslari»

mo'ljallangandir. jamoat bino va inshootlarining eng asosiy omili uning hajmiy rejalashtirilishi asosini insonning hayotiy faoliyati davomida jamiyatga xizmat qilishiga erishishdan iboratdir. shuning uchun ham jamoat bino va inshootlarini loyihalashda turli xildagi kompleks omillar(faktorlar)ni hisobga kerak bo'ladi. bular: ijtimoiy, shaharsozlik, tabiiy-iqlimiy, milliy-maishiy, konstruktiv, fizo-texnikaviy, iqtisodiy, arxitekturaviy-badiiy va boshqalardan iborat.

Asosiy omil esa, uning insonga xizmatidir. Inson turmush tarzining beqiyos darajada o'sib borishi texnik jarayonlarning aktivligi bilan bog'liqligi natijasi o'laroq funksional-texnologik jarayonlar ham jamoat binolarining yangi-yangi tiplarini yaratishni taqozo etadi. Hozirgacha 14-guruhdan iborat bo'lgan arxitektura qurilish normalarining jamoat bino va inshootlarining tasnifi(klassifikatsiyasi) mavjud bo'lib, bular 900 dan ortiqdir.

Jamoat bino va inshootlarini loyihalashda bilish kerak bo'lgan narsalar zamonaviy loyihalash va qurish tajribasida qo'llashda ishlatiladigan uslublardan sanalmish arxitektura qurilish standarti: tipiklashtirish, umumlashtirish, me'yorlashtirish va standartlashtirishdan iborat. Tipizatsiya(tipiklashtirish) - bu yagona arxitekturaviy qurilish jarayoni bo'lib, binolarning ko'p marta takrorlanishi, ayrim bo'lak va qismlar (seksiyalar) blok - seksiya (hajmiy-rejalashtirish elementlari) hamda ayrim detal va qurilmalardan iborat bo'lib, arxitekturaviy badiiy funksiyaga, texnologik va konstruktiv echimiga, iqtisodiy talablarga javob berishi lozim.

Tipizatsiya(tipiklashtirish) - bu oliy darajadagi standartlashtirishdir. Tipizatsiya unifikatsiya(umumlashtirish) asosida amalga oshiriladi. Unifikatsiya arxitektura va qurilishda bino va inshootlarning o'lchovlarini, uning bo'lagi qismlarining gabaritlarini yaxshilab ilmiy ravishda o'rganilgan va isbotlangan narsadir.

Arxitektura qurilish standartidagi asosiy tomonlar modul sistemasiga asoslangandir. Strukturaviy modul aniq bir qurilish detalining o'lchami bilan bog'liq. Masalan, ustun, yumaloq to'sin, g'isht, panel va hokazolar. Binoning barcha o'lchamlari va uning qism bo'laklari ana shu strukturaviy modulga nisbatan geometrik qurilma tarzida yoki hisoblanish holatida aniqlanadi.

Zamonaviy binolar katakli modul asosida loyihalanadi. Le Korbyuze-modul ham ikki qatorning oltin nisbati asosida qurilgan bo'lib 183 sm.li odamning o'lchamidan

kelib chiqqan, 226sm. (qo'lning ko'tarilgan holati) Ikkala strukturaviy va o'lchovli modullar ham chet elda va o'zimizda qo'llanib kelinmoqda. Jamoat binolarining diapazoni keng bo'lib, o'ziga barcha turkumdagi binolarni o'quv-tarbiya muassasalarini, savdo-maishiy xizmat, tibbiy sog'lomlashtirish, ilmiy-tekshirish institutlari, oliy o'quv yurtlari, teatr-kino klublari, muzey tomosha zallari, kutubxona, sport inshootlari va hokazolarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, ishlash sharoiti, dam olish maishiy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan sun'iy muhitning asosini tashkil qilibgina qolmay, ko'p hollarda turar joylar, qishloq va shaharlar qiyofasini belgilab beradi.

Normalizatsiya (me'yorlashtirish), bu - tipizatsiya kurinishlaridan biri bo'lib, turli tipdagi jamoat binolarining va ularni fragmentlarini rejalashtirish echimlarini topishda qo'shimcha rol o'ynaydi.

Jamoat binolari o'zining ko'rinishi, turiga hamda rejalashtirilishiga qarab turli-tuman bo'lib, binolarning ko'pchiligini tashkil qiladi. SHunga qarab uning uskunolari ham turli tuman va xilma-xildir. Hozirgi zamon arxitekturasida va qurilishida uskunalarni qurilish joyiga va binoning funksiyasiga qarab tanlash taqozo etiladi.

Binolarni loyihalash tartibiga qarab barcha turdagi binolarning ustuvorligi va ishlatilish mo'ljalligiga qarab toifalarga ajratiladi. Toifaga tegishli bo'lmagan eng yirik, davlat ahamiyatiga molik binolarning xizmat ko'rsatish muddati 100 va undan ortiq yil bo'ladi. Masalan: Toshkentdagi "Xalqlar do'stligi" saroyi bunga misol bo'la oladi.

1-toifali binolar shaharlarda ko'plab quriladigan binolar bo'lib, 70 yil va undan ko'proq muddat foydalanish mo'ljallanadi. Madaniyat saroylari, vokzallar, aeroportlar, va boshqalar bunga misol bo'ladi.

2-toifali binolar shaharda ko'plab uchraydigan ma'muriy bino, mehmonxona, restoran kabi binolardan iborat bo'lib, eng kamida 50 yilga mo'ljallanadi.

3-toifali binolarning xizmat ko'rsatish muddati boshqalariga qaraganda kamroq bo'lib, 25-50 yilga boradi.

Shu bilan birga, har bir binoning uskunolari o'tga chidamliligiga qarab ham toifaga ajratiladi. Binolarning uskunolari uning ishlatilishiga qarab kam qavatli, ko'p qavatli yoki katta masofali (prolyot) deb aytiladi.

Jamoat binolarini loyihalashda bir qancha omillar - yorug'lik, ranglarning arxitekturaviy kompozitsiyada estetik rol o'ynashi mutaxassislar arxitektorlarni tayyorlashda, ularning ijodiy faoliyatida juda muhim xizmat ko'rsatadi.

Yorug'lik, bu - faqatgina zamonaviy arxitektorlarning ijodiy uslubidagi shakl va bo'shliq yaratuvchi omil(faktor)larning bir ulushidir, xolos. Bu kabi omillar kompleksi (majmuasi) arxitekura fanining salmoqli bo'limi bo'lib, arxitekturaning sifatini va fizikaviy parametrlarini aniqlovchidir. Binoning fayzli bo'lishiga kurkamlik bag'ishlashda, iqtisodiy va tejamlilik masalalarini xal qilishda loyihalash echimlarining mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Xullas, ushbu tarmoq inson tomonidan atrof-muhit bilan bog'langan, rang, yorug'lik, issiq-sovuq, akustika qonuniyatlarini aniqlashda katta rol o'ynaydi, umuman "Arxitekturaviy klimatologiya" ni tashkil qiladi.

Arxitekturaviy kompozitsiyaning konstruktiv yechimlarini hal qilishda quyidagi: tabiiy va sun'iy muhit, quyosh radiatsiyasi, rang, havo va namlik, shamolning tezligi va yo'nalishi, yog'ingarchilik va tovushlar kabi komponentlar juda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi industrial qurilish jarayonida insoning turmush tarzini tabiiy - iqlim sharoitisiz, yuqorida qayd etilgan komponentlarsiz tassavur qilish qiyin.

Yorug'lik, issiqlik muhiti, akustika, mikroiklimlarni arxitekturaviy loyihalashda tutgan o'rni beqiyos darajada muhim bo'lib, bularni o'rganmay turib unga rioya qilishi shart.

Jamoat bino va inshootlarini loyihalashning arxitekturaviy-klimatik asoslari quyidagilarni: arxitektor ijodida predmetning o'rni, yorug'rangli muhit, tabiiy yasama va qo'shma yorug'lik, insolyasiya va quyoshdan saqlagichlar, binolarda mikroklimat, zal akustikasi va shovqindan saqlanish o'z ichiga oladi. [2].

3. Jamoat binolarini loyihalashda va qurishda zamonaviy texnologiyalar, xorijiy tajribalar;

"Toshkent-Siti"dagi har bir bino qurilishida serquyosh O'zbekiston, Toshkentning keskin kontinental iqlimi: yozdagi jaziramasi, qish qahratoni havosi sharoitida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan oftobning qaysi tomondan chiqishi, orbita bo'ylab yo'nalishi, botishi, bino xonalaridagi toza va mo'tadil havoni ta'minlash hisobga olinmoqda. Loyiha bo'yicha ayni tush paytida quyoshning

jazirama nurlari to'g'ridan-to'g'ri deraza oynalariga tik tushmaydi. Binoning ichi tabiat fasllariga monand qishda issiq, yozda salqin bo'lishi ta'minlanadi. Zamonaviy qulaylik yaratib beradigan havoni isitish va sovutish uskunalaridan ham unumli foydalaniladi. Ko'zni qamashtiradigan quyosh nurlari to'g'ridanto'g'ri yuzga yoki deraza oynalariga urilmaydi. Har bir binoning turgan joyi, xona va derazalari soyaga yoki yorug'likka qarab joylashishi alohida e'tiborga olinmoqda.

"Toshkent-Siti" majmuasida alohida maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari hududi bo'ladi. O'qish bu erda ehtiyojga qarab o'zbek, ingliz, rus, xitoy, hind va boshqa SHarq va Evropa tillarida olib boriladi. So'zsiz ta'limda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Dam olib, madaniy hordiq chiqariladigan alohida xiyobonlar hududini yaratish ko'zda tutilgan. Restoran, kafelardan iborat alohida umumiy ovqatlanish korxonalari hududi ham barpo etiladi. Aytgandek, taomnoma ham Evropa, ham SHarq xalqlari taomlari va, albatta o'zbek palovi, ko'k somsasi, kabobi, qaynatma sho'rvasiyu qovurma lag'monidan iborat bo'ladi. Dasturxonda qishin-yozin uzum, olma, shaftoli, o'rik, anor deysizmi, qovuntarvuz deysizmi, barchasi muhayyo bo'ladi. Buxoroning qo'li gul zardo'zlari tillo ipi bilan tikkan buyumlar, Namangan xonatlasiyu banoraslari, kulolchilik, zargarlik, qandolatchilik mahsulotlari hammasi bisyor bo'ladi. Bularni mehmonlar o'zi bilan olib ketishiga imkoniyat yaratiladi.

Sarf qilinadigan mablag'lar ham chakana emas. 45-50 qavatli mehmonxona va ofis binolarining har biri ko'pi bilan 250 million dollarga tushadi. Bularga sarflangan mablag'lar bir necha bor ortiqroq qilib oqlanishi kerak. O'zimizning mebelchilarimiz hozir importdan qolishmaydigan darajada mehmonxona, yotoqxona, oshxona, ofis mebellarini ishlab chiqarmoqda. Asosan chet ellik mehmonlar yashaydigan, ishlaydigan "Toshkent-Siti"ning shartlari, talabi yanada yuqori bo'ladi. SHu sababli ular milliy hunarmandligimizni o'zida aks ettirgan chiroyli, o'ta mustahkam, juda qulay mebellar tayyorlab berishi kerak. "Toshkent-Siti"da 40-45 qavatli 2 ta bank binosi va 230 o'rinli 5 yulduzli mehmonxona, kongress-xoll qad ko'taradi. "Toshkent-Siti"ning qurilishiga 3-5 milliard dollar miqdorida mablag'sarflanishi mo'ljallangan. Sitida innovatsiya bog'i, sport maydonchalari, voleybol, tennis kortlari, maxsus yugurish yo'lagi qurilishi ko'zda tutilgan.

"Toshkent-Siti" biznes markazi majmuasida hamma narsa muhayyo etilmoqda.

Xizmatning barcha turini uzoqqa bormay, hatto binodan tashqariga chiqmay, yaqin va qulay joyda, binoning o'zida yoki shundoqqina yonida bajarish imkoniyati paydo bo'ladi. Majmuada investorlar uchun barcha qulaylik yaratiladi. Valyuta ayirboshlashmi, restoran, kafe, internet-magazinmi, turli rusumdagi engil avtomobil yoki boshqa bir texnika vositasini yollash, ijaraga olish punktimi, sauna, kiyim tozalash, soch-soqol olish, qo'yingki, istagan narsangizni shu erning o'zida topishingiz mumkin.

"Toshkent-Siti"da alohida savdo hududi barpo etiladi. Sifatli ko'rsatilgan xizmat, avvalo, ko'p mehnat va, hayron bo'lmang, mehr, qolaversa, albatta, nozik va puxta ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bu xizmat, tan olish kerak, qimmat turadi, lekin o'zidan ajoyib taassurot qoldiradi. Demak, Toshkent Sitida ko'rsatilgan xizmat dunyoning eng yirik shaharlaridagi eng zo'r Sitilardagi xizmatdan ham yuqoriroq va sifatliroq bo'lishi, zo'rroq ijobiy taassurot qoldirishi kerak. SHundagina tadbirkor, ishbilarmon, biznesmenda yana O'zbekistonga, Toshkentga, "Toshkent-Siti"ga qaytish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Biznesmen, ishbilarmon, tadbirkor hayotda rosa pishgan, ko'proq tahliliy, tanqidiy fikrlaydigan, katta aql va idrokka ega bo'lgan, tez o'ylaydigan, tez harakat qiladigan, zudlik bilan xulosa chiqarib, qaror qabul qiladigan inson bo'ladi. Biznesmenning muvaffaqiyati ham ana shunda. Unga xizmat ko'rsatadigan Siti xodimi esa undan, ya'ni mijozdan ham tez o'ylaydigan, mijoz bir fikrga kelmasdan uning maqsadini anglab, bir qarorga kelishiga yordam beradigan, undan ham aqlli, ishbilarmon, tadbirkor bo'lishi lozim. Mijozning yuziga, ko'ziga qarab uning istak-xohishini tezda uqib, rejasini bilib oladigan kishi bo'lishi va qulay fursatdan foydalanib o'z xizmatini taklif etishi lozim. Siti xodimi yuksak estetik didga ega bo'lgan, tez va nozik fikrlaydigan psixolog, ruhshunos, so'zda-gapda filolog, diplomat bo'lishi darkor. 45-50 qavatli binolar Markaziy Osiyoda birinchi bor qad ko'taradigan bo'ldi. Quruvchi, loyihachilarimizning ham bu sohada hali tajribasi yo'q. Siti qurilishi O'zbekiston sharoitida ana shunday ko'p qavatli uylar barpo etadigan quruvchi, ishchi-mutaxassislarni shakllantiradi. "Toshkent-Siti"ning o'ziga xos muammolari ham mavjud. Loyihachilar hozir ana shunday yirik bir muammoga duch keldi. Zamin, erning murakkab geologik strukturasi, geotektonik xususiyatlari sababli, loyiha qurilish ishlarini nihoyatda puxta va sifatli olib borish shartligi ma'lum bo'ldi. Bu muammoni hal etish ustida shu sohada katta tajriba to'plagan to'rtta davlat: AQSH,

O‘zbekiston, Rossiya va Yaponiya olimu mutaxassislari tajribasiga tayangan xolda va ularning xulosalari asosida amalga oshirildi. Burg‘ular yordamida 40-50 metr parmalab, erga kirib bino asoslari – poydevor qismlari o‘rnatildi. Er ostidagi o‘zlashtirilgan maydonlarni ham tuproq bosib yotmaydi, bu joylarni er osti garajlari egallaydi. "Toshkent-Siti" binolarining poydevori ostida 14-16 ming avtomashinaga mo‘ljallangan 2-3 qavatli garajlar barpo etiladi.

Muxtasar aytganda, "Toshkent-Siti"da bugun ish qizg‘in. Nasib qilsa, yaqin kelajakda poytaxtimizda qad rostlayotgan bu "kichik shahar"ning butun ko‘rk-u tarovati, jozibasi-yu salobati, salohiyatini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rish imkoniyatiga egabo‘lasiz.



Toshkent shahridagi Nest One binosi maketi

4. Ko‘p funksiyali yacheykali turar-joy binosi bo‘yicha umumiy tushunchalar taklif hamda tavsiyalar.

Ko‘p funksiyali yacheykali turar-joy binosi majmualari(**KFTM**) bizga chet eldan keldi: Evropa va AQSHda ular tobora ommalashib bormoqda, shuning uchun ularning bizning bozorga chiqishi ajablanarli emas. Oddiy so‘z bilan aytganda, bu "shahar ichidagi shahar", unda yashovchilar uchun maksimal qulaylikni ta‘minlash uchun o‘zining rivojlangan infratuzilmasi mavjud. Baland binolar va shahar muhiti bo‘yicha xalqaro kengash 2018 yil yakunlarini sarhisob qildi. Tashkilot hisobotiga

ko‘ra 2018 yilda balandligi 200 metrdan yuqori bo‘lgan 143 ta bino qurilgan va bu rekord natija qayd etilgan 2017 yilga nisbatan atigi to‘rttaga kam. SHu bilan birga, «o‘ta yuqori» osmono‘par binolar (balandligi 300 metrdan oshiq) soni bo‘yicha jahon rekordi qayd etildi – 18 ta. 2018 yilda dunyodagi barcha osmono‘par binolarning to‘rtidan uch qismi Osiyoda paydo bo‘ldi.



Agar an‘anaviy turar-joy majmuasi bolalar bog‘chasini va pastki qavatlardagi bir nechta do‘konlarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lsa, unda XMKda tijorat ko‘chmas mulki uchun ko‘proq joy ajratiladi.

Zamonaviy **KFTM** hududida quyidagilar joylashgan bo‘lishi mumkin:

- Bolalar bog‘chalari;
- do‘konlar;
- kafe, bar va restoranlar;
- savdo markazlari;
- ko‘rgazma galereyalari;
- kinoteatrlar;
- bolalar ko‘ngilochar markazlari;
- sport zallari.

Bu nima bo‘lishi mumkinligi haqida to‘liq ro‘yxat emas, ammo bu shunchaki aholining ko‘ngil ochish uchun to‘liq imkoniyatlarini olishlarini tushunish uchun etarli. Albatta, bunday majmualar markazda yoki yirik transport chorrahalari yaqinida, eng ekologik toza joylarda yaxshi joylarni o‘rnatadi.

KFTM hududida quyidagilarni joylashtirishga ruxsat berilmaydi:

- 1) 50 dan ortiq o‘rindiqa ega ovqatlanish joylari (yotoqxonadan tashqari) va kuniga 500 ta ovqatlanish imkoniyati bo‘lgan oshxonalar;
- 2) shisha idishlar uchun yig‘ish punktlari, shuningdek umumiy savdo maydoni 1000 m² dan ortiq bo‘lgan do‘konlar;
- 3) faoliyat yuritishi turar joy binolari va kvartiralarining hududi va havosini ifloslanishiga olib keladigan shovqin, tebranish, ionlashtiruvchi va ionlashtirmaydigan nurlanishning oshishiga olib keladigan ixtisoslashtirilgan muassasalar va korxonalar;
- 4) faoliyati, turar joy binolari hududi va havosini ifloslanishiga olib keladigan ixtisoslashtirilgan qurilish materiallari, moylash materiallari va boshqa buyumlar do‘konlari, portlovchi va yong‘inga xavfli moddalar va materiallarni sotadigan do‘konlar, ixtisoslashgan baliq va sabzavot do‘konlari;
- 5) YOnuvchan moddalarni ishlatadigan maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar (sartaroshxonalar, dizayn maydoni 300 m² gacha bo‘lgan ta‘mirlash ustaxonalari bundan mustasno);
- 6) maishiy texnika va moslamalarni ta‘mirlash ustaxonalari, dizayn maydoni 100 m dan ortiq bo‘lgan poyafzallarni ta‘mirlash;
- 7) vannalar va saunalar (quruq issiqlik vannalari), kir yuvish va quruq tozalagichlar (qabul qilish punktlari va bir smenada 75 kg gacha bo‘lgan zig‘ir unumdorligi bilan xizmat qiladigan kirxonalar bundan mustasno);
- 8) umumiy maydoni 100 m² dan ortiq bo‘lgan turar-joy binolari uchun telefonlarni o‘rnatish uchun mo‘ljallangan avtomatik telefon stansiyalari;
- 9) jamoat hojatxonalari;
- 10) dafn qilish idoralari.

Turar-joy binolarida rassomlar va me‘morlarning ijodiy ustaxonalarini yuqori qavatda (shu jumladan, chodirda) joylashtirishga ruxsat beriladi, binoning turar-joy qismidagi zinapoyalarga kirish esa 1-turdagi yong‘in shlyuzi orqali ta‘minlanishi kerak.

2-MAVZU: ARXITEKTURA FANINING HOZIRGI HOLATI

Reja.

1. Arxitektura va Qurilish sohasiga oid islohotlar
2. Shaharsozlik va loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning yangilangan qoidalari
3. SHaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilishi

O'zbekiston qurilish sohasida tub burilishlarni amalga oshirmoqda

Joriy yilda mamlakatimizda shu kungacha ishlab chiqarilmagan: gazobeton bloklari, gulqog'oz, keramogranit, quyma pol, 600 markali sement, geosetka, penoblok, shisha kristallit, kompozit va DSP ishlab chiqarish o'zlashtirildi.



Sir emaski, O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta'minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijada bunyodkorlik ko'lamlari tobora kengayib bormoqda.

Biroq, qurilish sohasidagi yangi davrning boshlanishi, tizimdagi muammolarni aniqlash, tan olish va ochiqdash, ayniqsa, ularni yechish oson kechgani yo'q. 2017-2019 yillar va 2020 yilning shu kuniga qadar qurilish sohasini tartibga soluvchi jami 40 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi: 2017 - 4 ta, 2018 yilda - 13 ta, 2019 yilda - 10 ta va 2020 yilning shu kunigacha 10 dan ortiq. Ushbu qaror va

farmonlar tizimda yillar davomida saqlanib qolgan muammolarni tubdan isloh qilishga qaratildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 mayida PQ-2936-son O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tarkibiy tuzilmasi tubdan o‘zgartirildi va yangi vazifalar qo‘yildi. Qo‘mitaning hududiy bo‘linmalari qo‘shimcha shtat birliklari bilan kengaytirildi. Natijada, 11 ta hududda “O‘zshaharsozlik” va Samarqand shahrida “Toshkentboshplan” loyiha instituti filiallari, shuningdek, 13 ta hududda 26 ta yetakchi loyiha tashkiloti ochildi. Toshkent va Samarqand arxitektura-qurilish institutlari hamda 14 ta qurilish kasb-hunar kolleji qo‘mita tasarrufiga o‘tkazildi.

Biroq, sohaga doir normativ hujjatlar, jumladan, shaharsozlik qoidalari va qurilish me‘yorlarining aksariyat qismi eskirgan, sobiq tuzum davridan qolib ketganligi tufayli, ushbu me‘yorlarni zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarbligicha qoldi. Shaharlarning bosh rejalari, qishloqlarda arxitektura-rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish talabga mutlaqo javob bermas edi. Bundan tashqari, qurilish va loyihalash bo‘yicha kadrlar tayyorlash sifati ham talabga javob bermas edi. Xususan, tizimdagi 500 ga yaqin vakant o‘rinlar, jumladan, tuman (shahar) arxitektura va qurilish bo‘limlaridagi 110 ta, loyiha tashkilotlaridagi 200 ga yaqin shtatlar vakantligicha qolgan. Har tomonlama salohiyatga ega bo‘lgan professional qurilish-pudrat tashkilotlari shakllanmagani, ulardagi mavjud moddiy-texnik baza, moliyaviy manbalar tobora ortib borayotgan qurilish ishlari hajmini to‘liq qoplashga qodir emas ahvolga kelib qolgan edi. Bir so‘z bilan aytganda, Qo‘mitaga bildirilgan ishonch oqlanmadi.

Yillar davomida yig‘ilib qolgan ushbu muammolar va yo‘l qo‘yilgan sustkashliklarni bartaraf etish maqsadida davlat rahbari farmoni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5392-son farmoniga muvofiq Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Qurilish vazirligi tashkil etildi.

Vazirlikning asosiy vazifalari etib - shaharsozlik va qurilish uchun muhandislik-texnik izlanishlar sohasida yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish, respublika

hududida aholini joylashtirishning bosh sxemasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar hududlarini rejalashtirish sxemalarini, aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring yuritish; shaharsozlik sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar tayyorlash (va boshqa qator yo‘nalishlar) belgilandi.

Shu bilan birga ushbu sananing o‘zida “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3646-son Qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» davlat unitar korxonasi tashkil etilishi belgilandi. Unga ko‘ra, belgilangan tartibda shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazishni ta‘minlash, arxitektura-rejalashtirish va shaharsozlik yechimlari darajasini oshirish, loyiha ishi va qurilish ishlab chiqarishini takomillashtirish, loyihalash va qurilish sohasida ilg‘or tajribani o‘rganish va ommalashtirish kabi asosiy vazifalar biriktirildi.

Ushbu ikki me‘yoriy hujjat tizimda yangi bosqichga o‘tishning negizi bo‘ldi. Natijada, 2019 yilga kelib rejadagi 35 ta shaharsozlik hujjatlaridan 18 ta bosh rejalar va 10 ta qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig‘inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalari ishlab chiqildi. Buning natijasida respublikadagi 113 ta shaharlar (95 foiz) va 142 ta shahar posyolkalari (13,1 foiz) bosh rejalariga ega bo‘ladi. Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib keldi va “Shaffof qurilish” axborot tizimi ishga tushdi. Natijada:

- qurilish sohasida axborot-texnologiyalar rivojlantirish Markazi tashkil etildi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga keng foydalanish imkonini beruvchi “O‘zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastri” geoaxborot tizimi joriy qilindi;
- qurilish-montaj ishlarida tizimli nazorat o‘rnatilib, qurilishning barcha bosqichlarida nazorat qilishning aniq mexanizmlari va ijro hujjatlarini yuritishning elektron onlayn tizimi yaratildi;
- shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini elektron hujjatlar almashinuvi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish tizimi joriy etildi;
- vazirlik tizimidagi tashkilotlar zamonaviy kompyuter texnikasi va dasturiy mahsulotlar bilan ta‘minlandi.

Qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish va qurilish ishlari sifatini oshirish maqsadida:

- qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini baholash reytingi joriy etildi;
- tashkilotlarning ixtisoslashuvi, qurilish-montaj ishlari turlari, doimiy ishlaydigan ishchi-xodimlar soni, asosiy ishlab chiqarish vositalari to'g'risida ma'lumotlarning yagona elektron bazasi joriy etildi;
- qurilish-pudrat tashkilotlari ishchilarini qayta tayyorlash va kasbga o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari, kasb-hunarga ega bo'lganligi to'g'risida sertifikatlar berish ko'zda tutilyapti.

Shiddat bilan qad ko'tarayotgan ijtimoiy ob'yektlar, ko'p qavatli turar joylar va umuman olganda, barcha turdagi bunyodkorlik ishlari o'z navbatida sifatli qurilish mahsulotlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, yangi turdagi energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish, sohaga investorlarni keng jalb qilish orqali yirik loyihalarni amalga oshirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinyapti. Buning natijasida sohada jiddiy o'zgarishlar yuz beryapti.

Shaharsozlik va loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning yangilangan qoidalari

Hujjatga asosan, 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini amalga oshirishda:shaharsozlik hujjatlari ob'yektlarning xavf-xatarlar toifalarining tasnifiga muvofiq "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali ko'rib chiqiladi;davlat byudjeti va unga tenglashtirilgan manbalar, davlat va davlat tashkilotlari kafolatlari ostida olingan tashqi investitsiya mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan ishlarning loyiha hujjatlari "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK yoki uning hududiy filiallari tomonidan ko'rib chiqiladi;

boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ob'yektlar loyiha hujjatlari ob'yektlar xavf-xatarlar toifalarining tasnifiga muvofiq akkreditatsiya qilingan ekspert tashkilotlari - yuridik shaxslar, "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK yoki uning hududiy filiallari tomonidan ko'rib chiqiladi;loyiha hujjatlari bo'yicha ijobiy ekspertiza xulosasi ekspert tashkiloti tomonidan axborot tizimining "Ekspertiza xulosalarining yagona reyestri"ga kiritilgan taqdirda haqiqiy deb tan olinadi;ekspert tashkilotlari tomonidan shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o'tkazganlik uchun

xizmatlar haqini tabaqalashtirilgan tartibda hisoblash tizimi joriy etiladi.

Shaharsozlik hujjatlari smetasida qo'llanilgan resurslar narxlari bo'yicha ekspertiza xulosasini tayyorlashda qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqi to'g'risidagi davlat statistika ma'lumotlaridan foydalanish uslubiyoti ishlab chiqiladi hamda amaliyotga tatbiq etiladi.

Ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha shaharsozlik va loyiha hujjatlarining loyihaviy yechimlarini shaharsozlik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizom hujjatlarni shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga, zilzilabardoshlik, muhandislik izlanishlar, energiya samaradorligi ko'rsatkichlari, yong'inga qarshi hamda ekologik normalar va qoidalarga, sanitariya qoidalari va normalariga, gigiyena normativlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish tartibini o'z ichiga oladi.

Quyidagi ob'ektlarining loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish majburiy emas: mavsumiy ishlar uchun vaqtincha va maishiy binolar; uch yuz kub metrdan ortiq bo'lmagan alohida qurilayotgan kichik hajmdagi ob'ektlar; ikki qavatdan yuqori bo'lmagan (sokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lmagan yakka tartibdagi uy-joylar; joriy ta'mirlanadigan binolar, inshootlar. Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi maxsus vakolatli davlat organining ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalari, bunga vakolatli bo'lgan vazirliklar va idoralarning ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalari, ekspert komissiyalari va ekspert guruhlar, shuningdek akkreditatsiya qilingan yuridik shaxslar (bundan buyon matnda ekspert tashkilotlari deb yuritiladi) tomonidan o'tkaziladi.

(23-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 noyabrdagi O'RQ-880-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son) Alohida tartibga solinadigan shaharsozlik faoliyati ob'ektlarining shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi maxsus vakolatli davlat organining ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalari tomonidan o'tkaziladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaharsozlik" kodeksi. 2021 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.07.2020 y. № PQ-4794 qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
4. QMQ 2.01.03-19. «Zilzilaviy hududlarda qurilish». –Toshkent.:O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, 2019.
5. ShNQ 2.01.01-22. Loyixalashtirish uchun iqlimiy va fizikaviy geologik ma'lumotlar. – Toshkent.: O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, 2022.
6. ShNQ 3.01.04-19 "Qurilishi tugallangan ob'ektlarni ekspluatasiyaga qabul qilish. Asosiy holatlar". O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, 2019.
7. Qurilish ob'ektlarida nazorat o‘lchovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi 321-son qaroriga 4-ILOVA.
8. ShNQ 2.02.01-19 "Bino va inshootlar zaminlari". -Toshkent.:O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, 2019.
9. Xotamov A.T. Shaharsozlikda uy-joy fondini eskirishini baholash metodologiyasi va monitoring tizimining ilmiy asoslari. Dis.T.f.d., Toshkent, TAQI, -390 b.
- 10.Xotamov A.T. Bino va inshootlarning texnik xavfsizligi. Darslik,Toshkent.: O‘zROO‘MTV-2022 y. – 317 b.
- 11.Фурсов В.В. Износ зданий, диагностика и реконструкция. Киев.:
12. А.П. Кулешов, Д.Н. Горобцов, А.А. Горлов Основания и фундаменты Учебно-методическое пособие Москва 2023 г
13. Fundamentals of Infrastructure Design and Construction Foundation of Structures Md. Rasel Sheikh Lecturer, Dept. of Disaster Resilience and Engineering, PSTU
14. А.П. Кулешов, Д.Н. Горобцов, А.А. Горлов Основания и фундаменты Учебно-методическое пособие Москва 2023 г.
- <https://files.stroyinf.ru/Index2/1/4293747/4293747631.htm>
13. <https://files.stroyinf.ru/Index2/1/4293801/4293801872.htm>
14. <https://files.stroyinf.ru/Index2/1/4294854/4294854682.htm>
15. <https://files.stroyinf.ru/Index2/1/4294854/4294854684.htm>

16. <https://carlib.qmii.uz/site/view?id=8780>
17. <https://search.rsl.ru/ru/record/01009457205>
18. <https://fayllar.org/zamin-va-pojdevorlar.html>

3-MAVZU: “TARIXIY BINOLARNI REKONSTRUKSIYA QILISH MUAMMOLARI”.

Mavzu: “Tarixiy binolarni rekonstruksiya qilish muammolari”

Reja:

- 1. Tarixiy obidalarni ta'mirlash nazariyasining shakllanishi***
- 2. Me'moriy obidalarning buzilish sabablari***

Tayanch so'z va iboralar: Tarixiy shaharlar, qadimiy binolarni tiklash, tarixiy obidalar rekonstruksiyasi, tahlil qilish, konservatsiyalash.

1. Tarixiy obidalarni ta'mirlash nazariyasining shakllanishi

Bugungi kunda jahonda madaniy meros va arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan unumli foydalanish sohasida e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mintaqaviy tarixiy shaharlarda me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash ishlarida ularga xos bo'lgan an'anaviy usul va tamoyillarning ba'zida hisobga olinmasligi, ilmiy asoslanmagan yechimlarning qo'llanilishi va natijada ularning tarixiy shaharlar muhitiga mos kelmasligi kabi masalalar bu sohada hali ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan jahon arxitekturasida tarixiy shakllangan va milliy qadriyatlar asosida rivojlanib, bizgacha yetib kelgan ilg'or me'moriy an'analarni tadqiq qilish va hisobga olish ehtiyoji tug'ilmoqda.

BMT, YUNESKO, ICOMOS kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan madaniy merosni saqlash va ularni kelgusi avlodga yetkazishga doir Butun jahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilish to'g'risidagi konventsia (1972); Tarixiy shaharlarni himoya qilish haqidagi xalqaro xartiya (Vashington xartiyasi, 1987); Obidalarni, inshootlar guruhini va diqqatga sazovor joylarni ro'yxatga olishning asosiy qonun-qoidalari (1996); Tahlil qilish, konservatsiya va me'moriy meroslarning tuzilishini qayta tiklashning asosiy qonun-qoidalari (2003); Madaniy meros hisoblangan - tuzilma, ob'ekt vayronalarining atrofini saqlab qolish to'g'risidagi Sian deklaratsiyasi (2005) kabi xalqaro hujjatlarning muntazam ravishda qabul qilinishi bu sohaning naqadar

muhimligini ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, har qanday tarixiy obidadan o'z vaqtida vazifasiga ko'ra foydalanilgan, keyinchalik sayqallanib kelingan, buzilgan bo'lsa tuzatilgan, ta'mirlangan, ba'zan esa qayta tiklangan. Qadimda tarixiylik hissiyoti rivoj topmagan edi. Tarixiy obidalarni qayta qurishda ko'pchilik ustalar eskisini buzib, yangisini qurishgan. Ba'zan esa ularning qurilish materiallari eski qurilish ashyosi sifatida ham foydalanilgan.



Ma'lumki, saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklarning barchasi vaqt o'tishi bilan tabiiy iqlim muhiti va tashqi ta'sirlar tufayli eskirib, ularda nurash va deformatsiyalanish jarayoni kechadi. Ularni saqlash vazifasi ta'mirlash ishlarining ilmiy asoslangan usullaridan foydalanib, mutahassislar tomonidan olib borilishini talab etadi. Chunki yodgorlikning buzilish sabablari aniqlanmay ular ilmiy-nazariy asoslanmagan holatda obidaning ta'miri sifatsiz bo'lishi aniq. Imorat deformatsiyasini o'z vaqtida kuzatib borish kelajakda obida konstruktsiyalarini mustahkamlashning to'g'ri yo'llanmasini ko'rsatadi. Har bir konstruktsiyaning dastlabki, hozirgi va keyingi holatda ishlash tizimini topish zarur. Bu ayniqsa tortish kuchi mavjud konstruktsiyalarda, ya'ni ravoqlarda qiyin kechadi.

Obidaning shikastlanish sabablari asosan ikki turga bo'linadi:

1. Bino konstruktsiyasining azaldan noboplighi (proportsiyasi) yoki asos-yodgorlikning tuzilishidan kelib chiqadigan ichki sabablar guruxi;

2. Tashqi, azaldan nazarda tutilmagan sabablar:

a) Zamin bo'shligi, qor, yomg'ir suvining oqib ketishini yaxshi tashkil

kilinmaganligi;

b) Obida yoniga zovur qazish, katta bino qurish, konstruktsiya yukini ko'paytirish. Vertikal, ya'ni tik o'zgarishlar (konstruksiyaning cho'kishi kabilar);

2. Gorizontal sahnning o'zgarishlari (poydevorning siljishi, toq-ravoqlarning surilishi kabilar);

3. Egilishlar (tayanch, yupqa devorlar, to'sinlarning egilishi);

4. Qo'shma o'zgarishlar (yuqoridagilarning yig'indisidan iborat). Toq va ravoqlarning tayanchi turg'un bo'lmog'i, ravoqli shakllarning me'yorida siqilib turmog'i zarur. Turli sabablarga ko'ra tayanchlar gorizontal yo'nalishda siljishi mumkin. Toqlarning tayanchi ham vertikal holatda o'zgarishi, ya'ni cho'kishi mumkin. Toqlardagi darzlar yoki choklarning ochilishi, odatda, tortilish yoki siljish kuchlarining ko'paygan zonalarida joylashadi. Tortishish zonalarida darzlar kuchlarga nisbatan perpendikulyar yo'nalishda joylashadi. Siljish zonalarida esa darzlar bo'ylama yo'nalishda bo'ladi.

2. Me'moriy obidalarining buzilish sabablari

Quyida yodgorlikning buzilishini keltirib chiqaradigan ba'zi qo'shimcha sabablarni ko'rsatamiz:

1. Imoratdan noto'g'ri foydalanish va uning o'z vaqtida ta'mir qilinmagani. Suv-bu birinchi bo'lib yodgorlikda ishlatilgan qurilish materiallarini yemiradi va buzilishiga sabab bo'ladi. Devordagi yoriqlardan o'sib chiqqan va tomirlarini shu yoriqlarda kattalashtiradigan o'simlik, hatto daraxtlar tomiri terilgan g'isht va qorishmani yemiradi. Devor yoriqlaridagi suv qishda muzlab, devorda ishlangan g'ishtlarda va koshinlar taxtasida shishishni keltirib chiqaradi. Koshin taxtalarni, marmar va devor yuziga ishlangan qoplama pardozni devordan ajratib yuboradi, koshinlar yuzida ishlangan sirni qo'porib tashlaydi. Yuk ko'taradigan devor namlanganda qorishma va g'ishtlar yemirilib, devor oldingi yuk ko'tarish qobiliyatini yo'qotadi. Yozda ichkaridan qizigan va shamollatilgan devorlar ancha qurib qoladi. Kun davomida haroratning o'zgarishi koshindagi sir bilan keramik asosning bog'lanishini buzilishga olib keladi. Chunki ularning chiziqli kengayish koeffitsenti turli xilda. Natijada sir yorilib ba'zan tukiladi. Terma mozaika unsurlari qizishi natijasida kengayib, ularni yopishtirib turgan qorishmani o'zidan itaradi. Bunda qorishma uvalanib, mozaika unsurlari ajralib tushadi. Bunday buzilishlar ko'pincha

janub va janubi-sharqiy tomonga qaragan devorlarda ko‘p uchraydi

Ko‘pgina qadimgi binolardan foydalanish davrida bino ichki xonalari zamonaviy usulda ta'mirlanishi va foydalanishi mumkin. Xona devorlari kafel, gulqog‘oz, yog‘och va boshqa devor qoplama materiallari bilan qoplanadi. Buning uchun xona devorlari ichida ikkinchi qoplama devor qurilishi mumkin va yuqorida aytib o‘tilgan materiallar bilan qoplash uchun yaxshi asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ikkinchi qurilgan devor tovush va issiqlik izolyasiyasi uchun yaxshi sharoitni yaratib beradi. Bu devorlardan ko‘pgina hollarda devorlarni nam bo‘lgan yerto‘la va boshqa ko‘rinishi yaroqsiz bo‘lgan devorlarni qoplash uchun foydalanilgan va ularni pardozlash uchun alohida tayyorgarlikni talab etmaydi.

Me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari zaruriy jarayon hisoblanib, ular vaqt o‘tishi bilan obidada yana takrorlanishi mumkin. Bunga obidaning, odatda, tabiiy va texnogen omillar ta'siri ostida shikastlanish va buzilish holatlari sabab bo‘ladi. O‘zbekiston shunday o‘lkaki, uning hududidagi mavjud minglab va yuzlab me'moriy va arxeologik obidalar ta'mirlash va tiklash ilmi va amaliyotini yanada rivojlantirishni taqazo etadi.

2. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash ishlarida an'anaviy ustoz – shogird usuli, amaliyoti va nazariyasi uzoq o‘tmish sinovidan o‘tib, bizgacha saqlanib kelgan. Endigi vazifa ana shu nazariya va amaliyotni, an'anaviy usullar va qoidalarni saqlab qolish, rivojlantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

3. Tadqiqotda obidalarinig ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlar oqibatida buzilish sabablari o‘rganilgan bo‘lib, ta'mirga muxtoj har qanday obidaning eng avvalo buzilish sabablari aniqlanishi, ular bartaraf etilgandan so‘nggina ta'mirlash ishlariga o‘tish mumkinligi qayd etilgan.

4. O‘zbekistonda me'moriy ta'mirshunoslikning an'anaviy usullari va amaliyotini o‘rganish bo‘yicha o‘tgan yillar davomida respublikamizning Samarqand shahridagi obidalarini ta'mirlash amaliyotida kadrlar (shogirdlar) tayyorlash milliy maktabi yaratilgan bo‘lib, uni 1993-96 yillarda taniqli ta'mirchi me'mor, xalq ustasi Abdug‘affor Haqqulov boshqargan. Biroq, uning vafoti bilan 1996 yildan keyin ushbu maktab o‘z faoliyatini tugatgan.

5. Me'moriy obidalarini saqlab qolish va ularning umrini uzaytirib, kelajak avlodlarga yetkazishning eng ma'qul, keng sinalgan tajribalaridan biri – bu

ulardan zamonaviy ehtiyojlar uchun foydalanishdir. Eng to‘g‘ri yo‘l ta'mirlangan obidaga uning o‘z funksiyasini berish, agar buning iloji bo‘lmasa obidani uning konstruksiyalari va arxitekturasiga salbiy ta'sir ko‘rsatmaydigan boshqa ijtimoiy funksiyalarga moslashtirish tavsiya etiladi.

6. Samarqand shahrida 1990-2019 yillar davomida madaniy meros ob'ektlarini ta'mirlash, konservasiyalash jarayonida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi, ta'mirtalab ob'ektlardagi ishlar tizimli asosda, muntazam olib borilishi yo‘lga qo‘yildi. Mustaqillik yillarida o‘tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, Samarqandda joylashgan me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash amaliyoti respublika hukumatining doimiy diqqat markazida bo‘ldi, bu ishlar nafaqat halqaro va respublika amaliyotiga molik turli yubileylar doirasida, balki dasturli tarzda amalga oshirilib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan tarixiy hududdagi san'at, shaharsozlik, me'morchilik yodgorliklari namunalarining butunlay yo‘q bo‘lib ketishining oldi olindi.

7. Madaniy meros ob'ektlarini ta'mirlash va saqlash sohasida erishilgan yutuqlar bilan birga mazkur sohaga xos muammolar va kamchiliklar ham mavjud bo‘lib, ularning asosan quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

a) Respublika madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi qoshidagi viloyatlar inspeksiylarining faoliyatida ko‘p yillardan beri moliyaviy taqchiliklar kuzatib kelinmoqda. Bu ularning joriy ishlariga, kadastr ishlarini, yaroqsiz holga yetib kelgan madaniy meros ob'ektlarini ilmiy tadqiq qilish, ta'mirlash - tiklash ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yishga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda;

b) Respublikamizning TAQI va SamDAQI oliy o‘quv yurtlarida “Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash” mutahassisligidan magistrlar tayyorlanishiga qaramasdan, sohada ana'naviy ta'mirlash usullari va ishlarini o‘zlashtirgan oliy malakali kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Tayyorlanayotgan magistrnlarning aksariyati hozirgi vaqtda arxitektura nazariyasi va tarixi muammolari hamda muayyan me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash, grafik tiklash, qayta tiklash, zamonaviy ijtimoiy funksiyalarga moslashtirish loyihalarini ishlab chiqish va ularni ilmiy asoslash masalalari bilan mashg‘ul bo‘lmoqdalar. Natijada sohaning amaliy ishlari - me'moriy yodgorliklarning konstruktiv va muhandislik ishlariga, ta'mirlashga doir kasbiy mahorat, ko‘nikma va amaliy bilimlar yetarli darajada

egallanmay qolmoqda. Xalq orasidan chiqqan yetakchi usta me'morlarning ta'mirchi shogirdlarni tayyorlash an'anaviy tizimi ham deyarli ishdan chiqqan;

v) Sobiq Ittifoq davrining so'ngi yillarida gumbaz, ravoq va bag'al bog'lashning ko'p siru-asrirlari, muqarnassozlik, koshinpazlik, koshinkorlik ishlari unutilib yuborilgan edi. An'anaviy qurilish materiallari (ganch, kir, obi g'isht, koshin va boshqalar) ishlab chiqarilmaganligi tufayli, ularning o'rniga sement, beton, temir-beton qo'llanila boshlandi. Koshin va parchinga beriladigan sirli pardoz an'anaviy ashyolar va usulda emas, yangi minerallar va kimyoviy moddalardan tayyorlana boshlandi. Bular esa, o'z navbatida, ta'mirlash ishlari sifatining pasayishiga olib keldi;

g) Obidalarni ta'mirlash amaliyotiga yetkazib berilayotgan pardozlash materiallari (terrakota g'ishtlar, sirkor koshinlar, mozaika va mayolikalar)ning sifati ba'zan past darajada ekanligi kuzatilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF- 5789- sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2017-yil 5-sentyabrdagi Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv (loyiha) ishini tayyorlash va himoyaga taqdim etish tartibi to'g'risidagi 12-2017-son buyrug'i Toshkent sh., 2017-yil 5-sentyabr
3. Uralov A. Raximov L. Temuriylar arxitekturasi tarixi. - Samarqand, Sam.DU 2020.
6. G.Yeldasheva, G. Karimova Ta'lim tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua Toshkent sh. 2018-y.

7. X.T. Omonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent sh. 2012 y
8. L.A. Muxtorova Ta'lim jarayonida interfaol interfaol metodlarning imkoniyatlari Uslubiy qo'llanma Termiz-2013-y.
9. Q.T. Olimov Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'quv uslubiy majmua Buxoro 2018-y.
10. N.A. Muslimov "Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish" moduli bo'yicha o'quv –uslubiy majmua Toshkent sh. 2019 y
11. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. –Toshkent, 2002.
12. Inoyatov S., Hayitov O. Karmana tarix ko'zgusida (Eng qadimgi davlat- lardan XX asr boshlarigacha). -Toshkent: Sharq, 2006.
13. Haqqulov A. Me'moriy ta'mir va koshinburrush san'atining fidoyisi. –Samarqand, 2016. 104-bet.
14. Po'latov X., Uralov A. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash. – Toshkent, 2007.
15. Rtveladze E.V. Velikiy shelkoviy puty: Ensiklopedicheskiy spravochnik. -Tashkent: O'zME, 1999.
17. Samig'ov N.A., To'laganov A.A., Raxmonov A.R., Komilov X.X. Bino va inshootlarni ta'mirlashda chet ellar tajribalari. – Toshkent, 2005.
19. To'laganov A.A. Voxidov M.M., Tojiev I.I. Ismoil Somoniy maqbarasi va "Minorai Kalon"ni tiklashda ishlatilgan keramik g'ishtlar va qurilish qorishmalari // O'zbekiston arxitektura nazariyasi va tarixi, yodgorliklarni ta'minlash va qayta qurish muammolari mavzusidagi ilmiy-texnik anjumani to'plami. –T.: TAQI, 2019. -35-39 betlar.
20. Umarov E. Estetika.-Toshkent, 2006.

Internet resurslari:

1. <http://www.arhitekto.ru/txt/2razv16.shtm1>
2. http://www.glazychev.ru/books/mir_architektury/glava8glava08-01.htm
3. www.newhorizons.org. Ta'limning yangi ufqlari
4. <http://www.natlib.uz/rus/calendar2006.pdf>- Natsionalnaya biblioteka Uzbekistana
5. <http://www.archunion.com.ua/clovarik.shtm1>- Arxitekturnaya ensiklopediya.

4-5-MAVZU. HUDUDLARINING BOSH REJALARI

Reja

1. Shaharlar tipologiyasi

2. Shahar loyihasining asosiy prinsiplari va xususiyatlari.

3. Mavjud shaharning rivojlanishi va yangisini qurish uchun hudud.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, arxitektura, bosh reja, rejalashtirish bosqichlari, interaktiv va joylashgan shaharlar, ekologik shaharlar, transport tarmoqlari, shahar va qishloqlar turizm markazlari, bosh reja sxemalari, batadfsil rejalashtirish loyihalari, aglomeratsiya, konsepsiya, chet el tajribasi.

1. Shaharlar tipologiyasi

Tipologiya - bu umumlashtirishning yuqori darajasi bo'lib, shaharlarni har tomonlama to'la tavsiflash va uning asosida ularning rivojlanish strategiyasini belgilash imkonini beradi.

Shaharlarning tipologiyasini belgilovchi eng muhim alomatlarini ko'rib chiqamiz:

- xalq xo'jaligi sohasi;
- aholi soni;
- iqtisodiy-geografik o'rni;
- paydo bo'lish va rivojlanish davrlari.

Shaharlarni xalq xo'jaligi vazifalariga qarab klassifikasiyalash va tipologiyasi ularning eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi:

Ko'p funktsiyali shaharlar - ma'muriy-xo'jalik, madaniy va iqtisodiy funktsiyalarni o'zida muvofiqlashtiruvchi, hamda rivojlangan sanoat va transportga ega. Bular - poytaxtlar, viloyat markazlari va boshqa yirik shaharlar (ularda yuqoridagi sanab o'tilgan funktsiyalarning har biri) shaharsozlik ahamiyatiga ega. Bu turdagi shaharlar muhim tuman tashkil etuvchi markazlardan bo'lib, keng va xilma-xil aloqalarga, murakkab hudud tuzilishiga egadirlar.

Tumanlararo ahamiyatli sanoat va transport funktsiyalari ustun bo'lgan shaharlar. Bu turdagi shaharlarni sanoat, transport va sanoat-transport shaharlarga ajratish mumkin.

Sanoat shaharlarining turlari xilma-xil. O'zida turli sanoat tarmoqlarini birlashtirgan shaharlar keng tarqalgan bo'lib, ular asosan rivojlangan sanoat tumanlarida paydo bo'ladilar, tez rivojlanadilar va murakkab hududiy tarkibga

egadirlar.

Ko'pgina sanoat shaharlari tor sanoat ixtisosligiga ega, masalan: metallurgiya sanoatining, mashinasozlik, kimyo sanoatlarining markaz- shaharlari.

Boshqa funksiyalar ustun bo'lgan shaharlar - asosan mahalliy markazlar vazifasini bajaruvchi kichik shahar joylari.

Kurort, ilmiy markaz, temir yo'l tugunlari vazifasini bajaruvchi shaharlar.

Shaharning xalq xo'jalik profili uning tarxiiy tarkibiga: funksional qismlarning joylashuvi, shuningdek, sanoat va turar-joy tumanlariga, ularning orasidagi oraliqlarga, transport aloqalari xarakteriga va boshqalarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shaharlar aholisining soni ham uning tipologik belgilaridan hisoblanadi. Shaharlarni aholisining soniga qarab quyidagi guruhlariga bo'lish qabul qilingan:

- eng yirik shaharlar - 500-1000 minggacha va undan yuqori;
- yirik shaharlar - 250-500 minggacha;
- katta shaharlar -100-250 minggacha;
- o'rta shaharlar - 50-100 minggacha;
- kichik shaharlar - 50 minggacha.

Shaharlar qancha katta va ularning aholisi qancha ko'p bo'lsa, ular egallagan hudud shuncha katta bo'ladi, tarxiiy tarkibi shuncha murakkab bo'ladi, tarxning xarakteri o'zgaradi va boshqalar.

Kichik shaharlar - asosan piyoda harakati orqali bog'langan shaharlar shaharlar, o'rta va katta shaharlarda shahar ichi aloqalari uchun relssiz transport lozim.

Eng yirik aholisi 1 mln. dan oshiq shaharlarda qoida bo'yicha tezyurar tashqi transport (metro) qo'llaniladi, u shahar tarxiiy tarkibiga anchagina ta'sir ko'rsatadi.

Eng yirik shaharlarda murakkab funksional va tarxiiy tarkib shunday shaharsozlik holatini keltirib chiqaradiki, unda erkin hududlarda yangi qurilishidan tortib, to shaharning eski qismini rekonstruksiya qilish va qayta qurishgacha, er osti makonlarini o'zlashtirishdan, jamoat markazini shakllanishigacha bo'lgan masalalarni hal etish lozim bo'ladi. Iqtisodiy-geografik o'rni: shaharlar bir qancha omillar ta'siri ostida vujudga kelgan. Masalan, tabiiy – iqlimiy omillar natijasida yuzaga kelishi mumkin, ya'ni suv havzalariga yaqin, vodiylarda, tog' yonbag'irlarida va shunga o'xshash yashash uchun qulay sharoitlar mavjud joylarda. Qadimda karvon yo'llari kesishgan joylarda ham shaharlar shakllangan.


Paydo bo'lish va rivojlanish davrlari: yangi yoki qadimiy shahar. Masalan, shaharsozlik nuqtai nazaridan yangi shaharlarning (Navoi, Chirchiq, Bekobod va b.) tuzilishi qadimdan shakllanib, rivojlanib kelgan shaharlarga (Samarqand, Buxoro, Xiva va b.) nisbatan boshqacha bo'ladi. Chunki qadimiy shaharlarni rivojlantirishda zamonaviy shaharsozlik talablari bilan bir qatorda tarixiy muhit va yodgorliklarni saqlab qolish ham asosiy ahamiyat kasb etadi.

2. Shahar loyihasining asosiy prinsiplari va xususiyatlari.

Shaharning rejaviy strukturasi shakllantirishda muhim sharoiti avvalo asosiy funksional hududlari – sanoat va yashash hududlariga bog'liq holda uning kelajakda rivojlanishini (perspektiva) hisobga olishdir. Agar shahar aholi joylari guruhli tizimining tashkil etuvchisi sifatida qaralsa, bu shaharning kelajakda rivojlanishini hisobga olish tumanni rejalashtirishdan boshlanadi. Shaharning asosiy hududlarini rivojlantirish qo'shni shaharlar rivojlanishiga xalaqit bermaydigan va ular bilan hududiy qo'shib ketmaydigan yo'nalishda amalga oshiriladi.


Shaharning kengayishi uchun maxsus hududlar ajratiladi. Shaharni tashkil etuvchi asosning kengayishi taxminlari, bir kishiga turar-joy maydoni me'yoring o'sishi, tabiiy-iqlimiy omillar ta'siri, shaharning iqtisodiy-geografik joylashishi, uning ma'muriy-madaniy va ilmiy ahamiyatidan kelib chiqib ushbu hududlarning o'lchamlari va shaharning umumiy rejaviy tuzilishidagi o'rni aniqlanadi. Shaharning asosiy hududlari uchun kelajakda talablarning me'yorlari mavjud. Ular ming kishi hisobiga aniqlanadi. Shaharning asosiy qurilish massivi ichida barcha qurilish turlari uchun hudud 15-20 ga/ming kishi, yashash hududi uchun 10-12 ga/ming kishi hisobida ajratiladi.

Amaliyotda shaharning asosiy hududlarining bir nechta o'ziga xos hududiy-fazoviy rivojlanish sxemasi shakllandi. Bular: sektorli, parallel, ikkita sanoat-yashash majmualari va aholi joylarining guruhli tizimida.



Shaharning asosiy qismlari hududiy-makoniy rivojlanish chizmasi: a – sektorli; b – parallel; v – ikkita ishlab chiqarish aholi yashaydigan komplekslar bilan; g – aholi joylarining guruhli tizimida.

Eski shaharlarda kelajakda rivojlanish sxemasi ko‘p jihatdan shaharning tarixiy shakllangan strukturasi bilan belgilanadi. Yangi shaharlarda hududiy-fazoviy rivojlanish sxemasi yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan shaharning bosh tarxini ishlab chiqishda ko‘rib chiqiladi.




Shaharning bosh tarxi sxemasi (yopiq kompozisiya):

1 – turar-joy tumanlari; 2 – shahar markazi; 3 – og‘ir sanoat; 4 – engil sanoat; 5 – sport markazi; 6 – sog‘liqni saqlash markazi; 7 – savdo markazi; 8 – stadion; 9 – shahar chegarasi.

3. Shaharni rejalashtirish loyihasini tuzish qurilish uchun hudud tanlashdan boshlanadi. Obodonlashtirilgan shahar muhitini yaratish avvalambor qurilayotgan shahar yoki uning bir qismi hududini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq.

Tanlangan hududning tabiiy shart-sharoitlari: reliefi, tuprog‘i gidrogeologik, iqlimiy, landshaft va boshqalar shaharsozlik uchun qulay bo‘lishi kerak, hudud kerakli o‘lchamda va konfigurasiyada, kelajakda makoniy rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Qulay tabiiy sharoitlar quyidagi omillarni ko‘zda tutadi: unchalik baland-past bo‘lmagan relief, etarli zichlikdagi tuproqlar, chuqur joylashgan er osti suvlari, suv bosish va er osti suvlarining ko‘tarilishi xavfi yo‘qligi, qulay mikroiqlim, shamollardan etarli darajada himoyalanganlik, quyuq ko‘kalamzorlar yoki juda bo‘lmaganda o‘simliklar ekish uchun yaraydigan tuproq.



Hudud keltirilgan kommunikasion sharoitlarga ega bo'lishi, unda suv ta'minoti, kanalizasiya, energetika muammolarini tejamli echish imkoniyatlari bo'lishi kerak. Tabiiyki, tanlangan hudud har doim bu talablarga javob bermaydi, yuqorida keltirilgan omillarning bir qismi unda bo'lmasligi mumkin. Bu holda uni kam xarajat ketkazib qurilish uchun yaroqli qilish muhimdir. Bunda relefni rejalashtirish, daryo qirg'oqlarini tartibga solish, meliorasiya suv toshqinidan himoya qilish, suv ta'minoti, oqava suvlarini tozalash va boshqalar oqilona chegaralar doirasida bo'lishi lozim. Aholi joyiga yoki uning qismlariga joy tanlash masalasi kapital mablag'lar kattaligi va uni ushlab turishga ketadigan xarajatlar mumkin bo'lgan ta'qiqlar, chegaralanishlar va loyihaviy talablar bilan bog'liq turli xil muqobil variantlarni solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Yangi shahar qurilishi va mavjud shaharni kengaytirish uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

- odamlar hayoti uchun joyning eng qulay tabiiy sharoitlarini;
- atrof-muhit muhofazasi talablarini;
- sanoat, turar-joy, transport va qurilishning boshqa turlarini;
- maydonning sifatiga bo'lgan talablarini;
- sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va aholi hayotini eng ko'p qulayliklar bilan ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda shahar asosiy qismlarining o'zaro joylashishi sharoitlarini;
- hududlarni muhandisona tayyorlash va obodonlashtirish sharoitlarini;
- qurilish iqtisodiyoti talablarini hisobga olish kerak.

Yangi shahar uchun hudud tumanni rejalashtirish materiallari asosida tanlanadi. Bunda qurilish uchun tanlanayotgan hudud quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- shaharning kelajakda kengayishi imkoniyatlarini hisobga olib qurilishning barcha turlarini joylashtirishga etadigan o'lchamga;
- sanoat, turar-joy va jamoat binolarini qurishga, hamda qimmatli injenerlik ishlarisiz ko'kalamzorlashga imkon beradigan tabiiy sharoitlarga;
- shaharning tegishli qismlarini temir yo'l va avtomobil tarmog'iga qulay qo'shilishini hisobga olgan holda shaharning turli funksional qismlarini maqsadga muvofiq holda joylashtirish uchun qulay sharoitlarga etarlicha yaqin energiya va suv ta'minoti manbalariga ega bo'lishi lozim.

Shahar tarxi loyihasi kelajak qurilish hududini shaharsozlik tadqiq qilishga asoslangandir. Bunda bu hududda quyidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tahlil o'tkaziladi:

- tabiiy-iqlimiy - harorat, insolyasiya, namlik va shamol rejimini, landshaft va relef, suv havzalari va o'rmon massivlari turli shakllarida baholash; zamin va o'simliklarning tuproq sharoitlarini baholash;
- tabiiy landshaftni baholash - hududni detal topografik o'rganish, relef shakllari gidrogeologik va gidrologik rejim, geologik tuzilish va tuproqlarning ko'tarish qobiliyati, suv toshadigan va er osti suvlari ko'tariladigan maydonlar, erroziya va jarlik hosil bo'lishi va boshqa aniqlashtirilgai xarakteristikalar bilan injener-qurilishni baholash;

- hududni ma'moriy-landshaft o'rganish - bu shaharni va uning me'moriy ansamblarining me'moriy-tarxiy kompozitsiyasini yaratish uchun lozim. Bunda joyning perspektivalari va bo'lajak imoratlar panoramalari, asosiy ko'rinish nuqtalari aniqlanadi, landshaftning turli xil elementlari, ko'kalamzor, suv va ochiq hududlarning muvofiqligi tahlil qilinadi.

Tabiiy-iqlimiy omillar. Ma'lum bir hududda ko'p yillar davomida kuzatilgan va ushbu er qoplamasiga (tuproqning ustki qatlami, suv, o'simliklari va boshqalar) bog'liq bo'lgan ob-havoning yil mobaynidagi qonuniy jarayonlari umumiy qilib iqlim deyiladi.

Iqlim geografik kenglik, dengiz sathidan balandligi, atmosferaning fizik xarakteristikalarini majmui, uning harorati (quyosh aktivligi), namligi, shamol va yog'inlar orqali aniqlanadi. Iqlim ta'siri ostida tuproq qatlami va o'simlik dunyosi shakllanadi. Iqlimning hayvonot dunyosi, inson hayoti va uning kundalik turmush tarziga ta'siri katta.

Quruqlik, suv va quyoshning doimiy o'zgaruvchan o'zaro ta'siri ma'lum bir hududning tabiiy-iqlimiy xususiyatlarini tashkil etadi, ob-havoning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan atmosfera holatini aniqlaydi. O'zgaruvchan jarayonlar chastotasi quyosh energiyasi intensivligi va bu jarayonlarda qatnashuvchi namlik darajasiga bog'liq. Bu ikkala omil namlik va quyosh iqlimning muhim tashkil etuvchisidir.

Iqlim shakllanishiga shamol va havo massalari oqimiga mexanik to'siq sifatida xizmat qiluvchi relefning baland pastligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tog'lar aksariyat hollarda iqlimiy hududlar chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Iqlim rejalashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Joyning harorat va havo namligi, yog'inlar miqdori, shamol tezligi va qaytarilishi hamda insolyasiya sharoitlarining birligi turli xil tabiiy omillarga bog'liq doimiydir. Masalan, yog'inlarning o'rtacha yillik miqdori Kavkazorti quruq tumanlari uchun 150-200 mm ni. Peterburgda 750 mm ni, Sochida - 2080 mm ni tashkil etadi. Turli xil joylar uchun joyning namligi 40-75 % atrofida tebranadi.

Radiasiya – nur taratish (lotincha radiare – nurlar taratish). Quyoshning bir daqiqa davomida urning 1sm^2 yuziga perpendikulyar nur tushganda keladigan issiqligi bir minut davomida 1sm^2 yuzaga 2kal to'g'ri keladigan quyosh doimiysi deyiladi. Quyoshning 1m^2 yuzasi taxminan 100 ming l.s. energiyani yorug'lik tezligida taratadi.

Bu energiya ultrabinafsha radiyasiya (qisqa to'liqlar) va infraqizil radiyasiya (uzun to'liqlar) shaklida uzatiladi. Bu radiyasiyaning katta qismini biz issiqlik shaklida, kam qismini yorug'lik shaklida qabul qilamiz

Erning quyosh atrofida o'zgaruvchan aylanish o'qi bilan aylanishi yil davomida erning har xil hududlarida yorug'likning har xil tarqalishiga olib keladi.

Erning radiyasiya orqali qabul qiladigan quyosh energiyasi miqdori quyoshning kun davomida balandligi, nurlarining tushish burchagi, kenglik, nurlanish davomiyligi, dengiz sathining balandligi va atmosfera sharoitidan kelib chiqib aniqlanadi.

Quyosh energiyasi atmosferadan o'tish jarayonida tarqaladi va yutiladi, bu esa erning radiyasiyasini ancha kuchsizlantiradi.

Shahar muhitining issiqlik rejimi to'g'ridan to'g'ri nurlanish va tarqalgan nurlarning aks ettirgan radiyasiyadan shuningdek havo haroratidan tashkil topadi. Issiq iqlimli hududlarda shaharsozlik amaliyotida to'g'ridan to'g'ri radiyasiyaga shahar muhitiga ko'proq doimiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida katta ahamiyat beriladi. Rejalashtirish vositalari yordamida issiqlik darajasini bir muncha yumshatish mumkin (suv bilan, soya berish, hududni maxsus ko'kalamzorlashtirish).

Boshqa tomondan er yuzasi havoga issiqlikni qaytarish xususiyatiga ega. Dengiz va quruqlik haroratlari bir xil emas, bundan tashqari quruqlik yuzasining qizishi ham har xil: ba'zi joylarda-daralar, yaylovlar, ekinzorlar, boshqa joylar-o'rmonlar va botqoqliklar, uchinchi-sahrolar. O'simlik qoplami erni issiqlik ajratib chiqarishdan asraydi. Bundan tashqari o'simliklar suvni parlantiradi va bunga ham issiqlik energiyasi sarflanadi. Natijada o'simlik bilan qoplangan erlar kunduz kamroq qiziydi. Kunduzgi vaqtda, ayniqsa yozda er yuzasi qattiq qiziydi, kechasi esa etarli darajada soviydi.


Ma'lumki, suvning issiqlik yutishi quruqlikdan 2 barobar ko'p, bu esa bir xil sharoitda ma'lum bir vaqtda quruqlik yuzasi suvga nisbatan 2 baravar ko'proq qizishini bildiradi. Undan tashqari, suv qizish jarayonida parchalanadi va bunga ham issiqlik energiyasining anchagina qismi sarf bo'ladi. Biroq, dengiz yuqori darajada issiqlik yutishi natijasida quruqlikka nisbatan ko'p issiqlik yig'adi va dengiz sathi quruqlik yuzasidan issiqroq bo'ladi. Er yuzidagi dengiz va okeanlar yuzasidan o'rtacha harorati quruqlik yuzasining o'rtacha haroratidan 3° baland bo'ladi.

Yillik havo haroratidan erning har xil qismlarida har xil va avvalambor u albatta

hududning geografik kengligiga bog'liq. Kenglikka bog'liq holda to'rtta asosiy yillik harorat turi ajratiladi: Ekvatorial, Tropik, mo'tadil poyas tipi, qutbiy.

Hududning kengligiga bog'liq holda va dengiz ta'sirida qizishning har xil sharoitlari er yuzida harorat taqsimlanishining izotermalar bilan ifodalanuvchi murakkab ko'rinishini shakllantiradi.

Er yuzasi bo'ylab o'rtacha bir yil davomida issiqlikni taqsimlanishini tasavvur qilish uchun yillik izotermalar kartalaridan foydalaniladi.



Yillik izotermalar xaritasi. Shtrixlangan qism – issiq iqlimli hududlarning shartli belgilangan qismi (Polovinkin b-cha).

Issiq iqlimli hududlarga Osiyoning ko'pgina rayonlari, Avstraliyaning katta qismi, shimoliy Afrika, AQShning janubiy shtatlari, Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika davlatlari kiradi.

Harorat rejimi radiyasiya balansi bilan uzviy bog'liqdir. Kunlik va yillik o'zgarishlardan qat'iy nazar shaharlarda havoning o'rtacha harorati, cho'llardan tashqari, qishloq hududlaridagidan balandroq. Shaharlarda qishloqlarga nisbatan olganda balandroq akkumulyasiyalash issiqlik balansi kuzatiladi. Granit qabul qilgan issiqlikning ma'lum %ini yutsa, torf va yaproqlar issiqlikning katta qismini atrof muhitga beradi. Toshli devorlar, yo'l qoplamalari gazon issiqligidan ancha yuqori bo'lgan issiqlikni o'zida saqlaydi.

Shaharlarda haroratning balandligi sababi shuningdek, uning tutun gumbazi er yuzidan qaytgan radiasiyani ushlab qolishi; tosh va asfaltli ko'chalar issiqlikni yig'ishi; havoning quruqligi parlanish natijasida o'rtacha issiqlik sarfini kamayishi

bilan izohlanadi.

Inson organizmiga issiqlik ta'sirini shaharda er yuzining qaytarish xususiyati ham ko'rsatadi, shuningdek binolar devori materiali va inson bilan binoning o'zaro joylashishi ham ta'sir ko'rsatadi.

Qaytgan radiasiya kattaligi to'g'ridan to'g'ri nurlanishning intensivligi va yuzadan qaytarish xususiyatiga (albedo) bog'liq.

Qurilish materiallari, grunt va o'simliklar albedosi (%da) ham yuzaning materiali, rangi, fakturasi va boshqa fizik xususiyatlariga bog'liqdir.

Shuning uchun qurilmalar yuzalari va yo'l qoplamalari qaytgan nurning qo'shimcha manbalari bo'lgan holda shaharda issiqlik bosimini kuchaytiradi va shaharning noqulay sharoiti vujudga keladi.

Insolyasiya - bu inson organizmiga issiqlik yorug'lik va biofizik ta'sir ko'rsatuvchi er yuzining to'g'ridan to'g'ri nurlanishdir.

Insonning muhim gigenik ahamiyatini hisobga olgan holda (bakteriyal ta'sir va antiraxit effekt) sanitar normalari qurilma hududi insolyasiyasini zaruriy sharoit sifatida tasdiqlashgan.

Shaharni loyihalash va qurishda ularning hududini shunday taqsimlashdiki, shahar qurilmalari ochiq muhitlar bilan navbatma-navbat kelishi lozim (gazonlar, o'simliklar va suv inshootlari), bu esa havoning almashishi va qizib ketmaslikni ta'minlaydi. Haroratning o'zgarishi shuningdek, qurilmalar zichligi hudud relefiga bog'liq.

Shahar qurilishi sistemasida issiqlik bosimini kamaytirish maqsadida orientasiya, insolyasiya, ventilyasiya, binolar balandligi va zichligi masalalarining o'zaro bog'liqligi hisobga olinishi lozim. Kvartallarni perimetral qurishda ko'chalar tizimi orientasiyasini quyosh holatidan kelib chiqib loyihalash maquldir. Bunday holatda binolarning zaruriy insolyasiyasi ko'chalar kengligi, bino balandligi va ular orasidagi masofaning kattaligiga bog'liq.

Aholi joylarini rejalashtirishda ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega. Masalan, murakkab tumanlar (III - IV iqlimiy qismlar) uchun harorat va nurning ko'pligi xonalarni qizib ketishiga olib keladi va bu tumanlar xonalarni gorizontning G'arb va Janubiy-G'arb tomonlariga qaratish maqsadga muvofiq emas.

Katta bo'lmagan hudud yoki hududning bir qismi iqlimiy sharoitlari majmuasi

hudud mikroiqlimini ifodalaydi. Mikroiqlimning asosiy meteorologik ko'rsatkichlariga harorat, namlik, o'rtacha harorat, radiasiya, havo harakati tezligi, yoritilganlik darajasi va yorug'likning taqsimlanishi kiradi. Mikroiqlimda hudud reliefi, shimoliy yoki janubiy qiyalik, hududning vodiy yoki tog'liligi, grunt va tuproq xususiyatlari, o'simlik qoplami, shahar qurilishi xarakteri, havoning zaharlanish darajasi va boshqalar ko'zga yaqqol tashlanadi. Buning natijasida shahar hududining mikroiqlimi tabiiy va suv bilan ta'minlash ko'kalamzorlashtirish yuzalarni asfalt bilan qoplash, qurilish zichligi kabi shaharsozlik omillarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida qaraladi. Iqlimiy omillar yil davomida doimiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun masalan, tropikda yashovchi inson organizmida moslashish fasllar almashib turadigan xududda yashovchi, organizmi himoya xususiyatlari o'zgarib turadigan inson organizmi kabi kechmaydi.

Mikroiqlim sharoitlarini, ya'ni biror hududning cheklangan doirasidagi iqlimiy hodisalarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Shaharlarning mikroiqlimi shahar tashqarisidagi hududlar iqlimidan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- shaharlarda qish va yozda issiqroq, harorat yuqoriroq;
- havoning absolyut va nisbiy namligi kamroq;
- shamolning tezligi kamroq (shamol ko'chalar bo'yicha esib yo'nalishini o'zgartiradi va o'ramalar paydo qiladi);
- quyosh radiyasi sharoitlari yomonroq, yorug'lik va ultrafiolet radiyasiyasi kuchsizroq: shaharlar havosi chang va tutun zarralari bilan ifloslangani tufayli atmosferaning tiniqligi kamroq.

Mikroiqlim ayniqsa bolalar uchun sezilarlidir, chunki havoning er usti qatlami (60 sm yuqorida) butunlay boshqa ko'rsatkichlarga ega va sanitar sharoitlarga ko'ra ancha og'ir bo'ladi.

Shaharning, tumanning mikroiqlimi imoratlarning qavatini, ularning orasidagi oraligni to'g'ri tanlash va kvartallarni shamollatish yo'li bilan o'zgartirilishi va yaxshilanishi mumkin.

Mikroiqlimni turar-joy hududlariga kiritilgan hatto kichik suv havzalari, er yuzasining ahvoli (quruq er, asfalt qoplama, tosh qoplama, gulzor va o'tloqlar), yashil o'simliklar va daraxtlar turini tanlash anchagina o'zgartirishi mumkin, ularning

ba'zilar namlikni yutsa, ba'zilar esa o'zini tarkibidagi suvni parlantirib, atrof-muhit haroratini pasaytiradi.

Namlik. Atmosferaning quyi qatlamidagi havoda er yuzidan parlanuvchi suv parlari mavjud. Parlanish tezligi birinchi navbatda harorat va shamolga bog'liq. Kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldik, tropiklarda okean yuzidan yil davomida 3 m gacha qalinlikda suv qatlami parlanadi. Biroq havo faqat ma'lum miqdorda suv parlarini qabul qilishi mumkin, me'yordan oshgan parlanish havoni o'ta darajada to'yintirib yuboradi. Ma'lumki, to'yingan havoni qizdirsa, u yana qo'shimcha suv parlarini qabul qila oladi, aksincha, sovitilsa, kondensasiya hosil bo'ladi, ya'ni suv parlari quyuklashadi.

Bundan ma'lumki, havoning turli miqdordagi maksimal suv parlarini qabul qilishi va o'zida ushlab turishi haroratga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.


Shamol. Havo massasining gorizontal yo'nalishida harakatlanishi shamol deyiladi. Shamolning asosiy yo'nalishi (eng ko'p esadigan tomon) - turar-joy hududi joyini tanlash va unda funksional zonalarini joylashtirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda hududning rel'efi nafaqat issiqlik xarakateriga, balki shamol tezligiga ham ta'sir qilishi hisobga olinadi.

Agar issiq hududlarda shaharsozlik chora-tadbirlari shamolsizlikka qarshi qaratilsa, issiq quruq iqlimli joylarda barcha kuchlar quruq-shamollar bilan kurashishga qaratilgan.

Havoning harakat tezligi ko'p hollarda er yuzining xususiyatlariga bog'liq. Xudud xarakteri, o'simliklar va qurilmalar havo massasi uchun har xil to'siqlar hisoblanadi. Shu sababli er yuzidan balandlik oshgan sari havo harakati tezligi oshib boradi.

Issiq quruq shamollarni gamsellar odatda yuqori harorat va quruqlikni olib keladi. Ularning yuqori harorati ularning issiq hududlardan esishi va yuqori darajada changlanishiga bog'liq (chang zarralari quyosh nurida qiziydi va gamsellarning haroratini ko'taradi). Gamsellarning harorati 400 S ga va undan yuqori ko'tarilishi mumkin. Gamsellar Osiyo cho'llaridan issiqlik va quruqlikni olib keladi degan fikrlar iqlimshunoslar tomonidan rad etilgan.

Shamol yo'nalishi (shamol qaytarilishi va kuchining vektorli diagrammasi).



Quruq hududlar shaharsozligida muhim shart shamol rejimidan foydalanish hisoblanadi. Bu shamoldan himoya qiluvchi ko'kalamzor hududlarni asosiy shamol yo'nalishiga ko'ndalang, nam hududlarda bo'ylama joylashtiriladi: bu havo almashinishi va qurilmalar aerosiyasiga sharoit yaratib beradi.

Shamollarning o'rtacha yillik tezligi va qaytalashi doimiydir va «shamollar guli» deb atalgan grafikni 8 yoki 16 rumb – dunyoning asosiy tomonlari bo'yicha tuzish imkonini beradi. Bu ma'lum bir masshtabda shamol yo'nalishining qaytarilish birligini yoki shamolning o'rtacha va maksimal tezligi birliklarini har bir rumbga mos holda vektor yo'nalishida qo'yiladi. Vektorlarning oxirgi nuqtalarini chiziqlar bilan tutashtiriladi. Shamol guli berilgan hudud uchun shamol qaytarilishlari natijalariga asoslanib yilning eng issiq oy va eng issiq kvartalida olinadi. Buning sababi - ushbu vaqtda sanitar-gigienik masalalarda eng katta noqulayliklar yuzaga keladi: kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar ko'p tarqaladi, sanoat muassasalari atrofida havo muhitining ekologik sharoiti yomonlashadi. Hukmron shamol yo'nalishi shamol gulining markaziga yo'nalgan eng katta vektorga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. “O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
4. A.Z. Himmatovich “O‘zbekiston shaharlarilandshaft muhiti dizaynnini kompleks tashkil etish”. Monografiya. Toshkent-2022 y.
5. D.U. Isamuhamedova “Shaharsozlik va landshaft arxitekturası” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2019
6. Qadabayeva Sh.S. “Arxitektura va shaharsozlik asoslari” II-qism. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2023.
7. Д.У. Исамухамедова, М.К.Ахмедов , М.А.Талипов. ШАҲАРСОЗЛИК. I Қисм. Тошкент – 2019.
8. Д.У. Исамухамедова, М.К.Ахмедов , М.А.Талипов. ШАҲАРСОЗЛИК. II Қисм. Тошкент – 2019.
9. S. A. Qodirova, N. X. Mirzaahmedova “Arxitekturaviy loyihalash”. O‘quv qo'llanma. Toshkent-2021.
10. Махмудов С.М. «ҚУРУҚ ИССИҚ ИҚЛИМ ШАРОИТИДА
11. ШАҲАРСОЗЛИК». Ўқув-услубий мажмуа. Тошкент – 2021.
12. Марина Юшкевич, Юлия Шишалова. Архитектура благополучия. Эволюция городской социальной сферы (исследование). Москва. 2023
13. С. Сайфиддинов «ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ СУХОГО ЖАРКОГО КЛИМАТА». Ташкент – 2022 г.
14. Казанцев Павел. Основы экологической архитектуры. Издательство ДВФУ Владивосток, 2021 г.
15. Миколайт Анне, Пюркхауэр Мориц. Код города. 100 наблюдений, которые помогут понять город. Москва, 2020 г.
16. Carlos Nunes Silva Citizen-responsive Urban E-Planning: resent developments and critical perspectives. 2020.
17. Bill Fulton, Place and Prosperity: How Cities Help Us to Connect and Innovate. Island Press. July 21, 2022, 216 pages.
18. Nicolas Douay, Michael Minja Urban Planning for Transitions. 2021
19. Natalia Otrishchenko Looking Forward, Looking Back: Re-Connecting of Urban Planning Education in Lviv. 2022.

20. Milo, A. The Acoustic Designer: Joining Soundscape and Architectural Acoustics in Architectural Design Education. Build. Acoust. 2020, 27, 83112. [CrossRef]
21. K. Thirumaran, G. Balaji, N. Devi Prasad. Sustainable Urban Architecture: Select Proceedings of VALUE 2020.
- 22.
23. Xiao, J.; Aletta, F.; Ali-Maclachlan, I. On the Opportunities of the Soundscape Approach to Revitalise Acoustics Training in Undergraduate Architectural Courses. Sustainability 2022, 14, 1957. [CrossRef].
24. Marisa Sailus “7 types of urban planning concepts explained from a strategic Lens” 2024 y
25. <https://lex.uz/ru/docs - O'zbekiston qonunchiligi>
26. www.mc.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi sayti.
27. <https://advice.uz/oz - huquqiy axborot partali>
28. <https://siat.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi sayti.
29. <https://urbandesignlab.in/difference-between-urban-design-and-architecture/>
30. <https://www.re-thinkingthefuture.com/architectural-community/a10706-the-role-of-architecture-in-urban-planning-and-development/>
31. <https://www.archdaily.com/search/projects/categories/urban-planning>

6-MAVZU: MEMORCHILIKNING SHAKLLANISH JARAYONLARINI YAXLIT ANGLASHDA CHET-EL TAJRIBASI

Reja

1. *O‘zbekiston Respublikasida madaniy meros vazirligining xizmat ko‘rsatish sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati.*
2. *Hozirgi kunda me’morchilik uslublari tahlili.*
3. *Memorchilikning shakllanishida chet-el tajribasi.*

Kalit so‘zlar: Memorchilik, turar joylar, mahobatli ravoqlar, baland gumbaz,

yuksak badiiy ishlov berilgan stalaktitalar, o‘z o‘nida bino xarakteriga mos ravishda ishlatilgan naqshlar (madaniy meros ob‘yektlari), shahar va qishloqlar turizm markazlari, bosh reja sxemalari, batadfsil rejalashtirish loyihalari, aglomeratsiya, konsepsiya, chet el tajribasi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining xizmat ko‘rsatish sohasida olib borilayotgan islohotlarning

O‘zbekiston Madaniy meros agentligi — O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi agentlik. 2021-yil 21-iyunda Shavkat Mirziyoyevning qarori bilan tashkil etilgan. Agentlik madaniy meros, muzeylar, arxeologiya, madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi etib belgilangan. Quyidagilar Madaniy meros agentligi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

moddiy madaniy meros va muzeylar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

moddiy madaniy meros obyektlari, madaniy boyliklar, muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash, ularning davlat hisobini yuritish hamda sohada ta’sirchan davlat nazoratini amalga oshirish;

moddiy madaniy meros va muzeylar sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ularga oid ma’lumotlarning barcha uchun ochiq bo‘lishini ta’minlash;

madaniy merosimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuviga ko‘maklashish va ularni keng ommalashtirish;

ilg‘or xorijiy tajribalar asosida muzeylarni kompleks rivojlantirish va boshqalar.

2023-yildan boshlab Davlat budjetidan madaniy meros obyektlarida asrashga doir ishlarni amalga oshirish va ularning muhofazasini ta’minlash, ularni restavratsiya qilish va tiklash, shuningdek, arxeologiya ishlar uchun ajratiladigan mablag‘larning yil davomida foydalanilmagan qismi Agentlik huzuridagi Madaniy meros jamg‘armasiga budjet transferi sifatida ajratiladi.

Bundan tashqari, Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy-madaniy hududlarda moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk ob‘yektlarini, shuningdek alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarda ob‘yektlarni qurish va ularni

buzish, obodonlashtirish ishlari bo'yicha loyihalar majburiy tartibda Agentlik bilan kelishiladi. Bunda Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar (ob'yektlar) loyihalari YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya orqali YuNESKO Umumjahon merosi markazi bilan kelishiladi.

2. Hozirgi kunda Me'morchilik uslublari tahlili.

Uslub tushunchasi keng va turlicha ishlatilishi mumkin. Masalan, "davr uslubi", "hayot uslubi", "milliy uslub", "adabiyot uslubi", "san'at uslubi", tasviriy san'at va me'morlikda "uyg'onish davri me'morligi va tasviriy san'at uslubi", "impressionizm uslubi", "gotika uslubi", "klassitsizm uslubi", "modernizm uslubi" va h.k. Uslub bilan mashhur san'at asarlarini yaratgan buyuk va malakali usta, individ shaxsning ish uslubi ham ifodalanadi va aniqlanadi: yozuvchining, kompozitoming, me'moming, rassomning, kino rejissyoming uslubi va h.k. Ammo har vaqt va har bir hodisada "Uslub stil" tushunchasi umumiy xarakterga ega bo'ladi. Uslub ma'no va shaklni o'zida ma'lum bir davrgacha mujassamlashtirgan, estetik obrazni uyg'unlashtirgan va yaxlitlashtirgan tizimdir. Me'morlikdagi uslub - tasviriy san'atdagi uslubdan o'zining ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi: - me'morlikda uslubning iqtisodiy va ma'naviy, g'oyaviy estetik tomonlari bino va yoki inshootning funksiyasi va konstruksiyasi bilan birlashib, qo'shilib ketadi. Shu tufayli uslub bir necha o'n yillar, hatto bir necha asrlar davomida barpo bo'ladi. Har bir davr me'morlik rivojida bir yoki bir necha xil inshootlar tipini yaratadi. Mana shu inshoot tipida o'z davrining uslubi aniq, to'la va har tomonlama yoritilgan bo'ladi. Masalan, Qadimgi Misrning exromiari, Yunonistonning amfiteatrlari, O'rta Osiyo va musulmon Sharqining - masjid, maqbara va madrasaiari, Rimning ibodatxonalari, Yevropaning - gotika soborlari; renessans qasrlari; barokko cherkovlari; klassitsizm saroylari va h.k. Mana shu har bir me'moriy yodgorliklari o'z davrini va uni ijodkorlarini u yoki bu uslub yordami bilan bizning ko'z oldimizda namoyon etadi. Me'morlik uslubi na faqat tashqi tomondan, balki ichki interyerida ham o'z ifodasini topadi. Bu xususta zamonaviy me'morlik interyerlari yaqqol misol bo'la oladi.

Arxitekturaning badiiy tomoni. Harqanday inshootni ichidan va tashqarisidan minglab odamlar tomosha qiladi. Shu sababli har zamon quruvchilari o'z imoratlariga ko'rkam tus berishga intiladi. Arxitekturaning badiiy tomonlari uni o'rganuvchilar uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu avval bayoniniyengilashtirish uchun ikki

qo‘shni tushuncha. "umumiy" va "xususiy" me‘moriy shakllarni kiritamiz. Umumiy me‘moriy (ya‘ni bino kompozitsiyasi) deganda binoning asosiy hajmiy-fazoviy tuzilishi, uni tashkil etuvchi asosiy elementlarning bog‘lanishi tushuniladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, umumiy me‘moriy shakl tushunchasiga binoning nafaqat tashqi, balki ichki hajmlari ham kiradi. Xususiy me‘moriy shakl deganda esa bino kompozitsiyasiga nisbatan xususiy xarakterga ega bo‘lgan me‘moriy va dekorativ elementlar tushuniladi. Ularga ustunlar, kamizlar, frontonlar, oyna va eshiklar haykaltaroshlik detallari va boshqalari kiradi.

3. Memorchilikning shakllanishida chet-el tajribasi

Jahon me‘morchiligi tarixini o‘rganish uning taraqqiyot qonunlarini tekshirish, nodir yodgorliklar bilan odamlarining his-tuyg‘u, hayotiy tajribalarini o‘rganish, g‘oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so‘zsiz insonga hayotiy tajribalarni boyitishga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi. Me‘morchilik tarixi odamzodning go‘zallik yaratishidagi muvaffaqiyatining dalilidir. Hashamatli inshoot qurish, uning barqarorligi, kuchi, foydasini muhokama qilish asli muhandislik ishi. Keyinchalik bu arxitekturaning asosiy ishiga aylandi. Hozirda bu eng foydali san‘at va foydali san‘atning eng oliysidir. Arxitektura tarixi turli yerlar va davrlardagi me‘morchilik uslublari, yutuqlarini, rivojlanishning yirik harakatlarini o‘zida aks ettirgan.

Bo‘lg‘usi me‘morlar uchun me‘morchilik tarixini o‘rganish, bilish juda muhim omillardan biridir. Arxitektura tarixi, me‘morchilik o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqib, insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridan boshlab o‘rganiladi.

Arxitektura grekcha so‘z bolib - "bosh quruvchi" degan manoni anglatadi. Binoni qurish san‘ati, hamda majmualarni jamiyat talablariga nafaqat amaliy xizmat, balki, badiiy-g‘oyaviy jihatdan uyg‘unligini anglash kerak.

Bino va inshootlarni qurilishida ruxsat berilgan amaliy, eng sodda maqsadlarni bevosita badiiy ijodiy uyg‘unlik bilan birga hal qilinishi kerak. Arxitektura inshootlari jamiyat madaniyatining bir bo‘lagi bo‘lishi bilan birga, u san‘at asari hamdir.

Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi bo‘lib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab boimaydi, lekin, uni faqat badiiy ijod turi deb ham boimaydi. "Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan. Rim

me'mori Vitruviy klassik formula bo'yicha me'morchilik inshootining asosiy sifatini quyidagicha belgilagan: mustahkamlik, foyda va chiroylilik.

Vitruviy bu ta'limotida shuni talab qilganki, binoning forma va kompozitsiyasi insoniyatning eng kerakli talablariga, xalq an'analari, o'sha joy iqlimiga, xalq urf-odatlariga, moslashtirishdan iborat". Feodalizmning erta davrlarida arxitektura tushunchasi bir oz toraydi. Uning vazifalari asosan qabroq, ibodatxona, qo'rg'onlar qurilishi bilan chegaralandi. Me'morchilik inshootlari insoniyatning tafakkuri hamda qarashlariga asosiy ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga qarab, uning yengilligi yoki ogirligini, bejirimligi yoki qo'polligini, past va balandligini, yaxlitligini va kompozitsiyasining aniqligi, uning formalarining bo'laklarini his eta oladi va o'z ta'sirini o'tkazadi. Inson binoga kirib, uning ichki fazoviy kengligi, mahobatli ravonlar, baland gumbaz, yuksak badiiy ishlov berilgan stalaktitalar, o'z o'rnida bino xarakteriga mos ravishda ishlatilganligiga hayratlanadi.

Asrlardan asrlarga o'tgan sayin me'morlarga bo'lgan talab kuchayadi. Arxitekturaviy yo'nalishni o'rganish ko'pgina davrlardan oq saroy va maqbarani, xalq turar joylarini o'rganishdan boshlanadi. Saroy va maqbaralar formalaridan ularning oddiy asosdan rivojlanishi topiladi. Xalq san'atining kuchi uning o'ziga xos yorqin xarakterli topilmalarini tarixiy monumental asarlarda yetkazib beradi.

Qadimgi Misrda piramida va Gretsiyaning maqbaralarida "abadiylik" g'oyalari aniq namoyon bo'lib, Qadimgi Misr arxitekturasida monumental g'oyalar farqlanadi. Misr maqbara, piramidalari firavnlarning hokimiyatining abadiyligi bilan birga, ularning quldorlikni boshqarish demokratiyasi maqbara kompozitsiyalarida va ularning shaklida, antagonistik ravishda talqin etiladi. Yuqorida ko'rsatilgan arxitektura inshootlarining struktura va obrazlarini, inson tomonidan tabiat qonunlarini tan olinganini o'z inshootlariga yondashtirganlar. Shuning uchun arxitekturaning rivojlanish davri, inson tomonidan tinchlikni o'zlashtirish pog'onasi, bizga qimmatli bo'lgan ashyolar arxitektonik muhitda yaratilib tugallanadi. Shuni ko'zda tutish lozimki, arxitekturaning har bir davri mustahkam xarakterli bo'lishiga qaramasdan, uyg'onish davri usullarini shakllarda qo'llab, o'z bo'lsa ham yangi vazifalarga yangi mazmun bilan javob beradi. Asrlar davomidagi arxitektura rivojlanishining shakl rivojlanishida, bir necha qonuniyatlar ishlab chiqildi.

Arxitektura tarixida ham mustahkam qonunchilik yuzaga keldi. Qonunchilikning ko'p qismi arxitekturaviy formalarni o'zgartirdi, ammo ulaming davomiyligi uzoqqa cho'zilmasligi xarakterli edi. Aniqlangan tarixiy davr mobaynida yangi iqtisodiy, badiiy yangiliklarga qamralgan davr eski davrni cheklantiradi. Bu yerdan ko'rinadiki, arxitektura ilmining vazifasi arxitekturaning hayotiy progressiv qadriyatlarini o'zlashtirib, hozirgi davrga, halqqa moslanadi.

Tarixiy materializm qadimiy yodgorliklarni qunt bilan arxitekturaning o'rganishiga, shuningdek, har bir vaqtni mutanosibligini to'g'ri tanlash arxitektura tarixi darsligida turli davrlar hajmini to'g'ri o'zlashtirish lozim. Antik arxitekturaning biz o'rganamiz va bizning mahalliy merosimiz bunda ko'proq halq yaratgan qismiga e'tibor qaratiladi.

Arxitektura tarixi bir tomonlama rivojlanishi bilan chegaralanmasligi lozim. Funksional qurilish texnik g'oyaviy badiiy va boshqalar. Arxitektura tarixi inson faoliyatining ko'p qirralari rivojlanishi jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bogliq holda jamoa rivojlanishi formalari arxitekturasida o'z samarasini topadi.

Arxitektura tarixi fanning shunday xususiyati borki, unda uyg'onish davri o'rganiladi, turli tarixiy davrlarni yuzaga kelishi va rivojlanishi arxitekturaning faqat ma'lum bir tomonlarini emas, balki murakkab, ko'p qirrali, ya'ni dialektik birligini arxitekturada namoyon etadi.

Arxitekturaviy jarayonning rivojlanishi - eski uslublarning yangilari bilan qamrab olinishi, real formalarga aylantirilib utilitar g'oyalar ilgari suriladi. Shuning uchun arxitektura tarixi arxitekturaviy ijodiyotda progressiv uslublarni va tarixiy shakllarni o'rganadigan fan hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan makonning loyihasini yaratish va uni qurish me'morlik san'atining mazmunini tashkil etadi. Turar joylar, yo'llar, hiyobonlar maydonlar, yirik suv inshooti va madaniy xordiq uchun mo'ljallangan me'moriy majmualar hammasi shu san'atning turli ko'rinishlaridir. Bular uning bosh quruvchisi - arxitektori (me'mori) tomonidan loyihalashtiriladi va rahbarligida amalga oshiriladi. Bino va inshootlarning nima maqsadga xizmat qilishi, ya'ni ularning bajaradigan vazifasi aniqlanadi, uning to'g'ri hal qilish esa me'morlik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi. Shular asosida me'morlik quyidagi soha va turlarga bo'linadi:

1. Turar-joy binolari va ma'muriy madaniy inshootlari sohasi. Turar-joy binolari qayerda va qanday qurilishiga qarab, past qavatli (4-5 qavatgacha) va ko'p qavatli (5 qavatlidan yuqorisi) kabi turlarga bo'linadi. Bu binolar asosan mahalliy iqlim sharoitlari, milliy an'analari va oila a'zolari soni kabilarga moslashgan bo'lishi kerak.

Jamoat va ma'muriyat binolari sohasi hozirgi davrdagi eng katta soha hisoblanib, o'z ichiga juda ko'p. va xilma-xil turlarni oladi. Bu turlar bir-biridan bajaradigan xizmati va funksiyasi, xarakteri va individualligi asosida farqlanadi. Masalan: umumiy ta'lim-tarbiya binolari (yasli, bog'cha, maktab, internat va h.k.); o'rta va oliy ta'lim-tarbiya binolari (kollej, institut, universitet va h.k.); sog'lom saqlash va dam olish binolari (poliklinika, kasalxona, dispanser, sanatoriya, kurort, dam olish uylari va h.k.); madaniy oqartuv binolari (teatr, kinoteatr, sirk, konsert zalari, Muzey, kutubxona, ko'rgazma pavilyonlari va h.k.); savdo-sotiq binolari (magazin, univermag, savdo markazlari, bozor va h.k.); umumiy ovqatlanish binolari (oshxona, choyxona, qaxvaxona, restoran, va h.k.); sport bino va inshootlari (stadion, manej, basseyn, yaxt klub va h.k.); maishiy xizmat ko'rsatish binolari (hammom, atelye, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari va h.k.); aloqa va transport bino va inshootlari (pochta, telegraf, aeroport, vokzal, avtovokzal, metropoliten va h.k.); ma'muriy xizmat binolari (har xil vazirlik, davlat muassasalari va h.k.).

2. Sanoat korxona va suv inshootlari me'morligi. Sanoat korxona va suv inshootlari sohasi asosan XIX asrda zavod va fabrikalarning rivojlanishi va qishloq xo'jaligining texnikaviy taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan. Bu binolar arxitekturasida ularning bajaradigan funksiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ya'ni binoning past-balandligi va katta kichikligi, ichki va tashqi qiyofasi shular jumlasidandir.

3. Landshaft me'morligi yoki bog'-park san'ati. Landshaft me'morligi yoki bog'-park san'ati shahar hiyobonlari, kichik me'moriy hajmli qurilmalari boigan, faworalar, ko'priklar va yoiakchalari boigan dam olish hududi me'morligida o'z aksini topadi.

4. Shaharsozlik. Shaharsozlik, me'morlikning katta va alohida sohasi hisoblanadi. Turar joylar, mavze (kvartal), kichik noxiya (mikrorayon), (mahallalar)lar, maydonlar va bog'lar, ko'cha va hiyobonlar, sanoat va ijtimoiy binolar va ular bilan birga transport magistrallari, turli kommunikatsiya ishlari hisobga olinib,

kelajakda rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan shahar loyihasi yaratiladi. Mana shu loyiha asosida shaharlar barpo etiladi yoki qayta tiklanadi, ta’mirianadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. Ташкент, 1936.
2. O‘zbekiston arxitekturası va qurılışı. Toshkent, 2006, №3.
3. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 1-14 tomlar. Toshkent. 1971- 1980
- 4.Podrobneye:https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/madaniy_meros_agentligining_vazifalari_belgilandi.
5. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O‘qituvchi», 2009.
6. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
7. Бартенев И.А., Батажкова В. Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
8. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999. 9. Килпе Т.Л. Основы архитектуры,- М.; Высшая школа, 1999.
10. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
11. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.
12. Curil M. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004y. 581 r.
13. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fazio, Lawrence Wodehouse. London . 2003.
14. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSITY, 1998 SEVENTH EDITION.
15. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
16. Dostmetova Z. Me’morchilik asoslari. Darslik. - T.: «O‘qituvchi», 2007.
17. Zohidov P.SH. Me’mor olami. Lug‘at. - T.: « O ‘qituvchi», 1998.
18. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. O ‘quv qo‘llanma. TAQI: 2000.
19. Миколайт Анне, Пюркхауэр Мориц. Код города. 100 наблюдений, которые помогут понять город. Москва, 2020 г.
20. Carlos Nunes Silva Citizen-responsive Urban E-Planning: recent developments and critical perspectives. 2020.

21. Bill Fulton, Place and Prosperity: How Cities Help Us to Connect and Innovate. Island Press. July 21, 2022, 216 pages.
22. Nicolas Douay, Michael Minja Urban Planning for Transitions. 2021
23. Natalia Otrishchenko Looking Forward, Looking Back: Re-Connecting of Urban Planning Education in Lviv. 2022.
24. Milo, A. The Acoustic Designer: Joining Soundscape and Architectural Acoustics in Architectural Design Education. Build. Acoust. 2020, 27, 83112. [CrossRef]
25. K. Thirumaran, G. Balaji, N. Devi Prasad. Sustainable Urban Architecture: Select Proceedings of VALUE 2020.
26. Xiao, J.; Aletta, F.; Ali-Maclachlan, I. On the Opportunities of the Soundscape Approach to Revitalise Acoustics Training in Undergraduate Architectural Courses. Sustainability 2022, 14, 1957. [CrossRef].
27. Marisa Sailus “7 types of urban planning concepts explained from a strategic Lens” 2024 y
28. <https://lex.uz/ru/docs> – O'zbekiston qonunchiligi
29. www.mc.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi sayti.
30. <https://advice.uz/oz> – huquqiy axborot partali
31. <https://siat.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika Agentligi sayti.
32. <https://urbandesignlab.in/difference-between-urban-design-and-architecture/>
33. <https://www.re-thinkingthefuture.com/architectural-community/a10706-the-role-of-architecture-in-urban-planning-and-development/>
<https://www.archdaily.com/search/projects/categories/urban-planning>

ILOVALAR


“Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va qayta tiklash” loyihasini bajarish uchun talabalar tne’moriy qismlarning tuzilishi bo'yicha kerakli ma’lvimotlarga ega

bo'lishlari lozim.

Sinchli devor konstruksiyasi. O'rta Osiyo me'morchiligida awaldan sinch devor konstruksiyalar ko'proq turar joy binolarida va mahalla (guzar) masjidlarida keng qo'llanilgan bo'lib, uni qo'llashdan maqsad binoning mustahkamligini, turg'unligini oshirish va zilzilabardoshligini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Sinchlar imoratning ustixoni qobirg'asi hisoblanadi.

Sinch devorlar ikki xil: yakka sinch (bir qatorli) va qo'shsinch (ikki qatorli) bo'ladi. Yakkasinchli devorlar ko'proq ichki xonalarni ajratishda, ochiq ayvonlarni yon devorlarini tiklashda qo'llaniladi.

Ustunlar. Binoning alohida o'rnatiladigan tayanch qismi, tomni ko'tarib turishga xizmat qiladi. Toshidan, g'ishtdan ishlangan ustun asosga o'rnatilgan poy ustiga qo'yiladi. Ustun o'rnatilgan asos tag kursi deyiladi. Poyustun yog'och ustunni chirishdan saqlash uchun qo'llanilgan.




Ravoqlar. Toqining bir turi. Bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinlarining yuqori qismiga qo'yiladigan mehrobiiy yoysimon qurilma. Ravoq yo'nilgan, tabiiy yoki sun'iy toshlar, beton, temir-beton, yog'och va po'lat singari materiallardan ishlanadi. Ravoqning tayanch qismi tovon, markaziy ponasimon g'ishti yoki toshi esa qulf deb ataladi. Ravoqlar shakliga ko'ra: yakka markaziy, yarim aylana shaklli, balandmarkazli taqasimon, bir nechamarkazli nayzasimon, tuxumsimon bo'ladi. Hozirgi zamon inshootlarida ichki kuchlanishlarni kamaytirish maqsadida ravoqlar 2 — 3 sharnirli qilib ishlanadi. Ustunlarga tiralgan bir hajm va shakldagi ravoqlar qatori qatorak (arkada) deb nomlangan.



Gumbazlar. Xona ustini berkituvchi, qubba shaklidagi yassi fazoviy hajmdagi tom. Gumbazlar tarxi aylana, chorsi, to'g'ri to'rtburchakli, muntazam ko'pburchakli va hokazo shakldagi bino va inshootning ustiga yarim sharsimon qilib yopiladi. Shuningdek, ko'pburchakli xona va katta inshootlar devorlari ustida ba'zan ustunlarni birlashtirgan doirasimon qurilma — poygumbaz* ustida aylana ko'rinishida bo'ladi. Ularning turlari: balhi, charxi, chortark, chorkunjak, mirzoiy, quloxiy, sholg'omiy va boshqa bir qancha turlari mavjud. O'rta Osiyo me'morchiligida dastawal to'g'ri to'rtburchakli yapaloq g'ishtdan, yog'och, xorning'isht va pishiqg'ishtdan qurilgan.



Peshtoqlar. Peshtoqlami binolaming kidsh qismiga urg'u berish maqsadida usti baland qilib serhasham ravoqli qilib ishlangan. Peshtoq binoning hashamatli, baland, bezakdor me'moriy bo'lagi bo'lib, devor sathidan bo'rttirib chiqariladi. 215 Peshtoqlar O'zbekistonning deyarli barcha me'moriy yodgorliklarda masjid, maqbara, madrasalarda, karvonsaroy kabi inshootlarning kirish qismida qo'llanilgan. Madrasalarda peshtoqlardan miyonsaroylarga (markaziy xona) va hujralarga o'tiladi. Peshtoqning devorlari qalin olingan, asosan to'rtburchakli g'ishtlarda, chuqur ravoqli qilib ishlangan.



Muqarnas. Ravoqli kosachalardan katakcha ustma-ust joylashib, tashkil topgan murakkab shakldagi bezak turi. Mehrob, taxmon yoki ravoqlarning tepa qismini yarini gumbaz ko'ririishga keltirishda keng foydalaniladi. To'g'ri hoshiya turi sharafa deyiladi. Kalla muqarnas asosida yaratilgan kallak — ustunning tepa qismi (bezatilgan qismi - boshasi). Kallak ko'pincha yog'ochdan, ba'zan sopoldan, toshdan yasalgan. Me'morchilikda kalla muqarnas ko'p qo'llanilgan. Muqarnasni ishlashda ustalar muqarnas tarkibidagi har bir kosachaning ham hajmini hisoblashgan.



7-MAVZU: SHAHARSOZLIKDA ME'YORIY HUJJATLAR TIZIMI, HUQUQIY VA ME'YORIY TA'MINLANGANLIK, SHAHARSOZLIK NAZORATI FAOLIYATI SOHASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR

Reja:

1. *Asosiy tushunchalar;*
2. *Shaharsozlikda me'yoriy hujjatlar tizimi tushunchasi; maqsadi va vazifalari*
3. *Huquqiy va me'yoriy ta'minlanganlik, asosiy tushunchalari, mohiyati;*
4. *Shaharsozlik nazorati faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish.*

1.Asosiy tushunchalar:

Shaharsozlikda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

aholi punkti — huquqiy maqom, nom va chegara bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy birligi (shahar, shaharcha, qishloq, ovul);
 aholi punktining bosh rejasi — aholi punktini hududiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini hamda fuqarolarning qulay hayot faoliyati muhitini kompleks shakllantirish shart-sharoitlarini belgilaydigan shaharsozlik hujjati;
 aholi punktlariaro hududlar — ikki va undan ortiq aholi punkti oralig‘idagi aholi punktlari chegaralaridan tashqaridagi hududlar;
 aholi punktining chegara chizig‘i — aholi punkti yerlarining ularni yer fondining boshqa toifalaridan ajratib turadigan, shaharsozlik hujjatlarida belgilangan tashqi chegarasi;
 aholini joylashtirish tizimi — mavjud aholi punktlarini rivojlantirish hamda yangi aholi punktlarini barpo etish yo‘li bilan aholini tegishli hududga tartibga solib boriladigan tarzda joylashtirishning shaharsozlik hujjatlari bilan belgilanadigan asosiy yo‘nalishlari;
 bino — funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo‘lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;
 buyurtmachi — obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va buzishning amalga oshirilishini ta’minlovchi, shuningdek shu maqsadlarda loyiha-qidiruv, ekspertlik, qurilish-montaj va nazorat ishlarini bajarish uchun tegishli tashkilotlar bilan shartnomalar tuzuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;
 zonalashtirish — hududni rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish chog‘ida shaharsozlikning foydalanish turlarini hamda bu turlardan foydalanishga doir cheklovlarni belgilagan holda, hududning funksional maqsadga ko‘ra bo‘linishi;
 inshoot — har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish, moddiy qimmatliklarni joylashtirish va saqlash, odamlarning vaqtincha bo‘lishi (harakatlanishi), shuningdek uskunalar yoki kommunikatsiyalarni joylashtirish (o‘tkazish, ulash) uchun mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziqli tarzidagi qurilish tizimi;
 ishlab chiqarish obyektlari — odamlar va texnologik asbob-uskunalar ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar ta’minlanadigan ishlab chiqarishni joylashtirish uchun mo‘ljallangan binolar hamda inshootlar;
 qizil chiziqlar — shaharsozlik hujjatlarida belgilanadigan, mavzelarning, kichik dahalarning va rejalashtirish tuzilmasi boshqa elementlarining hududlarini aholi punktlarining ko‘chalaridan, tor ko‘chalaridan va maydonlaridan ajratib turuvchi chegaralar;
 noyob va alohida muhim obyektlar — alohida yoki birgalikda o‘ziga xos, betakror hajmiy-rejaviy, konstruktiv, muhandislik yoki texnologik yechimlari hamda arxitektura g‘oyasi bilan, yuqori texnik darajadagi yutuqlar va me’morchilikni o‘zida mujassam etgan binolar, inshootlar va ularning majmualari;
 reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) — tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va qo‘llaniladigan vositalar, shuningdek aholiga axborot yetkazish vazifalarini bajaruvchi texnik vositalar (konstruksiyalar);
 turar joy obyektlari — odamlar yashashi uchun mo‘ljallangan binolar, doimiy yashash uchun uy-joylar (xonadonlar), shuningdek vaqtincha yashash uchun yotoqxonalar, mehmonxonalar, maktab-internatlar, qariyalar uylari;
 urbanizatsiya — aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tuzilishida ijobiy

o'zgarishlarga, uning turmush tarzi hamda madaniyati sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilishiga ko'maklashuvchi, jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishda shaharlarning rolini oshirish, shuningdek shahar infratuzilmasini shakllantirish jarayoni. Urbanizatsiya, qoida tariqasida, shahar atrofini shahar hududiga kiritish, bir nechta aholi punktlarini yagona makonga birlashtirish bilan birga olib boriladi;

fuqaroviy obyektlar — madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va tashkilotlarini, bank-moliya muassasalarini, qurilish-kommunal tashkilotlarini, aloqa hamda transport korxonalarini joylashtirish uchun mo'ljallangan binolar va inshootlar; shaharsozlik — aholi punktlarini, aholi punktlariaro hududlarni rejalashtirish hamda qurishning ijtimoiy-iqtisodiy, qurilish-texnika, arxitektura-badiiy yechimlari yig'indisini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini hisobga olgan holda ta'minlovchi nazariyasi hamda amaliyoti;

shaharsozlik reglamenti — hududlarni va aholi punktlarini qurishning belgilangan qoidalari, shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida aholi punktlarining hamda aholi punktlariaro hududlarning yer uchastkalaridan va boshqa ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanish ko'rsatkichlari hamda turlarining yig'indisi;

shaharsozlik faoliyati — davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni va aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, binolarni, inshootlarni hamda ularning majmualarini shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish sohasidagi faoliyati;

shaharsozlik hujjatlari — hududlarni va aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to'g'risidagi hamda ularni qurish haqidagi tasdiqlangan hujjatlar;

yakka tartibdagi uy-joy — yakka tartibda uy-joy qurish va tomorqa xo'jaligini yuritish uchun mo'ljallangan bir yer uchastkasida joylashgan bir yoki bir nechta turar-joy binolari va ularga taalluqli bo'lgan tomorqa-xo'jalik imoratlari va hovli inshootlari.

2. Shaharsozlikda me'yoriy hujjatlar tizimi tushunchasi; maqsadi va vazifalari

Shaharsozlik faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

-shaharsozlik sohasida fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi hududini va uning qismlarini barqaror rivojlantirish;

-hayotiy faoliyat uchun qulay muhit yaratish, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;

-binolar va inshootlar konstruksiyalarining xavfsizligi va ishonchliligi, ularning seysmik chidamliligi, yong'in xavfsizligi va energiya samaradorligiga qo'yiladigan talablarga rioya qilgan holda tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari asosida shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish;

-shaharsozlik faoliyati va qurilish ishlab chiqarishida eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish, qurilish sifatini oshirish;

-hududlarni rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish jarayonida jamoatchilikning samarali ishtirokini ta'minlash.

-Shaharsozlik faoliyati subyektlari o'rtasidagi raqobat muhiti:

- ishlar (tovarlar, xizmatlar) bozorida monopol faoliyatni, shu jumladan raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan faoliyatni cheklash;
- shaharsozlik faoliyati subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarning qulay elektron bazalarini yaratish va yaratilgan asosda ularning faoliyatini baholash reytinglarini joriy etish;
- shaharsozlik faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash;
- davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan yaratiladi.
- Shaharsozlik normalari va qoidalari shaharsozlikning asosi bo'lib, ular shaharsozlik faoliyati subyektlari tomonidan bajarilishi majburiydir.
- Shaharsozlik normalari va qoidalari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bo'lib:
- hududlarni rivojlantirishni va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish;
- muhandislik qidiruvlari;
- loyihalashtirish, shu jumladan texnologik loyihalashtirish;
- obyektlarni qurishni, rekonstruksiya qilishni, mukammal va joriy ta'mirlashni, shuningdek buzishni amalga oshirish;
- obyektlardan foydalanish, ularni ta'mirlash yoki qayta tiklash (ishlarni tashkil etish, yuritish va qabul qilib olish);
- obyektlarning muhandislik tizimlarini o'rnatish;
- obyektlarning qiymatini belgilash;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish chog'idagi majburiy talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining geologik, tabiiy-iqlimiy, seysmologik hamda boshqa o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan shaharsozlik faoliyati sohasidagi xalqaro va xorijiy normativ-texnik hujjatlardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Shaharsozlik normalari va qoidalari to'g'risidagi axborot shaharsozlik faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Shaharsozlik normalari va qoidalari chegaradosh yer uchastkalari, reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) hamda boshqa ko'chmas mulk obyektlari mulkdorlarining, egalarining va ulardan foydalanuvchilarning, shuningdek shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlariga daxl qilinishi mumkin bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari masalalari yuzasidan davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilinishi uchun asos bo'ladi.

3. Huquqiy va me'yoriy ta'minlanganlik, asosiy tushunchalari, mohiyati

Huquqiy tartibga solish ob'ekti - bu huquqning ma'lum bir sohasi tomonidan tartibga solinadigan sifatli bir hil ijtimoiy munosabatlar sohasi. Bu asosiy mezon, chunki ijtimoiy munosabatlar ob'ektiv ravishda mavjud bo'lganligi sababli, ularning o'ziga xos xususiyati tegishli huquqiy shakllarni talab qiladi. Masalan, mehnat munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Huquqiy tartibga solish predmeti qonunni tarmoqlarga bo'lishning yagona mezoni emas, chunki:

1) uning ijtimoiy aloqalari juda xilma-xil;

2) bir xil ijtimoiy munosabatlar turli sohalar va usullar bilan tartibga solinadi.

Shu munosabat bilan huquqiy sohani ajratish uchun yordamchi mezon bu huquqiy tartibga solish usuli hisoblanadi.

Qurilish to'g'risidagi qonun ijtimoiy munosabatlarning alohida turini tartibga soladi,

bu ularning mazmuni va ahamiyati jihatidan alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Qurilish qonunchiligini huquqiy tartibga solish qurilish huquqi sub'ektlarining huquq va majburiyatlarining paydo bo'lishi, o'zgartirilishi va bekor qilinishining maxsus tartibi bilan ajralib turadi, qurilish huquqi sub'ektlarining huquq va majburiyatlari mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qurilish to'g'risidagi qonunning o'ziga xos xususiyati maxsus tartibga solish rejimida ifodalanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qurilish to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadigan jamoat munosabatlarida ham qonunchilik, ham xususiy huquqni huquqiy tartibga solish usullari birlashtiriladi. Faqat hajm jihatidan ahamiyatsiz bo'lgan individual munosabatlar dispozitiv yoki imperativ usul bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, qurilish qonuni murakkabdir, chunki unga kiritilgan normalar huquqiy tartibga solishning yagona usuli va mexanizmi bilan bog'liq emas.

Huquqiy tartibga solish ob'ekti yuridik ta'sirga ega bo'lgan ma'lum bir turdagi ijtimoiy munosabatlar, ya'ni. qonun doirasi. Shunga ko'ra, qurilish huquqining ob'ekti dizayn va qurilish, arxitektura va qurilish dizayni bo'yicha munosabatlar va kapital qurilish munosabatlari bo'yicha muhandislik-tadqiqot munosabatlari hisoblanadi.

Qurilish qonuni mustaqil, integrastiyalashgan huquq sohasi sifatida deyarli bir xil holatlar tufayli O'zbekiston huquq tizimida ajralib turadi, deb hisoblaymiz. Shubhasiz, iqtisodiyotning qurilish sohasini mustaqil huquqiy tartibga solish uning O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyati bilan belgilanadi va shunga muvofiq qurilishning bunday mustaqil huquqiy tartibga solinishida jamoat ehtiyojlari va davlat manfaatlari mavjud.

Bundan tashqari, bizga aniq ma'lumki, qurilish qonunchiligini huquqiy tartibga solishning mustaqil sub'ekti mavjud va bu mavzu juda o'ziga xosdir, chunki arxitektura va qurilish dizaynidagi munosabatlar (shu jumladan muhandislik tadqiqotlari) va kapital qurilish loyihalarini qurishdagi munosabatlar tadbirkorlik sohasidagi umumiy munosabatlardan ajralib turadi va farqlanadi. .

4. Shaharsozlik nazorati faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish

Mustaqil huquqiy tartibga solish predmetiga qo'shimcha ravishda, qurilish huquqi huquqiy tartibga solishning maxsus usuliga ega. Qurilish huquqi usullarining o'ziga xosligi qurilish qonunchiligini huquqiy tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyati bilan izohlanadi, ya'ni arxitektura va qurilish dizayni sohasidagi jamoatchilik aloqalari (shu jumladan muhandislik tadqiqotlari) va kapital qurilish ob'ektlarini qurishda. Qurilish huquqining predmeti ham fuqarolik, ham ma'muriy huquqiy munosabatlar bo'lganligi sababli, qurilish huquqi har bir holatda ham huquqiy tartibga solishning "birlamchi" usullarini (fuqarolik va ma'muriy), ham boshqasini birlashtirgan murakkab usuldan foydalanishi aniq. nisbatlar asosiy usullari. Qurilish huquqining ushbu murakkab usuli qurilish faoliyati jarayonida yuzaga keladigan aralash huquqiy munosabatlarni tartibga soladi va huquqiy tartibga solishning imperativ va ixtiyoriy usullarini birlashtiradi.

Qurilish to'g'risidagi qonun hujjatlari - kapital qurilishni tashkil etish va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi

Muhandislik tadqiqotlarini o'tkazishda qurilish faoliyatini tartibga solishning xususiy huquqiy usullari qo'llaniladi; me'moriy va qurilish loyihalarini amalga oshirishda, shu jumladan dizayn natijalariga mutlaq huquqlar bo'yicha; pudrat qurilish ishlari olib borilganda. Biroq, kapital qurilish sohasidagi faoliyatni tartibga solishning xususiy-

huquqiy usullarini qo'llash sohasi davlat tomonidan tartibga solinadigan huquqiy usullarsiz to'liq emas. Va ko'proq kategoriyali bo'lish uchun aytishimiz mumkin, xususiy huquqiy tartibga solish usullarini qo'llashning yuqoridagi barcha sohalari, avvalambor, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga bog'liq.

Shunday qilib, keyingi qurilish uchun er uchastkasiga egalik qilish fuqarolik va er qonunlari bilan tartibga solinadi. Biroq, bunday er uchastkasining egasi unga bino qurish imkoniyatini mustaqil ravishda aniqlay olmaydi. Egasi er uchastkasining shaharsozlik rejasida ko'rsatilgan cheklovlarni, xususan: er uchastkasining chegaralari, umumiy foydalanishdagi er uchastkalari, er uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanish turlari, er uchastkasida madaniy meros ob'ektlarining mavjudligi, er uchastkasida allaqachon mavjud bo'lgan kapital qurilish ob'ektlarining mavjudligi, rejalashtirilgan kapital ob'ektlar. davlat va kommunal ehtiyojlar uchun qurilish va boshqalar.

Arxitektura va qurilish uchun muhandislik tekshiruvlarini o'tkazishda bunday ishlarni bajarish uchun shartnoma tuzuvchilar tomonlarning ruxsat etilgan ishlarga bo'lgan ko'plab talablarini, bunday ishlarni bajarish tartibini, muhandislik tadqiqotlari natijalarini va ba'zi hollarda muhandislik tadqiqotlari natijalarini davlat ekspertizasini hisobga olishlari shart. Arxitektura dizayni haqida ham shunday deyish mumkin. Bundan tashqari, ushbu ishlarni bajaradigan shaxslardan kapital qurilish loyihalarining xavfsizligiga ta'sir qiladigan ishlarga qabul qilish to'g'risida guvohnoma bo'lishi kerak, ya'ni. maxsus huquqiy layoqatga ega bo'lishi, to'liq va to'liq davlat huquqida mavjud bo'lgan imtiyoz talablariga bog'liq bo'lishi.

Qurilish ishlarini olib borishda, qurilish shartnomasi taraflari yanada muhim talablar bilan cheklanadi, yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, bu davlat ekspertizasidan o'tgan loyihaning mavjudligi; davlat qurilish nazorati organlari tomonidan berilgan qurilish ruxsatnomasi; pudrat qilingan qurilish ishlarini bajarishda davlat qurilish nazorati talablari va talablariga muvofiqligi. Qurilish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni tegishli ravishda bajarish tegishli ravishda davlat ekspertisasi bilan bog'liq.

Qurilish to'g'risidagi qonun va shaharsozlik to'g'risidagi qonun - bu shunchaki eski qonunlardan boshlab, bugungi kunda xususiy qonun va jamoat huquqi kombinastiyasiga asoslangan juda rivojlangan qonunga aylangan sof ichki qonundir. Xususiy huquqdan kelib chiqadigan bo'lsak, xususiy mulk masalalarini umumiy tartibga solish, jamoa mulki va birgalikda mulkchilik normalari, ko'chmas mulkni quruvchilarning holati, xo'jalik bitimlarini tartibga solish, shuningdek qurilish masalalarida javobgarlik tamoyillari qabul qilindi.

Ommaviy huquqdan kelib chiqib, u erdan foydalanishning umumiy printsiplarini, mulkni ma'muriy tartibga solishni, shu jumladan mashhur qurilish ruxsatnomasi va er uchastkalarining huquqiy rejimini o'z ichiga oldi; bundan tashqari, jihozlarni qayta tiklash va tiklash bo'yicha maxsus operastiyalar rejimi, ko'chmas mulkning saqlanishi, ko'chmas mulkning sanitariya holati va xavfsizligi ustidan nazorat. Qurilish faoliyatining muqarrar soliq tomonlarini ham eslatib o'tish kerak, bu qurilishning turli xil soliqlari va to'lovlarida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, biz ko'rib turganimizdek, chinakam zamonaviy qonun, xususiyati uning kengligi va rivojlanishi puxta o'ylanganligi, shuningdek, xususiy shaxslarning tashabbusini qo'zg'atishi yoki hatto ishdan chiqarishi mumkin bo'lgan kuchaytirilgan kuch haqida gapirayapmiz.

Qurilish qonunchiligi qurilish sohasi sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim tartibga soluvchisidir.

Qurilish huquqi - bu qurilish, muhandislik va tegishli sohalarni qurish bilan bog'liq muammolarni hal qiladigan huquq sohasi. Bu, mohiyatiga ko'ra, shartnoma shartnomasi, tijorat huquqi, huquqiy rejalashtirish, mehnat qonunchiligi va fuqarolik huquqining aralashmasidir. Qurilish to'g'risidagi qonun keng qamrovli huquqiy masalalarni, shu jumladan shartnomaga binoan, beparvolik, obligatsiyalar va aloqalar, kafolatlar va kafilliklar, garovlar va xavfsizlik sohasidagi boshqa manfaatlar, tenderlar, qurilish talablari va konsalting xizmatlari bo'yicha tegishli shartnomalarni o'z ichiga oladi. Qurilish to'g'risidagi qonun qurilish sohasidagi ko'plab ishtirokchilarga, shu jumladan moliya institutlari, tadqiqotchilar, tadqiqotchilar, me'morlar, quruvchilar, muhandislar, quruvchilar va dizaynerlarga ta'sir qiladi.

Qurilish to'g'risidagi qonun umumiy huquqiy tamoyillar va metodologiyalarga asoslanadi va huquqiy va me'yoriy bazani (to'lov xavfsizligi, rejalashtirish, atrof-muhit va qurilish kodekslarini o'z ichiga oladi) o'z ichiga oladi; shartnoma metodologiyasi va tanlovi (kontraktlarning an'anaviy va alternativ shakllarini o'z ichiga olgan holda); subpudrat masalalari; shartnomada yuzaga keladigan harakatlar va majburiyatlarning sabablari, beparvolik va boshqa sabablar; sugurta va majburiy sugurta; nizolarni hal qilish va oldini olish.

Qurilish va arxitektura qonunlari keng ko'lamli maxsus sohaga aylandi, bu materiya haqida chuqur bilim va sud amaliyotining doimiy monitoringini talab qiladi. Amaliyotga yaqin bo'lgan va vaqt va pulni tejaydigan echimlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor beramiz. Buning yordamida biz sud jarayonlarining oldini olishga qodirmiz.

Qurilishni huquqiy tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1.Listenziyalash tartibi va shartlari;
- 2.Qurilish faoliyatiga soliq solish xususiyatlari;
- 3.Qurilishda shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish;
- 4.Davlat buyurtmasi bo'yicha amalga oshiriladigan qurilish ishlarining xususiyatlari;
- 5.Qurilish ishlari jarayonida er, atrof-muhit va ekologik qonunchilik masalalari;
- 6.Qurilish tartibini buzganlik uchun tashkilotlar va mansabdor shaxslarning javobgarligi;
7. va boshqalar.

Qurilish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari – Fuqarolik kodeksi, Er kodeksi, Uy-joy kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, MJtK, shuningdek, qurilish sohasiga oid boshqa qonunlari;
2. O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari;
4. Qurilish sohasidagi davlat dasturlari va ularning doirasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar
5. Shaharsozlik normalari qoidalari (ShNQ);
6. Qurilish me'yorlari qoidalari (QMQ);
7. Boshqa sohaga oid lokal hujjatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023y.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. 22.02.2021.
<https://lex.uz/docs/5307951>

3. SHNK 1.01.01-09 « Система нормативных документов в строительстве. Основные положения». g.Tashkent, 2019. GosarxitektstroyRUz.
4. SHNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish” / O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi – Toshkent, 2019-177 b4.
5. X.M.Ubaydullayev, M.M.Inog'omova «Turar-joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» T.:2019y.
6. M.M.Miralimov «Turar-joy va jamoat binolarini loyihalash asoslari» O'quv qo'llanma, T.:2010y
7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi O'RQ-537-sonli qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi «Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida»gi O'RQ-581-sonli Qonuni
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni

8-9-MAVZU: HOZIRGI KUNDA O'ZBEKISTONNING SHAHARSOZLIK ARXITEKTURASI TAHLILI (AMALIY)

Yangi Urbanizmning muammolari orasida shaharlarning ekologik barqarorligi va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, ijtimoiy tengsizlik va xizmatlardan foydalanishning tengsizligi, texnologik rivojlanishning jadal sur'ati va harakatchanlikning yangi shakllarining paydo bo'lishi, shahar aholisining yehtiyojlari va afzalliklariga ta'sir qiluvchi demografik tendensiyalarning o'zgarishi. Yangi Urbanizmning asosiy tamoyillaridan biri bu turar-joy, savdo va jamoat binolari bir-birining yonida joylashgan zich, aralash maydonlarni yaratishni o'z ichiga olgan ixchamlik tamoyilidir. Umuman olganda, yangi Urbanizm tamoyillari shaharlarning zamonaviy muammolariga samarali yechim bo'lishi mumkin. Ular yehtiyojlari va afzalliklaridan qat'i nazar, barcha aholi uchun yanada barqaror, qulay va qulay shahar muhitini yaratishga yordam beradi. Biroq, yangi Urbanizm tamoyillari muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun har bir shaharning o'ziga xos yehtiyojlarini hisobga olish va ularni innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar bilan birlashtirish kerak.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda turar joylar va ijtimoiy-maishiy obektlar qurilishini rivojlantirish hamda shaharlar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy arxitektura qiyofasini shakllantiruvchi shaharsozlik hujjatlari bilan

ta'minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilmoqda. Buning natijasida bir necha shaharlar va shahar posyolkalari bosh rejalar bilan ta'minlandi, qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig'inlari hududlarni arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalariga ega bo'ldi.

Shaharsozlik sohasidagi ishlarning holatini tubdan takomillashtirish maqsadida «2018-2022 yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta'minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarori qabul qilindi.

Mamlakatimizda arxitektura-shaharsozlik sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, shu bilan birga yillar davomida saqlanib qolayotgan yoki yangidan yuzaga kelayotgan muammolar yo'q emas. Soha vakillari ana shu muammolar – kadrlar masalasi, faoliyatni litsenziyalash, shaharsozlik, bosh reja, qurilishlar, buzilishlar va hokazo masalalar yuzasidan fikr almashishdi, takliflarini bildirishdi.

Jumladan, bugun arxitektura yo'nalishida ta'lim sifati past ekani, Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Urganch, Namangandagi OTMlardagi arxitektura ta'lim yo'nalishlarida mutaxassislar yetishmasligi, ayrimlarida umuman yo'qligi aytiladi. Ushbu sohada o'qishni tamomlab, malakali mutaxassis bo'lib yetishgan kadrlar xorijga chiqib ketayotgani, mamlakatda qolganlariga esa yetarlicha sharoit va imkoniyatlar, e'tibor berilmayotgani, nafaqat arxitektorlar, balki muhandis-konstruktorlar, dizaynerlar ham unutilib qo'yilayotgan sohalarga aylangani qayd etildi. Umuman, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, e'tiborni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

So'nggi yillarda respublika shaharlarida milliy arxitektura yechimlari, elementlari kamayib borayotgani, yangi loyihalarni arxitektor emas, dizayner qurayotgani, bu borada tanlovlar o'tkazilmasligi, malakali, ko'p yillik tajribaga ega mutaxassislarga esa imkoniyat berilmayotgani, qurilishlarda arxitektor fikri inobatga olinmasligi, maslahat so'ralmasligi tanqid qilinadi.

O'zbekiston prezidenti farmoni bilan 2025-yilgacha O'zbekistonning barcha shaharlari va shahar posyolkalarining 25 foizi bosh rejalar bilan tasdiqlanishi

kerak. Shu jumladan, **ko‘p yillardan beri muddati uzayib kelinayotgan Toshkent shahrining bosh rejasini qabul qilish rejalashtirilgan. Mutasaddilar bu borada ishlar davom etayotganini ma’lum qildi.**

2021-yil 1-martda Qurilish vazirligi tomonidan “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat hokimiyatining javobgarligini oshirish hamda davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarori loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilindi.

Hujjatga ko‘ra, hududlarda davlat arxitektura-shaharsozlik siyosatini yagona davlat organi orqali yuritish, arxitektura yo‘nalishidagi vazifalarni samarali va operativ yechish hamda qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, sohaga salohiyatli kadrlarni jalb qilish maqsadida Arxitektura-shaharsozlik departamentlarini, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan. O‘zbekiston Arxitektorlar uyushmasi, Qurilish vazirligi, Toshkent shahar hokimligi vakillari ushbu qaror loyihasi yuzasidan taklif-mulohazalarini bildirdi.

Mutaxassislar fikricha, hujjat loyihasida sohadagi mavjud asosiy muammolarga yechim izlangan, jumladan, arxitektorlar shtatini oshirish, rag‘batlantirish mexanizmlari, noqonuniy qurilishlarni to‘xtatish masalalari ko‘zda tutilgan. Ammo arxitektura sohasini qurilish sohasidan chiqarib tashlash, tuzilmalarda quruvchi va arxitektor kasblarining darajalarini noto‘g‘ri belgilash to‘g‘ri qadam emas.

joylardagi umumiy mulkni boshqarish tizimi sifatini qanday baholaysiz?” degan savolga javob berish uchun 5 ballik tizimdan iborat to‘rtta variant taklif qilindi (1-rasm).

Respondentlar fikrini o‘ranish natijalariga ko‘ra uy-joylardagi umumiy mulkni boshqarishni talab darajasida deyish qiyin. Ya’ni jami respondentlarning 124 tasi yoki 41 foizi umumiy mulkni boshqarishni baholashda “0-2” javobini belgilagan holda qoniqarsiz holatda ekanligini bildirishgan, shuningdek 14 foizi “2-3” degan javobni belgilashgan. Faqat respondentlarning 16 foizigina umumiy mulkni boshqarishni 5 ballik baholash tizimida “4-5” oraliqda ekanligini ta’kidlashgan. Mazkur javobni tanlangan 49 ta respondentning 20 tasi uy-joylarni tasarruf etishda davlat aralashuvi lozimligini, qolgan 29 tasi buni mulkdorlarning ishi ekanligini ta’kidlashgan.


Shuningdek, ushbu 49 ta respondentning 24 tasi “uy-joylar xususiy bo‘lishining ustunligi bormi?” degan savolga “ha, bozor iqtisodiyoti bu” degan javobni belgilashgan bo‘lsa, qolgan 25 tasi “yo‘q, davlatniki bo‘lgani yaxshi” deb javob berishgan. Ushbu olingan natijalar nisbatlari uy-joy fondini boshqarishda davlat aralashuvini ta’minlash va bunda bozor iqtisodiyoti qonunlarini inobatga olgan holda bugungi kunda keng tarqalgan DXSHdan foydalanish lozimligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Respondentlarning “O‘z uy-joyingizni boshqarishda ishtirok etasizmi?” degan savolga javoblari

Anketa so‘rovnamasining ikkinchi bo‘limi uy-joy fondini boshqarishdagi kuchsiz jihatlari o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun respondentlarga uchta savol berilgan va ular natijalari asosida xulosalar chiqarish maqsad qilingan. Birinchi savolda respondentlarning o‘z uy-joylarini boshqarishda ishtirok etish holatlari o‘rganilgan (2-rasm).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra respondentlarning 58 foizi o‘z uy-joy fondini boshqarishda ishtirok etishini, 17 foizi esa ishtirok etishni xohlamasligini bildirishgan. Qolgan 25 foiz respondent ishtirok etishni xohlashini faqat ularga bu haqda xabar berilmasligini ta’kidlashgan. Umumiy hisobda 83 foiz respondent o‘z uy-joy fondini boshqarishda qatnashadi yoki qatnashishni istaydi.



3-rasm. Respondentlarning “O‘zbekistonda uy-joy fondini boshqarishda mulkdorlar ishtiroki ta’minlanganligini qanday baholaysiz?” degan savolga javoblari


Bundan tashqari ishtirok etishni xohlamasligini bildirgan 51 ta respondentning atiga 20 tasi o‘ziga tegishli uy (xususiy mulk)ka egaligi aniqlandi. Fikrimizcha uy-joy fondini boshqarishda mulkdorlar ishtiroki va ularning o‘zaro aloqalarni ta’minlash masalasini qarab chiqish, bunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish istiqbolli yo‘anlishlardan hisoblanadi.

Tadqiqotimizni davom qildirgan holda respondentlarning uy-joy fondini boshqarishda mulkdorlar ishtiroki ta’minlash bo‘yicha bergan javoblari asosida mavjud holat tahlilini amalga oshirib o‘tamiz (3-rasm).

Olingan javoblarga ko‘ra respondentlarning uchdan ikki qismi O‘zbekistonda uy-joy fondini boshqarishda mulkdorlar ishtiroki qonunan ta’minlanganligini ta’kidlashgan bo‘lsa, 32 foiz respondent qonunan ta’minlanmagan degan javobni belgilashgan. Qolgan ikki foiz respondent esa javob berishga qiynalishini aytishgan. Bundan ko‘rinadiki uy-joy fondini boshqarishdagi qonunchilik tizimini takomillashtirish lozim, chunki aynan o‘z uy-joyini boshqarishda ishtirok etishni xohlamagan 51 ta respondentning 33 tasi uy-joy fondini boshqarish qonun bilan ta’minlanmaganligini ta’kidlashgan. Shuningdek, uy-joy fondini qonun bilan ta’minlanmagan deb hisoblagan 97 ta respondentning 47 tasi uy-joy fondini boshqarishda qatnashishni xohlashini, lekin unga bu haqda habar berilmasligini ta’kidlashgan.

Yuqorida keltirilgan javoblar uy-joy fondini boshqarish tizimini yaxshi shakllanmaganligi va uni takomillashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Mazkur masala bo‘yicha respondentlar fikrini o‘rganish maqsadida ularga “Uy-joy fondini boshqarish tizimini qanday baholaysiz?” degan savol bilan murojaat qilingan (4-rasm).

Natijalarga ko‘ra 60 foiz respondent uy-joy fondini boshqarish tizimi o‘zgarmaganligini, faqat nomlanishigina o‘zgarganligini ta’kidlashgan bo‘lsa, 40 foiz respondent tizim yaxshilanganligi, ammo aholiga tushuntirish ishlari yetarli darajada tashkil qilinmaganligini ta’kidlashgan. Bular esa o‘z navbatida yuqoridagi tahlil natijalarini asoslaydi va uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish, uni aholiga yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatadi.




4-rasm. Respondentlarning “Uy-joy fondini boshqarish tizimini qanday baholaysiz?” degan savolga javoblari

Respondentlarga tanlash uchun ikkita variant berilgan bo‘lib, ularning 66 foizi uy-joylar ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, davlat mulki bo‘lishi kerak degan fikrda bo‘lsa, qolgan 34 foizi bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning xilma-xilligi ta’minlanishi lozim degan varianti belgilashgan. Ikkala variant bo‘yicha olingan natijalarni umumlashtirish uy-joy fondini boshqarishda DXSHni foydalanish lozimligini yana bir bor tasdiqlashga xizmat qilmoqda(5-rasm). So‘nggi yillarda uy-joylar qurilishining oshganligi sababli umumiy mulk qismini boshqarish tizimini o‘zgartirish masalasi qarab chiqilgan (6-rasm).




5-rasm. Respondentlarning “Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy-joylarni xususiylashtirish qanday ahamiyat kasb etadi?” degan savolga javoblari

Olingan javoblarning 57 foizi umumiy mulk qismini davlat sektoriga berish kerakligini ko‘rsatmoqda, 28 foizi esa DXSH tizimini joriy qilish lozimligini ta’kidlashgan. Biroq qiziqarlisi respondentlarning atigi 15 foizigina umumiy mulk qismini boshqarishni xususiy sektorga berish kerakligini belgilashgan xolos.



6-rasm. Respondentlarning “So‘nggi yillarda uy-joylar qurilishining oshganligi sababli umumiy mulk qismini boshqarish tizimini o‘zgartirish kerakmi?” degan savolga javoblari

Birinchi savolda uy-joy fondini boshqarishdagi muammolarning asosiy sababi bo‘yicha respondentlar javoblari o‘rganilgan bo‘lib, natijalarga ko‘ra asosiy muammolar sifatida qonunchilikdagi kamchiliklar (63 foiz), mutaxassislar yetishmasligi (37 foiz) kabilar maydonga chiqmoqda. Ushbu natijalar yuqorida uy-joy fondini boshqarishdagi qonunchilik tizimini takomillashtirish lozimligi bo‘yicha berilgan xulosalarimizni tasdiqlashga xizmat qilmoqda.




7-rasm. Respondentlarning “Uy-joy fondini boshqarishda bevosita mulkdorlar ishtirok etmasligining sababi nimada deb o‘ylaysiz?” degan savolga javoblari


Olingan javoblar yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalariga uyg‘un bo‘lishiga qaramasdan uy-joy fondini boshqarishda bevosita mulkdorlar ishtiroki qoniqarsiz ekanligini, ularning ushbu jarayondagi faolligi sustligini ko‘rsatmoqda. Xususan jami respondentlarning 54 foizi mulkdorlar xohlamasligini, 16 foizi esa mulkdorlar tushunmasligini ta’kidlashgan.

Qolgan 30 foiz respondent mulkdorlarga tushuntirilmasligi va ma’lumot berilmasligini ta’kidlashgan(8-rasm).

Jami 302 ta respondentning 57 foizi uy-joylarni xususiy mulk sifatida tasarruf etilishining huquqiy asoslari mavjud ammo amaliy mexanizmlari yaratilmagan degan fikrda bo‘lsa, 20 foizi huquqiy asoslari ham amaliy mexanizmlari ham yaratilmagan degan fikrda. Qolgan 23 foiz respondent esa huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari bor biroq ijro intizomi sust ekanligini ta’kidlashmoqda. Natijalarga ko‘ra amaliy mexanizmlarni yaratish muammosi muhim masalalardan ekanligi aniqlandi, chunki jami respondentlarning 77 foizi aynan amaliy mexanizmlar shakllanmaganligini ta’kidlashmoqda.



8-rasm. Namunali uy-joy fondini boshqarishning onlayn platformasi



9-rasm. Respondentlarning “O‘zbekistonda uy-joylarni xususiy mulk sifatida tasarruf etilishini qanday baholaysiz?” degan savolga javoblari

Tahlil natijalariga asoslangan holda shuni ta’kidlash mumkinki uy-joy fondini boshqarish tizimidagi ma’lumot almashish jarayonida muammolar mavjud, natijada mulkdorlar va UJMSH orasidagi aloqalarning uzilishi, mulkdorlarga axborotni to‘liq yetib bormasligi, qonunchilikdagi o‘zgarishlarni tushuntirishdagi kamchiliklar kuzatilgan. Aniqlangan muammolarni inobatga olgan holda biz uy-joy fondini boshqarishning onlayn platformasini shakllantirishni taklif qilmoqchimiz (9-rasm).

Mazkur platforma uy-joy fondini boshqarish bo‘yicha barcha jarayonlarni qamrab olgan holda ularning ma’lumotlar bazasini shakllantirib boradi va mulkdorlar undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish, jarayon bo‘yicha to‘liq ma’lumot olish imkoniyatiga egabo‘ladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan bilan UJMSH onlayn platforma orasidagi bog‘liqlik masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Fikrimizcha ushbu platformani joriy qilish boshqaruv tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, uy-joy fondini boshqarish tizimidagi muammolarni o‘rganish, ular bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ish va bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishda keng jamoatchilik fikriga asoslanish imkoniyatini yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. 22.02.2021.<https://lex.uz/docs/5307951>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-sonli qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi «Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida»gi O‘RQ-581-sonli Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3980-son qarori. <http://lex.uz/docs/4007891>
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-yanvardagi “Toshkent shahrining uy-joy kommunal infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-sonli qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-yanvardagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi 67-sonli qarori

XXI ASRNING YANGI ARXITEKTURASINING MUAMMOLARI

Kalit so‘zlar: XXI asr arxitekturasini, muammolar, hal qilish, smart shaharlar, ekologiya, texnologiyalar, moliya, ijtimoiy integratsiya, 3D-bosma modellash, robototexnika, tendensiyalar.

1. Shaharlarda odamlar o‘zaro muloqot qiladigan yo‘lakdagi rekreatsion hududlar. Ijtimoiy arxitektura haqida materiallar tayyorlash uchun quyidagi mavzularni o‘rganishga boshlang:

Shahar dizayni va planlashuvi: shaharlar muloqot va umumiy axborot almashish joylarini aniqlash va ularga alohida e‘tibor berish uchun dizayn qilinadi. Bu mavzuda, shaharlar qanday shaklda tuzilishi, muloqot markazlari, ob-havo ko‘rish joylari, va yuridik/ijtimoiy muhitga oid qonunlar va qoidalarni o‘rganish kerak.

Ijtimoiy muhit va ommaviy joylar: odamlar muloqot qilish va suhbatlashish uchun muhim joylar ko‘rsatish uchun turli ommaviy joylar tuziladi. Bu joylar, mehmonxonalardan restoranlarga, ko‘p o‘tiladigan bozorlardan kafelarga qadar turli xil ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Tarixiy mavzular va medeniyatlar: shaharlar, ularning tarixiy maddiy va manaviy bog‘bonlari orqali odamlar uchun muloqot markaziga aylanadi. Tarixiy yodgorliklar, muzeylar, monumentlar va arxitektura obyektlari o‘zaro aloqalarni o‘rnatish uchun muhimdir.

Turizm va sport joylari: turizm va sport sohasida shaharlar aloqador joylarni taqdim etishadi. Odamning muloqot qilish uchun joylar, turizm markazlari, sport komplekslari, yovuz joylar va boshqalar shuningdek joylashadi.

Rekreatsion hududlar shaharlarda odamlar uchun tanishuv, bog‘lanish va dam olish joylari sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Bu hududlar turli xil tadbirlar uchun foydalaniladi, masalan, o‘yinlar o‘tkazish, sport amaliyotlari, yurish, va dam olish uchun joylar mavjud bo‘lishi mumkin.

Rekreatsion joylar, bog‘lanish joylari, va ko‘p o‘tiladigan odamlar o‘rtasida o‘zaro munosabatni kuchaytirish uchun muhimdir. Bu joylar, parklar, bog‘lar, plajlar, yurish yo‘llari, sport komplekslari, va o‘yin joylari kabi joylar orqali odamlar uchrashish, qatnashish, va faol faoliyatga qo‘shilish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, rekreatsion hududlar shaharlarning o‘ziga xos atmosferasini va manzarasini ta‘minlashda ham o‘z mavqesini o‘rnatadi. Bu joylar shahar aholisining ruhini tinch, qiziqarli va sovuq qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, bu hududlar turistlar uchun ham ahamiyat kasb etadi, chunki ular turistlarga shahar tarixi va madaniyati haqida ma‘lumot olish, dam olish va yangi tajribalarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu joylar shaharlar uchun noyob turizm atraksiyalari bo‘lib, turizm sanoatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. [13]

2. Ijtimoiy va ekologik muammolar.

Ijtimoiy va ekologik muammolar bir qancha ko‘plab sohalarga tegishli bo‘lishi mumkin, va ularning har biri turli shahar va qishloqlarda mavjud bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ularni barchasini bir marta ko‘rib chiqish juda qiyin. Lekin, bir nechta umumiy muammolardan ba‘zilarini taqqoslash va ularni yechish uchun samarali usullar quyidagilardir:

Transport muammolari: shaharlar o‘rtasidagi transport tizimlari ko‘plab muammolarga sabab bo‘ladi, shu jumladan trafik yo‘qligi, yo‘lovchilar va transport

vositalari to'g'risidagi muammolar, va shuningdek, transport vositalari ko'p va energiya isrofi bilan bo'g'liq bo'lishi mumkin. O'rganish va ko'proq to'siq transport vositalari, shaharlararo transport tizimlari, va alternativ transport vositalari (masalan, velosipedlar, elektr transport) bu muammolarga yechim topishda yordam berishi mumkin.

Energiya isrofi: shaharlar energiya isrofi uchun katta vaqt va pul sarflaydi, bu esa ekologik muammolarga olib keladi. Bunday muammolarni hal qilish uchun, energiya taqsimoti va isrofni kamaytirish usullari (masalan, yengil energiya manbalari, isitma va sovuq suv isrofi, va avtomatlashtirilgan energiya tizimlari) muhimdir.

Jamoatchilik integratsiyasi va bog'liqlik: shahar dizaynida jamoatchilikni qondirish va ekologik muhitni himoya qilishga oid strategiyalar qo'llanishi muhimdir. Keng qamrovli bog'liqlik qurish, umumiy joylar va ekologik parklar qurish, shahar transport tizimlarini to'siq va qulay qilish, va ommaviy joylar uchun ko'p mamlakatli joylar tashkil etish bu muammolarni yechishda yordam berishi mumkin.

Oziq-ovqat taminoti: shaharlarda oziq-ovqat taminoti va yetkazib berish tizimi muhim ekologik va ijtimoiy muammolardan biridir. Bu muammolarni yechish uchun, qishloq xo'jaligi bilan shahar orasidagi aloqalar kuchi yaxshilanganishi, oziq-ovqat xodimlariga yordam berish, va oziq-ovqat taminotining samaradorligini oshirish usullari muhimdir.

Ijtimoiy va ekologik muammolar shaharlarning barqaror rivojlanishi va saqlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bu muammolar yuzaga kelgan yangi shaharlar va mavjud shaharlar uchun kritik masalalardan biridir. Bu masalalarni o'rganish va yechish uchun quyidagi yo'laklarni kuzating:

Shahar dizayni va planlashuvi: Shaharlar muloqot va umumiy axborot almashish joylarini aniqlash va ularga alohida e'tibor berish uchun dizayn qilinadi. Bu, shaharlar qanday shaklda tuzilishi, muloqot markazlari, ob-havo ko'rish joylari, va yuridik/ijtimoiy muhitga oid qonunlar va qoidalarni o'rganish bilan bog'liq. Ijtimoiy va ekologik muammolar bu dizayn va planlashuvning asosiy qismi sifatida hisoblanadi, chunki bu muammolar shahar aholisi uchun ta'sirli bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy muhit va ommaviy joylar: ommaviy joylar, odamlar muloqot qilish va suhbatlashish uchun muhim joylar ko'rsatish uchun turli ommaviy joylar tuziladi. Bu joylar, mehmonxonalardan restoranlarga, ko'p o'tiladigan bozorlardan kafelarga qadar turli xil ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Bu joylar shahar aholisini birgalikda bir-biriga yaqinlashtirish, hamkorlikni kuchiqlash va ijtimoiy munosabatlarni kuchaytirish uchun ahamiyatga ega.

Tarixiy mavzular va medeniyatlar: tarixiy yodgorliklar, muzeylar, monumentlar va arxitektura obyektlari shaharlarda ijtimoiy va ekologik muammolarni o'rganish va yechishda katta o'rin egallaydi. Bu obyektlar shahar aholisi uchun ma'lum bir kimlik, taraqqiyot tarixi va asosiy qadriyatni namoyish etishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ular shahar turizmi uchun ham ahamiyat kasb etadi, chunki turistlarga shahar tarixi va madaniyati haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Turizm va sport joylari: Turizm va sport sohasida shaharlar aloqador joylarni taqdim etishadi. Bu joylar turistlarga shahar qiyofasini va madaniyatini ko'rish imkoniyatini beradi. Shuningdek, sport komplekslari va turizm markazlari shahar aholisiga sport va dam olish imkoniyatini taqdim etadi, shuningdek, turizm sanoatini rivojlantirishda katta o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, ijtimoiy va ekologik muammolar shaharlar uchun katta chet el va ulkan masalalardan biridir. Bu muammolar o'rganib, ularni yechish uchun murakkab

strategiyalar va to'g'ridan-to'g'ri harakatlar kerak.

3. Smart arxitektura.

Texnologiyalar va sensorga asoslangan arxitektura. Bu, yashil energiya iste'mol qilish, energetik tarmoqlarning integratsiyasi, va aqli yashash muhitlarini yaratishning qanday ahamiyatli ekanligini o'rganishga yo'l qo'yadi.

Smart arxitektura, yangi shaharlar va mavjud shaharlar uchun innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanarak, energiya samaradorligini oshirish, atrof muhitni saqlash, transport va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishni maqsad qiladi. Bu yondashuvlar asosan quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega bo'ladi:

Yengil energiya foydalanish: smart arxitektura, shaharlarda energiya foydalanishini yengil va samarali qilishni maqsad qilar. Bundan foydalanish uchun quyidagi yondashuvlar ishlatilishi mumkin: quyosh energiyasi paneli, yengil o'q energiyasi, va o'zaro aloqa orqali energiya taqsimoti.

Interaktiv infrastruktura: smart shaharlar interaktiv kommunikatsiya va infrastrukturani o'rnatish orqali aholi bilan o'zaro aloqani kuchitlashni maqsad qilar. Bu, shahar aholisining qulayliklaridan foydalanishini oshiradi va boshqa tarmoqlarga, masalan, transport va kommutatsiya tizimlariga, yetakchi masalalarni o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Ma'lumot analitikasi: smart arxitektura, aholi va shahar tashkilotlariga qulayliklar taqdim etish, shahar sohalarini rivojlantirish, va ekologik muammolar bilan kurashishda yordam berish uchun ma'lumot analitikasidan foydalanadi. Bu, sensorga asoslangan ma'lumotlar tizimi yordamida sodda va operativ qarorlar olish va o'rganish imkoniyatini beradi.

Qulay transport tizimlari: smart arxitektura transport tizimlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Bu, avtomobil trafikni boshqarish, transport va transport vositalarini monitoring qilish, va transport xizmatlarining qulayliklarini oshirish bilan bog'liq.

Ekologik boshqaruv: smart arxitektura ekologik boshqaruvni oshirish uchun qulayliklar taqdim etadi. Bu, suv va energiya sarflarini kamaytirish, atrof muhitni saqlash, atrofni tozalash, va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bilan bog'liq.

Shu bilan, smart arxitektura shaharlarda ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish, energiya foydalanishini yengil qilish, va aholi uchun qulay transport va kommunikatsiya tizimlarini taqdim etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanadi.

4. Sustainable (iqtisodiy) arxitektura.

Bu, ekologik muhitni muhofaza qilish, manbai ichki islohotlar va qog'ozsiz materiallarni ishlatish orqali yoritilgan, butunlay iqtisodiy va ekologik ravishda ehtiyotkorlikni o'rgatishga oid muammolardan biridir.

Bu faqat bir nechta misollar. Barcha shaharlar va qishloqlar o'zining o'ziga xos muammolar va yechimlarga ega bo'ladi, shuning uchun ularni o'rganish va yechish uchun har bir hududni boshidan yoshiga mos ravishda tahlil qilish kerak.

Sustainable (iqtisodiy) arxitektura, shaharlarning rivojlanishini va uni mustaqil, barqaror hayotga qaratishni maqsad qiladi. Bu arxitektura modellari ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy talablar bilan mos keladi va quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

Ekologik boshqaruv: sustainable arxitektura, atrof muhitni saqlash va himoya qilishga e'tibor beradi. Bu, quyosh energiyasi, yengil energiya foydalanish, suv va qorin samarador foydalanish, atrof muhitni tozalash va tabiiy resurslardan foydalanishni o'z

ichiga oladi.

Ijtimoiy qulayliklar: sustainable shaharlar, aholi uchun qulay va me'moriy yashash sharoitlarini ta'minlashga diqqat qaratadi. Bu, muloqot va umumiy axborot almashish joylarini, ommaviy joylar va ko'rsatkich joylarini aniqlash, turli turdagi ko'rsatkichlar va xizmatlar taqdim etish, va ijtimoiy muhitni mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy rivojlanish: sustainable arxitektura, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun strategiyalar o'rnatish. Bu, sanoat va savdo tarmoqlarini rivojlantirish, turizm va sport sohasidagi joylarni taqdim etish, ma'lumot va texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq.

Tarixiy va medeniyatlar: sustainable shaharlarning dizayni va planlashuvi, ularning tarixiy va madaniy bog'bonlari bilan muvaffaqiyatli biriktirishni o'z ichiga oladi. Bu, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, monumentlar va arxitektura obyektlari orqali odamlar uchun muloqot markazlariga aylanadi.

Sustainable arxitektura, yangi shaharlar uchun ilg'or yondashuvlar va strategiyalar taqdim etadi, shuningdek mavjud shaharlarning rivojlanishini mustaqil va barqaror hayotga o'tkazishga intiladi. Bu model, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni samarali hal qilishda muhim rol o'ynaydi va bugungi vaqtda shaharlar uchun ko'p qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi

Bu amaliyot mavzusi "XXI asrning yangi arxitekturasining nazariy muammolari" mavzusiga oid. Ushbu mavzu bo'yicha ikki qismga bo'lingan va ularga qarashli ravishda yaratilgan. Har bir qism, arxitektura sohasidagi muammolarni aniqlash, o'rganish va yechish jarayonlarini ta'riflash va mazmuni ko'rsatishda yordam beradi. Bu mavzuda "XXI asrning yangi arxitekturasining nazariy muammolari" mavzusining muhim bo'lgan qismlari va ularni yechishning samarali usullari ko'rsatilgan. Mavzuni yaxshi o'rganish va uni amaliyotga o'tkazish jarayonida yordam beradigan ilmiy yordamchilar uchun ma'lumotlarni taqdim etish va turli qiyinchiliklarga echim topish imkoniyatini beradi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi takliflarga ega bo'lsak mumkin:

1. Shaharlarda odamlar o'zaro muloqot qiladigan yo'lakdagi rekreatsion hududlar: Rekreatsion hududlarini tartibga solish masalalari: o'quvchilar jamoat va ekspertlar bilan birgalikda shahar yo'llarida rekreatsion hududlarni aniqlash va ularni tartibga solish uchun topshirishlar tayyorlashadi.

Yo'lakdagi rekreatsion hududlarni o'rganish va tahlil qilish: o'quvchilar shahar yo'llarida turli xil rekreatsion hududlarini aniqlaydi va ularning foydali va zararli taraflarini tahlil qilishadi.

Yangi rekreatsion hududlarini loyihalash: o'quvchilar qadimiy yo'llar yoki yopilgan yo'llar asosida yangi rekreatsion hududlarini loyihalash uchun g'oya qilishadi va ularning qanday o'rganish va ijro etishini o'ylashadi.

2. Ijtimoiy va ekologik muammolar:

Energiya isrofi va ijtimoiy muhitning himoyasi: o'quvchilar shahar yoki qishloqda energiya isrofi va ijtimoiy muhitning himoyasi masalalarini tahlil qilishadi va ularning echimlarini topishadi.

Energiya samaradorligi loyihalari: o'quvchilar o'zgartirish mumkin bo'lgan joylarda energiya samaradorligini oshirish uchun loyihalar tuzishadi va ularning amaliyotda qanday o'rganish va yechishni o'ylashadi.

Ekologik turizm loyihalari: o'quvchilar shahar yoki qishloqlarda ekologik turizmni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni tuzishadi va ularning ijro etishini

rejalashtirishadi.

Bu amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni ijtimoiy muammolarga oid nazariy bilimlarni amaliyotga o'tkazish, g'oya qilish va yechishda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Har bir mashg'ulot o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash, g'oyalarni rivojlantirish va amaliy yechimlarni topish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Puyana-Romero, V.; Ciaburro, G.; Brambilla, G.; Garzón, C.; Maffei, L. Representation of the Soundscape Quality in Urban Areas through Colours. *Noise Mapp.* 2019, 6, 8-21. [CrossRef]
2. Qiu, M.; Ji, S.; Utomo, S. Listening to Forests: Comparing the Perceived Restorative Characteristics of Natural Soundscapes before and after the COVID-19 Pandemic. *Sustainability* 2021, 13, 293. [CrossRef]
3. Erfanian, M.; Mitchell, A.J.; Kang, J.; Aletta, F. The Psychophysiological Implications of Soundscape: A Systematic Review of Empirical Literature and a Research Agenda. *Int. J. Environ. Res. Public Health* 2019, 16, 3533. [CrossRef] [PubMed]
4. Hong, J.Y.; Ong, Z.T.; Lam, B.; Ooi, K.; Gan, W.S.; Kang, J.; Feng, J.; Tan, S.T. Effects of Adding Natural Sounds to Urban Noises on the Perceived Loudness of Noise and Soundscape Quality. *Sci. Total Environ.* 2020, 711, 134571. [CrossRef] [PubMed]
5. Xiao, J.; Aletta, F.; Ali-Maclachlan, I. On the Opportunities of the Soundscape Approach to Revitalise Acoustics Training in Undergraduate Architectural Courses. *Sustainability* 2022, 14, 1957. [CrossRef].
6. DeWinne, J.; Filipan, K.; Moens, B.; Devos, P.; Leman, M.; Botteldooren, D.; De Coensel, B. The Soundscape Hackathon as a Methodology to Accelerate Co-Creation of the Urban Public Space. *Appl. Sci.* 2020, 10, 1932. [CrossRef]
7. Milo, A. The Acoustic Designer: Joining Soundscape and Architectural Acoustics in Architectural Design Education. *Build. Acoust.* 2020, 27, 83112. [CrossRef]
8. Ministry of Environment of Korea. Noise and Vibration Control Action Plans (2021-2025); Ministry of Environment of Korea: Sejong-si, Republic of Korea, 2021.
9. Kang, J. Soundscape: Progress in the Past 50 Years and Challenges in the next 50 Years. In *INTER-NOISE and NOISE-CON Congress and Conference Proceedings*; Institute of Noise Control Engineering: Washington, DC, USA, 2021. [CrossRef].
10. H. Zogan, I. Razzak, X. Wang, S. Jameel, and G. Xu, "Explainable depression detection with multi-aspect features using a hybrid deep learning model on social media," *World Wide Web*, vol. 25, no. 1, pp. 281-304, 2022.

1-2-KO'CHMA MASHG'ULOT: Shaharsozlik va tumanni

rejalashtirish

Kalit so'zlar: Iqlim, tahlil, geologik tuzilish, landshaft, transport, tuman, shahar, geomorfologik, agroiqlimiy, ekologik shaharlar, transport tarmoqlari, shahar va qishloqlar turizm markazlari, bosh reja sxemalari, Apot rejalashtirish loyihalari.

1. Turar-joy tumani tuzilishining asosiy prinsiplari: Ma'lumki, odamlarning turmushi, ularning yashash, bolalarni tarbiyalash, ta'lim olish, dam olish, madaniy darajasini oshirish, sog'liqni saqlash, savdo-sotiq va boshqa maishiy xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni qondirish jarayoni shaharlarning aholi yashovchi qismlarida mujassamlangandir.

Hozirgi zamonda uy-joy tushunchasining chegarasi ancha kengaygan bo'lib, u hozir aholiga zarur xizmat ko'rsatish tashkilotlarining to'liq majmuasini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda xonadon ichidagi qulay yashash sharoitlarini yaratish shartlari aholi yashash tumanlaridagi ijtimoiy- madaniy va maishiy ehtiyojlarni yuqori darajada qondirish shartlari bilan qo'shib ketadi. Bunday keng ko'lamda aholi uchun qulay yashash sharoitini yaratish uy-joy binolarining turli ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan uzviy qo'shib ketishini taqozo etadi. Uy-joy binolarining ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan uzviy bog'lanishi Respublikamiz shaharlari aholi yashovchi qismlarining ijtimoiy va tarkibiy tuzilishini shakllantirishning asosiy taomili hisoblanadi.

Uy-joylarning ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan uzviy bog'lanishidagi asosiy qoidalaridan biri, bu aholining xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan foydalanish tezligiga bog'liq holda ularni uy-joylarga yaqinlashtirishdir, ya'ni aholining qaysi tashkilotga qatnash ehtiyoji tez va ko'proq bo'lsa, o'sha tashkilot uy-joyga shunchalik yaqin joylashtirilishi lozim. Aksincha, aholi kamroq foydalanadigan tashkilotlarning xizmat ko'rsatish doirasi kengroq bo'ladi. Hozirgi zamon shaharsozligi asosida yotgan bu ijtimoiy talab xizmat ko'rsatish tashkilotlarini ulardan aholining foydalanish tezligiga qarab guruhlariga bo'lishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda olib borilgan ilmiy tadqiqodlar Respublika va boshqa xorijiy mamlakatlar tajribalarini umumlashtirish natijasida turar-joy qurilishi va xizmat ko'rsatish tashkilotlari tizimini tashkil qilishda barcha madaniy-oqartuv, savdo, tibbiy va xo'jalik tashkilotlarini to'rt bosqichga bo'lish qulay ekanligi aniqlandi. Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining bu bosqichlarini aniqlashda aholining ularga qatnash

tezligi, piyoda borish uzoqligi, bitta tashkilot xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan minimal aholi soni, tashkilotlarning rentabel ishlashi, xizmat qilishi va boshqalar hisobiga olingan.

Birinchi bosqichga aholi har kuni foydalanadigan korxona va tashkilotlar, ya'ni oshxona, qahvaxona, bolalar bog'chalari, umum ta'lim maktablari, eng zarur mahsulotlar do'koni, maishiy xizmat ko'rsatish atelezi va madaniy-oqartuv xonalari kiradi. Bu tashkilotlarni turar-joy binolaridan 500 metrgacha uzoqlikda joylashtirish mumkin; Ikkinchi bosqichga aholi davriy qatnaydigan madaniy-maishiy tashkilotlar va korxonalar kiradi: kinoteatrlar, kutubxonalar, restoranlar, sport zallari, poliklinikalar, tug'ruqhonalar, tuman kasalxonalari va boshqalar. Bularni turar-joy binolaridan 1-1.5 km gacha uzoqlikda joylashtirish lozim;

Uchinchi bosqichga aholi onda-sonda epizodik qatnaydigan umumshahar ahamiyatidagi tashkilot va korxonalar kiradi. Ma'muriy tashkilotlar, teatrlar, muzeylar, ko'rgazmalar, mehmonxonalar, savdo, ilmiy, sport va kasalxona markazlari va boshqalar. Bu binolar shahar markazi majmuasiga borish qulay bo'lgan hududlarda joylashtiriladi;

To'rtinchi bosqich shahar yonida joylashgan va aholining ommaviy dam olishiga mo'ljallangan tashkilotlar va qurilmalardan tashkil topadi. Pansionatlar, sayyohlar markazlari, o'rmon bog'lari, memorial bog'lar va h.k.

Hamma madaniy-maishiy tashkilotlarning bosqichlarga bo'linishi shahar aholi yashash joylari tuzilmalari birliklarini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish muassasalari va korxonalari guruhlariga quyidagilar kiradi:

- ☐ shahar ma'muriy va jamoat muassasalari hamda tashkilotlari;
- ☐ mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy-maishiy muassasalar (maktablar, kutubxonalar, muzeylar, teatrlar va shunga o'xshashlar);
- ☐ shahar davolash va sog'lomlashtirish muassasalari (shifoxonalar, poliklinikalar va hokazolar);
- ☐ xo'jalik va uy-ro'zg'or jihozlarini ta'mirlash ustaxonalari, mahalliy joy miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan korxona va muassasalar (non zavodlari, go'sht kombinatlar, restoranlar, tikuvchilik ustaxonalari, ta'mirlash ustaxonalari);

Aholi yashash joylarining tuzilmasi birligini shakllantirishning keyingi

omillari, bu ularning yo‘llar va ko‘chalar tizimi va ommaviy transport tarmoqlari orqali rejaviy elementlarga-magistrallar oralig‘i hududlariga (MOH) bo‘linishidir.

«Magistrallar oralig‘i hududi» - magistral ko‘chalar bilan chegaralangan hudud.

Aholi yashash joylarida ko‘chalar va ommaviy yo‘lovchilar transporti tarmoqlarini shakllantirishning asosiy masalasi, bu qulay transport xizmati va aholi hayoti uchun xavfsiz bo‘lgan sharoitni yaratishdir. Shu maqsadda transportdan holi bo‘lgan va asosan piyodalar ixtiyoriga berilgan keng turar-joy maydonlari yaratiladi. Bu magistral ko‘cha va yo‘llar transport turini tashkil etadi. Uning yacheykalarida aholi yashash joylarining rejaviy elementlari magistrallar oralig‘i hududi shakllantiriladi va ularda turar-joy va jamoat binolarining majmualari joylashtiriladi. Ko‘cha-yo‘l turlari aholi yashash joylari qismlarining magistrallar oralig‘i hududi rejaviy chegaralari bo‘lib hizmat qiladi.

Magistrallar oralig‘i hududlarining o‘lchamlari, jamoat transporti yuradigan va ularning bekatlari joylashgan magistral ko‘chalar turlari, zichligi, ular oralig‘idagi masofalar aholining eng yaqin transport bekatiga piyoda borishi uchun belgilangan vaqt miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Eng uzoqda joylashgan turar-joy binosidan transport bekatiga piyoda kelish uchun sarf qilinadigan vaqt 7-8 daqiqadan oshmasligi belgilangan. Bu transport bekatlari oralig‘i 350-500 m dan va ulardan eng uzoq joylashgan turar-joy binosiga bo‘lgan masofa 500 m dan oshmasligi belgilangan. Bunda aholi harakatlarining asosiy yo‘nalishi bo‘yicha boruvchi parallel ko‘chalar oralig‘i 600-800 m, ikkinchi darajali yo‘nalishlar bo‘yicha boruvchi ko‘chalar oralig‘i 1000-1200 m bo‘lishi mumkin. Magistral ko‘chalarning bunday oraliqlarida magistrallar oralig‘i hududlarining maydonlari 60-100 ga, magistrallar zichligi esa 2.5-2.0 km/km kv. ni tashkil etadi.

Bunday magistrallar oralig‘i hududlari ichida aholi yashash joylarining tarkibiy elementlari bo‘lgan turar-joy tumanlari va kichik tumanlar (mikrorayonlar) joylashtiriladi. Turar-joy tumani va kichik tumanlar - bu turar-joy binolari, hamda aholi har kuni va kunaro foydalanadigan xizmat ko‘rsatish tashkilotlaridan iboratdir.

Aholiga xizmat ko‘rsatishning ikkinchi bosqichi asosida aholi yashash joylarning ikkinchi tarkibiy elementi – turar-joy tumani tashkil qilinadi.

Turar-joy tumani - shahar aholi joylashgan hududi rejaviy tuzilishining asosiy unsuri hisoblanadi. Uning funksiyasi aholiga yuqori qulaylik yaratish, sanitariya-

gigiena me'yorlariga amal qilgan holda qurilishning ifodali arxitekturaviy qiyofasini yaratish. Yuqori darajadagi qulaylik deganda, faqat turar-joy maydonlari bilan ta'minlashgina nazarda tutilmasdan, balki aholiga madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlarini (maktab, bolalar bog'chasi, yasli, do'konlar, kinoteatr, klub, sport inshootlari hamda transport xizmatini tashkil etish) qurish ham tushuniladi.


Turar-joy tumanini tashkil qilish aholi kunaro foydalanadigan tashkilotlarni qulay 1000-1500 m masofada joylashtirishga asoslangan. Xizmat ko'rsatish radiusi 1-1.2 km bo'lganda, turar-joy tumanining hududi taxminan 180-250 ga, eng kamida 120 ta bo'lishi mumkin. Quriladigan turar-joy binolarining o'rtacha balandligi 5 qavat bo'lganda, turar-joy tumani aholisining soni 25 mingdan 50 ming kishigacha bo'lishi mumkin. Agarda turar-joy binolarining o'rtacha balandligi 9 qavat bo'lsa, u holda aholining soni 40 mingdan 70 mingga bo'lishi mumkin.

Umumshahar va tuman ahamiyatidagi ko'chalar turar-joy tumanlarining chegaralari bo'lib xizmat qiladi. Turar-joy tumani aholisining soni 4-5 qavatli uylar bilan qurilganda 25-30 ming kishi atrofida bo'ladi. Ko'p qavatli baland imoratlarning qurilishi turar-joy tumani aholisining sonini 40-60 ming kishiga ham ko'proqqa oshirishi mumkin.

Aholi yashash joylari tarkibiy birliklarining vujudga kelishi shahar kattaligi va uning aholisi soniga bog'liqdir. Bu ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bog'liq holda turar-joy tumani va kichik tumanlarning paydo bo'lish zaruriyati ham o'zgarib boradi. Yirik shaharlarda turar-joy tumani va kichik tumanlari shakllantirish uchun etarlicha shart-sharoiti mavjuddir. Kichik shaharlarda, aksincha, bunday sharoitlar yo'q bo'lib, turar-joy tumani va kichik tuman funksiyalari o'zaro qo'shib ketadi.

Turar-joy tumanlarini shakllantirish shahar kattaligiga, uning aholi joylashgan (selitebnaya) hududi rejaviy tuzilishiga, uning shakliga, shaharda asosiy ish joylarini joylashtirishga, transport xizmati ko'rsatishiga, jamoat markazlari va ko'kalamzorlar tizimiga bog'liqdir.

Aholi yashash tumanlarini loyihalash shahar bosh tarxi asosida amalga oshiriladi. O'z navbatida shahar bosh tarxida funksional qismlarga ajratish tizimi hal qilingan bo'lishi, aholi joylashgan hududning o'rni, rejaviy tumanlarning chegaralari, magistral ko'chalar tizimi belgilangan bo'lishi, umumshahar markazini joylashtirish o'rni, ko'rinishining o'rtacha qavatli ko'rsatilgan bo'lishi lozim.



Yirik shahar yashash hududining sxemasi.

Kichik shaharlarda aholi joylashgan hudud (selitebnaya) amalda turar- joy tumaniga tengdir. Bu holatda shahar markazi turar-joy tumani markazi bilan birlashib ketadi. Yirik shaharlarda bir nechta turar-joy tumanlarini birlashtiruvchi hududiy tuzilmalar ham shakllanishi mumkin.

Ayrim hollarda ular o‘z sanoat hududlariga ham ega bo‘lishlari mumkin. Ularning eng yiriklari «rejaviy tuman» deb ataladi. U shaharning katta bir qismi bo‘lib, aholisi 300-700 ming kishini tashkil etadi.

Turar-joy tumanlarida aholining turmushi va dam olishi uchun kerakli gigienik

sharoit yaratilishi lozim. Bularga: turar-joy binolari va jamoat tashkilotlariga quyosh nurining bevosita tushishi, shamollatilishi, havo musaffoligi, piyodalar va transport harakatlarining bir-birlaridan ajratilishi, shahar shovqinining kamaytirilishi va boshqalar.

Turar-joy tumanlari o'z navbatida bir nechta (4-6 ta) kichik tumanlarga (mikrorayonlarga) bo'linadi.

Kichik tuman – bu yashash hududining minimal strukturaviy birligi bo'lib, unda bolalarni tarbiyalash va o'qitish, umumiy ovqatlanish, savdo, xo'jalik-maishiy xizmat ko'rsatish, madaniy-oqartuv tadbirlari, jismoniy tarbiya va dam olish uchun dastlabki va ko'proq zarur bo'lgan muassasalar majmuasi bo'lishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Bu muassasalarga eng qulay va yaqin yo'l shahar yo'llari bilan kesishmagan holda, eng uzoq turar-joy qurilmasidan piyoda 5-7 daqiqadan oshmaydigan holda ta'minlanishi lozim. Bu esa xizmat ko'rsatish radiusi 400 m.ga yoki yo'l uzunligi 500 m.ga to'g'ri keladi.

Kichik tumanlarni shakllantirishning umumiy talablari va qoidalari hamda magistrallar oralig'i hududi o'lchamlari bilan kichik tuman maydonlarining nisbati bitta magistrallar oralig'i hududi ichida bir nechta 4-6 kichik tuman shakllantirish lozimligini belgilaydi

Kichik tuman hududi 20-30 ga bo'lib, aholisining soni esa 6-9 ming kishini tashkil etadi. Yuqori qavatli turar-joy binolari qurilgan yirik shaharlarda aholi soni 12-18 ming, ba'zi hollarda 20ming kishini tashkil etishi mumkin. Kichik tumanlar soni turar-joy tumanining o'lchamlariga va boshqa mahalliy sharoitlariga bog'liq. Mavjud rejaviy holatga bog'liq holda turar-joy tumani kichik tumanlar guruhi shaklida, yoki yiriklashtirilgan kichik tumanning yaxlit hududi shaklida loyihalanishi mumkin.

2. Hududni tabiiy shart-sharoitlar bo'yicha baholash: Hududni tahlil qilishning asosiy maqsadi - ko'rilayotgan hudud tabiiy shart-sharoitlari va resurslarining tahlil qilish va baholash orqali undan turli xil sohalarda foydalanishga yaroqliligini aniqlash: Shahar qurilishiga, qishloq va o'rmon xo'jaligiga, aholining ommaviy dam olishi uchun hududni tarhiy tashkil etishga bolgan talablarni aniqlashdir.

Tabiiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- geomorfologik shart-sharoitlar;
- geologik tuzilish;

- gidrogeologik shart-sharoitlar;
- mineral xom ashyo resurslari;
- injener-geologik shart-sharoitlar;
- iqlimiy shart-sharoitlar;
- gidrologik shart-sharoitlar;
- tuproqlar;
- o'simlik va hayvonot dunyosi;
- landashft tavsifi.

Geomorfologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda relefning morfologik va morfometrik elementlariga alohida e'tibor beriladi: shakliga, genetik turiga, absolyut va nisbiy balandliklariga, erosiya bolinish chuqurligi va qalinligiga, qiyaliklarga. Bu xususiyatlar tahlilidan so'ng hududni u yoki bu foydalanish uchun qulayligi bo'yicha tumanlashtirish o'tkaziladi. Masalan, tumanni rejalashtirish tuzihmalarida shaharsozlik, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanishga, tumanni rejalashtirish loyihalarida esa sanoat va fuqaro qurilishi, qishloq va o'rmon xo'jaligi, ommaviy dam olish va tabiatni muhofazalash uchun eng qulay tumanlar aniqlanadi. Bunda asosiy informatsiya manbai bolib maxsus institutlar, vazirliklar va idoralar tomonidan tuziladigan topografik, aero- va kosmik, geomorfologik va injener-geologik materiallar xizmat qiladi.

Hududning *geologik tuzilishini* ko'rib chiqqanda murakkab geologik tuzilishga ega, neotektonik va seysmik faol, tuzilish xususiyatlari hamda stratigrafik va litologik majmualar quvvati va tarqalish qonuniyatlari bo'yicha tumanlar ajratiladi. Bunda, seysmik tumanlarda seysmik holatning tahliliga, ohaktoshlar tarqalgan tumanlarda karst jarayonlarining paydo bo'lishi va xarakteri, ularning intensivligiga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun geologiya fondining tektonik, geomorfologik, seysmik-geologik kartalaridan foydalaniladi.

Gidrogeologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda yer osti suvlarining suv eltuvchi gorizontlari, ularning tarqalishi, chuqurligi, suvga to'yinganligi, kimyoviy tarkibi va agressivligi kabi tavsiflari beriladi. Bundan keyin ko'rib chiqilayotgan hudud yer osti suvlari bilan ta'minlanganligi, ekspluatatsiya zaxiralari va ularni kommunalmaishiy, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash maqsadlari uchun baholash nuqtai nazaridan tumanlashtiriladi. Har bir sanab chiqilgan

foydalanish turi uchun yer osti suvlarining u yoki bu tavsifnomasi birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, qurilish maqsadlari uchun yer osti suvlarining chuqurligi va agressivligi; qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun - sho'rlik darajasi, suv bosimi, chuqurligi; sog'liqni saqlash maqsadlari uchun esa – suvlarning davolash va termal xususiyatlari eng ko'p ahamiyatga egadir. Kerakli ma'lumotlarni geologik fondan, hududiy geologik boshqarmalardan, suv xo'jaligi institutlaridan olish mumkin. Bu ma'lumot regional vahavza kartografik materiallari sifatida beriladi.

Mineral xomashyo resurslari sanoat ishlab chiqarishi yoki kurort xo'jaligini rivojlantirish bazasi sifatida tavsiflanadi. Ularning tarqalish maydonlari esa tarhiy cheklanish sifatida xizmat qiladi, ishlab boiingan maydonlar rekultivatsiya va xo'jalik maqsadlari uchun keyinchalik foydalaniladigan hududlar sifatida qaraladi.

Fiziologik-iqlimiy shart-sharoitlar tahlili yilda quyoshli kunlar davomiyligi, shamol tezligi (3 m/s va 5 m/s, shtil davrining davomiyligi), o'rtacha yillik havoning nisbiy namligi hamda temperaturasi 15°C va undan yuqori (yozda) hamda -10°C va past (qishda) kunlar. qulay kunlar qaytarilish soni, ob-havo rejimining kontrastligi, o'rtacha havo haroratining sutkalik etakchi amplitudalarini o'z ichiga oladi.

Agroiqlimiy baholash hududning issiqlik va namlik bilan taminlanganlik tavsifnomasini, ekstremal ob-havo sharoitlarini hisobga olgan holda. o'z ichiga oladi. Issiqlik rejimi qishloq xo'jalik ekinlarining vegetatsiya davridagi aktiv haroratlar summasi (o'rta kenglik - 10°C dan yuqori haroratlar summasi, subtropik kenglik - 15°C dan oshiq), vegetatsiya davridagi absolyut min va max $T^{\circ}\text{C}$, muzlatadigan va qurg'oqchil kunlar qaytalashi davomiyligi bilan tavsiflanadi. Namlik bilan ta'minlanganlik o'rganish davridagi issiqlik va namlikning nisbati orqali aniqlanadi. Bundan tashqari yog'inlarning tavsifl, ularning davomiyligi va qisqa muddat ichidagi maksimal kattaligini hisobga olmoq lozim. Tumanning agroiqlimiy potensialini aniqlashda qum bo'ronlari, do'l ko'rinishidagi yog'inlar, dovullar va boshqa tabiiy omillarni hisobga olmoq lozim. Yuqoridagi iqlimiy omillarni o'rganish asosida agroiqlimiy tumanlashtirish o'tkaziladi. Agroiqlimiy sharoitlarni o'rganishni «Agroiqlimiy resurslar» axborotnomasi orqali amalga oshirish mumkin.


Gidrografiya tarmog'ini tahlili daryo, ko'l va suv omborlarining fizik-kimyoviy tavsifnomasini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Bunda daryolarning uzunligi, suv

omborlari va kollarning suv yuzasi maydoni, suv yig'ish maydoni, oziqlanish sharoitlari va suv xarji, oqim tezligi, toshqinlar davomiyligi, suvning kimyoviy tarkibi o'rganiladi. Tahlil nafaqat butun hudud, balki alohida regionlar (tuzilmalarda), daryo, ko'l va suv omborlari havzalarida (loyihalarda) o'tkaziladi. Detallashtirib qaraganda suv resurslari manbalarining va maishiy ahamiyatidagi suv havzalarining qo'shimcha tavsifnomalari hisobga olinmog'i lozim: bir vaqtda mumkin bolgan suv olish hajmi, suv olish qismining ta'sir doirasining kengligi va uzunligi. Olingan natijalarni qayta ishlash orqali hududni suv bilan ta'minlanganlik va tumanning suv resurslarini turli xalq xo'jalik sohalari foydalanish darajasini baholash mumkin boladi.

Tuproq - o'simlik qatlamini tavsiflaganda asosiy diqqat bu resurslardan ratsional foydalanish va ularni saqlashga qaratilmog'i lozim. Masalan, tuproq qatlamini baholaganda tuproqning asosiy turlari va ularning tarqalish hududlari ajratiladi. Bunda ularning eroziya jarayonlariga duchor bo'lganligi, asosiy xo'jalik foydalanish turlari bo'yicha sifat va agroiqtisodiy baholash; shaharsozlik va rekreatsion baholashda esa tuproqlarning ko'kalamzorlashtirishga yaroqliligi hisobga olinadi.


Landshaftlar ularning aholi dam olish va inson faoliyati natijasida buzilishi nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Quyidagi landshaftlar - tabiatning bebaho hududlari hamda xo'jalik faoliyati bilan eng ko'p ishdan chiqqan landshaftlar, ularni qayta tiklash va madaniylashtirish maqsadida, ajratiladi. Kerakli materiallar landshaft xaritalaridan, universitet va institutlar geografiya kafedralaridan, tabiat muhofazasi jamiyatlaridan olinadi.

Hududlarni tabiiy shart-sharoitlar bo'yicha baholash asosiy xo'jalik yuritish turlari uchun amalga oshiriladi. Tumanni rejalashtirish tuzilmalarida-shaharsozlik, qishloq xo'jaligi va ommaviy dam olish uchun baholansa, tumanni rejalashtirish loyihalarida esa sanoat va fuqaro qurilishi. qishloq va o'rmon xo'jaligi, ommaviy dam olish va tabiatni qo'riqlash sohalari uchun baholash amalga oshiriladi.



18-rasm. Tumanni rejalashtirish loyihasi. Hududni tabiiy shartsharoit bo'yicha baholash: 1-daryolar; 2-o'rmonlar; 3-qazilma boyliklar; 4-qulay; 5-cheklangan qulay; 6-noqulay hududlar.

3. Hududni antropogen omillar bo'yicha baholash: Hududni foydalanish xarakteriga muhim tabiiy omillardan tashqari, inson faoliyati bilan bog'liq antropogen omillar ham ta'sir ko'rsatadilar. Ular ba'zan ta'sir kuchi bo'yicha tabiiy omillar bilan bahslashsa, ba'zan ularni ortda qoldirish mumkin. Antropogen omillarga: hududning sanitar-gigiyenik holati; uning transport va injenerlik tarmoqlari va inshootlari bilan ta'minlanganligi; asosiy sanoat, m a'muriy-xo'jalik va madaniy markazlarning transport yetarliligi; tabiatni muhofaza qilish talablari hamda ba'zi tabiiy va madaniy landshaftlarning m e'moriy-estetik qimmatini kiradi (19-rasm).



19- rasm. Tumanni rejalashtirish loyihasi. Hududni tarhiy sharoit bo'yicha qurilish uchun baholash:

1-aholijoylari; 2-temiryo'llar; 3-avtomobilyo'llari; 4-daryo va suv omborlari; 5-o'rmonlar; 6-ishlayotgan konlar; 7-qulay; 8-cheklangan qulay; 9-noqulay hududlar.

Hududni transport xizmati bilan ta'minlanganlik darajasi uning turli maydonlarini mavjud va qurilayotgan transport tarmoqlaridan uzoq-yaqinligi orqali baholanadi. Injenerlik ta'minoti – yangi iste'molchilarni ratsional qo'sha olish radiusiga ega bolgan, mavjud va qurilayotgan bosh inshootlar hamda bir yoki bir necha injenerlik inshootlari turlari bilan ta'minlangan hudud maydonlari orqali baholanadi.

Yangi hududlarning sanitar-gigiyenik holati tadqiq qilinadi. Suv manba'lari, liavo atmosferasi, suv havzalari, tuproqlar va o'rmon massivlarining ifloslanish xarakteri va intensivligi o'rganiladi.

Atmosferani ishlab chiqarish gazlari bilan zaharlaydigan, suv havzalari tozalanmagan yoki kam tozalangan oqava suvlar, hududni sanoat chiqindilari bilan ifloslantirgan korxonalar aniqlanadi. Tumanda joylashgan mineral suvlar zaxiralari, davolovchi balchiqlar, toza suv havzalari, plyajlar davolash-soglomlashtirish maqsadlari uchun alohida o'rganiladi.

Foydali qazilmalar zaxiralari aniqlanadi: ularning xarakteri, o'rganilganlik darajasi, joylashuvi va ishlab chiqarish uchun imkoniyatlari belgilanadi. Hududni atropogen omillar bo'yicha baholash ham asosiy xo'jalik yuritish faoliyatlari asosida amalga oshiriladi: *-Sanoat va fuqaro qurilishi* uchun hududni transport xizmati bilan ta'minlanganligi, sanitar-gigiyenik shart-sharoitlar bo'yicha, tabiatni muhofaza qilish sharoitlari, aholi joylariaro madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish markazlarigacha bolgan masofa, arxitektura-landshaft shart-sharoitlari bo'yicha;

-Qishloq xo'jaligi uchun - transport xizmati bilan ta'minlanganlik, tabiatni muhofaza qilish sharoitlari, aholi joylariaro madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish markazlarigacha bolgan masofa;

- O'rmon xo'jaligi uchun - hududni transport bilan ta'minlanganligi tabiatni muhofaza qilish sharoitlari bo'yicha;

-Ommaviy dam olish uchun - arxitektura-landshaft sharoitlari bo'yicha, tabiatni muhofaza qilish sharoitlari, hududni transport bilan ta'minlanganligi, asosiy shaharlargacha bolgan masofa bo'yicha. Har bir xo'jalik yuritish faoliyati uchun tuzilgan chizmada baholovchi tumanlar ajratiladi, ularning chegarasi bolib u yoki bu omilning yetakchi hududiy tavsifnomasi xizmat qiladi (magistrallaming, temir yo'l

stansiyalarining ta'sir zo'nasi, sanitar-himoya zonalari, transport yetarliligi va h.k).

4. Hududni kompleks baholash.

Tumanni rejalashtirishda hududni baholash xususiy yoki kompleks bolishi mumkin. Hududni xususiy baholash uning xo'jalik foydalanish biror-bir turi manfaatidan, kompleks baholash esa barcha xo'jalik yuritish turlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'tkaziladi. Tumanni rejalashtirishda hududni kompleks baholash deganda tumanni butun hududning alohida maydonlarida asosiy xo'jalik yuritish turlarini (qurilish, ommaviy dam olish, qishloq va o'rmon xo'jaligi) tabiiy va antropogen omillari kompleksi bo'yicha joylashtirishga qulayligini nisbatan tarhiy baholash tushuniladi. Tumanni rejalashtirish tuzilmalarida hududni kompleks baholashning vazifalari loyihalashning shu bosqichida yechilishi lozim bolgan muammolar bilan belgilanadi va ular quyidagilardan iborat:

-tanlangan xo'jalik foydalanish turlarini rivojlantirish uchun yoki alohida yirik sanoat, fuqaro va boshqa komplekslarni, texnik kommuniyakatsiyalar va inshootlarni joylashtirish uchun hududiy resurslarni topish;

-u yoki bu foydalanish turi rivojlanishini cheklovchi yoki qiyinlashtiruvchi hududning xususiyatlarini aniqlash;

-tumanni rejalashtirishning asosiy vazifalarini viloyat hududida bajarilishini ta'minlovchi xo'jalik yuritish turlarini belgilash.


Tumanni rejalashtirish loyihalarida hududni kompleks baholash tegishli tumanni rejalashtirish tuzilmalarida olingan natijalarga asoslanmog'i lozim. Bunda ularni detallashtirilib, chuqurlashtirilib va rivojlantirib, tumanning tarhiy ehtiyojlari uchun loydanilishi kerak. Tumanni rejalashtirish tuzilmalarida xo'jalik yuritish turlari bo'lib sanoat va fuqaro qurilishi, qishloq, o'rmon va baliq xojaligi, ommaviy dam olish, tabiat muhofazasi, tarixiy va madaniy yodgorliklarni qo'riqlash xizmat qiladi.

Tumanni rejalashtirish loyihasida hududdan foydalanish tulari bo'lib anchagina mayda kategoriyalar — fuqarolik qurilishi, san'at qurilishi, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, o'rmon xojaligi, baliqchilik, qisqa va uzoq dam olish, tabiat muhofazasi, tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash , tumanni rejalashtirish tuzilmalarida esa kompleks baholash obykti bo'lib viloyat hududi xizmat qiladi.

Xo'jalik funksiyasi umrbod belgilab qo'yilgan hududlar (qo'riqxonalar,

buyurtmaxonalar, tarixiy va madaniy yodgorliklar to'plangan hudud, I guruh o'rmonlar).

Tumanni rejalashtirish loyihalarida kompleks baholash obyekti bolib, odatda, tumanni rejalashtirish tuzilmasi doirasidagi birorta funksional qism (yoki bir necha qismlar) xizmat qiladi (20-rasm).



20- rasm. Tumanni rejalashtirish tuzilmasida kompleks baholash.

Hududni kompleks baholash darajasi.

Qurilish uchun: 1-qulay; 2-cheklangan qulay; 3-noqulay;

Dam olish uchun: 4-qulay; 5-cheklangan qulay; 6-noqulay;

Qishloq xo'jalik uchun: 7-qulay; 8-cheklangan qulay; 9-noqulay;

O'rmon xo'jaligi uchun: 10-qulay; 11-cheklangan qulay, 12-noqulay.

Baholash tumanlarini (maydonlarini) ajratish va tegishlicha hududni u yoki bu omilning qandaydir xossasi bo'yicha baholash shu xossani natural ko'rsatkichi bo'yicha baholash orqali o'tkaziladi. Bu ko'rsatkichlar har bir baholash tumanining har bir omilining har bir xossasi bo'yicha o'rnatiladi. Natural ko'rsatkichlar intervallarining chekka kattaligidan kelib chiqib baholash tumanlarining chegaralari ajratiladi.

Natural ko'rsatkichlar bo'yicha baholash va baholash tumanlarini (maydonlarini) ajratish mezonlari bo'lib baholash omillarining natural faktik ko'rsatkichlarini normativ darajaga keltirish uchun ketgan xarajatlar qabul qilinadi. Bunda normative deb shunday natural ko'rsatkichlarga aytiladiki, ular shu xududda u yoki bu xo'jalik yuritishni eng effektiv -ishlashini ta'minlaydi. Shunga ko'ra qulay hududlarga shunday natural ko'rsatkichli, u yoki bu xo'jalik sohasini ko'p bo'lmagan injenerlik tadbirlari va qo'shimcha kapital sarfisiz ishlashini ta'minlaydigan joylar kiradi. Cheklangan qulay joylarga ularni o'zlashtirishga anchagina qimmat injenerlik

tadbirlari o‘tkazish lozim bolgan natural ko‘rsatkichli hududlar to‘g‘ri keladi. Noqulay joylarga natural ko‘rsatkichlarini normative darajaga keltirish uchun juda qimmat injenerlik tadbirlarini o‘tkazish talab qiladigan hududlar kiradi. Hududni kompleks baholash oddiy va differensial balli, qiymat bo‘yicha va qo‘shma baholash asosida o‘tkazilishi mumkin. Eng aniq‘i - xo‘jalik yuritishi turi bo‘yicha har bir ko‘rib chiqilayotgan omil bo‘yicha nisbiy qimmatlashuvni hisoblashga asoslangan qiymatli baholashdir.

Ballar bo'yicha baholaganda hududning u yoki bu xo‘jalik yuritish faoliyati uchun qulayligi ranglarga ajratilgan ballarni qo‘yish orqali ballar bo‘yicha amalga oshiriladi. Ekspert yo'li bo'yicha baholashda (kamida 20 ta ekspert bolishi kerak) u yoki bu xo‘jalik faoliyati uchun shart-sharoitlar umumiy kompleksdagi omillarni ranglarga ularning muhimlik darajasi bo‘yicha ajratilib, alohida omillar ballar bo‘yicha baholanadi.

Integral baholash ballar, ekspert yoki qiymati bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Qiymat bo'yicha baholash konkret sharoitlarda u yoki bu xo‘jalik yuritish faoliyati uchun har bir omil bo‘yicha hududiy o‘zlashtirishdagi qiymatning nisbiy oshishini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Buning uchun 1 ga hududni o‘zlashtirishga ketadigan xarajatlar normativ darajaga nisbatan aniqlanadi. Kompleks baholash orqali hududni xo‘jalik o‘zlashtirish va qurilish uchun rezerv maydonlari aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 35.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
- 36.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va qarori.
- 37.O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
- 38.A.Z. Himmatovich “O‘zbekiston shaharlarilandschaft muhiti dizaynnini kompleks tashkil etish”. Monografiya. Toshkent-2022 y.

- 39.D.U. Isamuhamedova “Shaharsozlik va landshaft arxitekturası” o’quv qo’llanma Toshkent-2019
- 40.Qadabayeva Sh.S. “Arxitektura va shaharsozlik asoslari” II-qism. O’quv qo’llanma. Toshkent-2023.
- 41.Д.У. Исамухамедова, М.К.Ахмедов , М.А.Талипов. ШАҲАРСОЗЛИК. I Қисм. Тошкент – 2019.
- 42.Д.У. Исамухамедова, М.К.Ахмедов , М.А.Талипов. ШАҲАРСОЗЛИК. II Қисм. Тошкент – 2019.
- 43.S. A. Qodirova, N. X. Mirzaahmedovaю “Arxitekturaviy loyihalash”. O’quv qo’llanma. Toshkent-2021.

3-4-KO’CHMA MASHG’ULOT: SHAHAR, TUMAN VA QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINING REJAVIY YECHIMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Kalit soʻzlar: Shaharsozlik, Shaharsozlik obyekti, Shaharsozlik talablari, Shaharning rejaviy tuzilmasi, Bosh reja Kichik arxitekturaviy shakllar Aholi joylashuvi, Aholi yashash joylarining regional tizimi, Aholi yashash joylarining guruhli tizimi, Oriyentatsiya, Tumanni rejalashtirish, Turar-joy tumani, Tumanni rejalashtirish, Urbanizatsiya, Hududiy mavqelar (darajalar).

Aholi joylashishining turlari ishlab chiqarishning ixtisoslashishiga va uning tarmoqlarining kooperatsiyasiga bogʻliq. Aholi joylashishining turlari, shuningdek aholi yashash joylari iqtisodiy bazasining xususiyatlari va ularning kattaligi bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda ham aholi joylashishining ikkita asosiy turini ajratish mumkin:


- shahar turi — shaharlar va shahar turidagi qishloqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bogʻliq; – qishloq turi – turli qishloq aholi yashash joylarining rivojlanishi bilan bogʻliq. Har bir asosiy koʻrinish ichida iqtisodiy, tabiiy, demografik va boshqa oʻziga xos sharoitlarga bogʻliq holda bir qator turlarini ajratish mumkin. Aholi joylashishining shahar koʻrinishi ichida aholining eng yirik, yirik va katta shaharlarda toʻplanishi bilan ajratib turadigan jamlangan yoki zichlashgan turi hamda aholining koʻpchilik qismi oʻrta, kichik shahar va shahar turidagi qishloq joylariga tarqalgan turlari boʻladi. Aholi joylashishining shakli aholi yashash joylari turining zichligi, maʼlum bir hudud chegarasida oʻzaro joylashishi xususiyatlariga hamda aholi yashash joylari orasidagi aloqa turlarining rivojlanish darajasiga bogʻliq. Aholi yashash joylari oʻrtasida aloqalarning turli koʻrinishlari shakllanmoqda. Aholi yashash joylarining oʻzaro joylashish xususiyatlari va ular orasidagi funksional aloqalar rivojlanishi aholi joylashishining ikkinchi alomatini – ularning avtonom (ART) yoki guruh (AGT) shaklga mansub ekanligini belgilaydi. Aholi yashash joylarining regional tizimida (ART) aholi yashash joylari bir- birlaridan uzoq

joylashgan, ular o'rtasidagi kommunikatsiyalar rivojlanmagan, transport aloqalari kuchsiz rivojlangan, aholi yashash joylari bir-biridan ajralgan holda rivojlanadi, funksional aloqalar kuchsiz va turg'un emas. Aholi yashash joylarining guruhli tizimida (AGT) esa, ular guruh tashkil etadilar. Bir-birlari bilan rivojlangan kommunikatsiya turi va turg'un funksional aloqalar bilan bog'langandir. Aholi joylashishini guruhli tizimi yirik va eng yirik, hamda tumanlararo va viloyat markazlari funksiyalarini bajaruvchi o'rta va katta shaharlar ta'siri zonasida shakllanadi. Aholi joylashishining guruhli tizimida ularning markazigacha transportda yetib borish vaqti 1,5-2 soatni tashkil etadi. Markaz shaharning kattaligiga qarab aholi joylashishining guruhli tizimining uchta turini farqlashadi: -yirik — markaz shahar aholisi 500 ming kishi;

- o'rtacha — markaz shahar aholisi 100-500 ming kishi;
- kichik — markaz shahar aholisi 50-100 ming kishi.


Mamlakatimiz hududida uzoq muddat davom etgan mehnatning bo'linishi jarayonida aholi joylashishining turlari va shakllari tarixan shakllandi. O'zbekistonga xos xususiyati shundan iboratki, aholi joylashuvi jarayonida intensiv shaharsozlik o'zlashtirish qismlari(vohalar) shakllandi, u yerda aholi joylari hududlari, mehnat joylari, xizmat ko'rsatish markazlari, rekreatsion hududlarni o'zaro bog'liq rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud. Aholi joylarining kuchayib borayotgan makoniy integratsiyasi jarayonlari natijasida aholi joylashuvining tayanch karkasi, yagona hududiy funksional organizm aholi joylashuvi tizimi shakllanadi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi aholi joylashuvi shakli va shaharsozlik loyihalash obyektlarini murakkablashuviga olib kelgan. Bu yana alohida shahar va qishloq joylari orasidagi iqtisodiy, mehnat, madaniy-maishiy va boshqa aloqalarni intensivlashtirish natijasida ham yuzaga keladi. Bu esa hayot muhitini nafaqat alohida aholi joylari chegarasida, balki rivojlangan shaharsozlik tuzilmalari — aholi joylashuvi tizimlari doirasida takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.



2.1-rasm. Aholi yashash joylarining guruhli sistemasini loyihalash metodikasi.

1 – funksional model; 2 – hududni baholash; 3,4 – fazoviy hududlarga ajratish modellari (sektorli, kombinatsiyalashgan); 5,6,7 – aholini joylashtirish variantlari (chiziqli, markazlashgan, guruhli); 8 – arxitekturaviy-rejaviiy yechim.



2.2-rasm. Katta shahar asosida shakllangan aholi joylarining guruhli tizimiga sxematik misollar: 1 – yirik shahar bilan o‘zaro bog‘langan aholi yashash joylari; 2 – yirik shahar ta’siriga tortiluvchi aholi joylari.

Subregional va regional aholi joylashuvi tizimlari ancha katta hududlar doirasida (viloyat, iqtisodiy tuman, respublika) shakllanib, O‘zbekiston hududida yagona aholi joylashuvi tizimini tashkil etadilar.

1 Aholi joylashuvi va tabiiy muhit

Aholi joylashishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar:

- iqlim, tuproq va gidrogeologik sharoit;
- sanoat ishlab chiqarishi uchun baza hisoblangan foydali qazilmalar va yoqilg‘i-energetika resurslari;
- transport kommunikatsiyalarining rivojlanishini belgilab boruvchi tabiiy shakl.

Insonlar hayoti va mehnatiga ta’sir etuvchi tabiiy iqlim omillari katta ahamiyat kasb etadi (harorat, shamol va namlik, ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik, yer reliefi, qurilishning geologik sharoitlari, seysmik holat, abadiy muzlik, sel, zamin cho‘kuvchanligi va hokazolar).

Yer yuzasida aholining dastlabki joylashishi ibtidoiy jamoa bilan tabiiy muhit O‘rtasidagi o‘zaro aloqa bilan belgilangan. Tabiiy sharoitlarning qulayligi qadimgi shahar madaniyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi yirik sug‘oriladigan yerlar tizimini shakllantirish imkonini bergan. Bunday yerlar tizimi Misrda Nil daryosining quyi oqimida, Messopotamiyada Tigr va Yefrat daryolari quyi oqimida, Hindistonda Hind va Ganga daryolari sohillarida vujudga kelgan.

Aholining cheklangan hududda to‘planishi aholi joylashishining tabiiy sharoitlarga yangicha bog‘liqliklarini belgiladi. Shaharlar to‘planishi yirik sun’iy muhit massivlarini tabiiy muhitga qarama-qarshi qilib qo‘ydi. Odamlarni sun’iy muhit ichida cheklab, ularni; tabiatdan ajratib qo‘ydi. Odamlarning atrof-muhitga kuchli ta’siri vujudga keldi va uning tabiiyligi yo‘qola boshladi. Aholi yashash joylari tabiiy landshaftga majburan bo‘ysungan shakllarni egalladi. Shu bilan bir qatorda, texnikaning taraqqiyoti natijasida relefni qayta o‘zgartirish va

gidrogeologik sharoitlarga kuchli ta'sir ko'rsatish boshlandi. Lekin tabiatga bunday ta'sir ko'rsatishning maqsadga muvofiq keladigan chegarasi bor.

2 Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili. Hududni tabiiy shart-sharoitlar bo'yicha baholash

Hududni tahlil qilishning asosiy maqsadlari: undan turli xil sohalarda foydalanishga yaroqliligini aniqlash: shahar qurilishiga, qishloq va o'rmon xo'jaligiga, aholining ommaviy dam olish uchun 4 hududni tarhiy tashkil etishga talablarni aniqlash.

Tabiiy omillarga quyidagilar kiradi:

- gidrogeologik shart-sharoitlar;
- mineral xom-ashyo resurslari;
- injener-geologik shart-sharoitlar;
- iklimiy shart-sharoitlar;
- gidrologik shart-sharoitlar;
- tuproqlar;
- o'simlik va hayvonot dunyosi;
- landshaft tavsifi.

Geomorfologik shart-sharoitlarni o'rganganda relefning morfologik va morfometrik elementlariga: shakliga, genetik turiga, absolyut va nisbiy balandliklariga, erozion bo'linish chuqurligi va qalinligiga, qiyaliklarga alohida e'tibor beriladi. Topografik, geomorfologik va injener-geologik syomkalar materiallari asos bo'lib xizmat qiladi.

Geologik tuzilishi — hududning neotektonik aktivligi va seysmikasi, stratigrafik va litologik komplekslarning borligi, ularning tuzilishi, yoyilish qonuniyatlari va quvvati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil uchun tektonik geomorfologik, geologik va boshqa geologiya fondidagi materiallardan foydalanadi.

Gidrogeologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda yer osti suvlarining suv eltuvchi gorizontlari, ularning tarqalishi, chuqurligi, suvga to'yinganligi, kimyoviy tarkib va agressivligi kabi tavsifi beriladi.

Mineral xom ashyo resurslari sanoat ishlab chiqarish yoki kurort xo'jaligini rivojlantirish bazasi sifatida tavsiflanadi, ularning tarqalish maydonlari esa tarhiy cheklanish sifatida xizmat qiladi. Bunda ishlab bo'lingan maydonlar rekultivatsiya va xo'jalik maqsadlari uchun keyinchalik foydalaniladigan hududlar sifatida qaraladi.

Sanoat ahamiyatidagi konlarning qisqacha geologik-iqtisodiy tavsifini keltirishda (joylashishi, turi, darajasi va o'zlashtirish kelajagi, ishlab chiqarish usuli, tarqalish maydonlari va h.k.) geologiya vazirligining, tarmoq idoralarining materiallaridan foydalaniladi.

Injener-geologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda injener-geologik hududlashtirish ko'rsatkichlarining: geomorfologik, geologo-litologik, gidrogeologik, tuproqlarning tarkibi, fizik-mexanik va filtratsion xususiyatlari, ularning yuk ko'tarish qobiliyatlari, zamonaviy geologik va injener-geologik protsesslar va holatlar, ularning tarqalishi va rivojlanish intensivligining tavsifi keltiriladi. Kompleks geologik-gidrogeologik ekspeditsiyalar materiallari, geologik fond materiallari asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqlimiy shart-sharoitlar umumiqlimiy, qurilish-iqlimiy, fiziologik-iqlimiy va agroiqlimiy tavsiflarni o'z ichiga oladi.

Umumiy iqlimiy sharoitlarni tavsiflaganda havoning harorati va namligi, yog'ingarchilik, shamollar, quyosh radiatsiyasi, absolyut maksimum va minimum haroratlarning yillik amplitudasi, eng issiq va eng sovuq oylarning o'rtacha harorati, oylik o'rtacha havoning absolyut va nisbiy namliklari to'g'risidagi ko'rsatkichlar keltiriladi. Bundan tashqari yilning issiq va sovuq vaqtlaridagi o'rtacha yog'ingarchilik miqdori, yil davomidagi yog'ingarchilikli va qorli kunlar soni, qor qoplarning balandligi, shamolning maksimal tezliklari keltiriladi.

Qurilish-iqlimiy sharoitlarni o'rganganda tegishli qurilish me'yorlari ko'rsatmalariga ("Qurilish klimatologiyasi va geofizikasi") amal qilish lozim.

Hududni fiziologik-iqlimiy baholaganda sanitar-iqlimiy zonalarga bo'lish yoki iqlimiy-rekreatsioon baholash uslublaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Agroiqlimiy baholash hududni issiqlik va namlik bilan ta'minlanganligini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Issiqlik bilan ta'minlanganlik aktiv vegetatsiya davridagi (havoning o'rtacha kunlik harorati 10 S dan yuqori) haroratlar yig'indisi bilan o'lchanadi. Namlik bilan ta'minlanganlik esa namlanish darajasi va gidrotermik koeffitsiyent bilan baholanadi. Hududni agroiqlimiy baholaganda "Agroiqlim resurslari" ma'lumotnomasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Gidrogeografiya tarmoqlari daryolarning uzunligi, suv omborlari va ko'llarning ko'zgu maydonlari, daryolarning suv yig'ish maydonlari, oziqlanish sharoitlari va suv sarfi, oqim tezligi, toshqinlar davomiyligi bilan tavsiflanadi.

Tuproqlar- ularning asosiy turlari va tarqalishi, errozion jarayonlar, sifat va agroiqtisodiy baholash bilan tavsiflanadi.

O'simlik va hayvonot dunyosi asosiy turlarining tarqalishi, o'simlik va hayvonlarning ekologik va sifat xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Landshaftlar ommaviy dam olish va turizmga estetik va kompozitsion xususiyatlari nuqtayi nazaridan mos kelishi bilan hamda ularning antropogen buzilganligi jihatlari bilan tavsiflanadi. Tabiatning bebaho go'shalari sifatida eng qimmatli yoki yovvoyi hayvonlarning jon saqlaydigan landshaftlar aniqlanib, keyinchalik qo'riqlanadigan joylarga aylantirish ko'zda tutiladi.

Hududlarni baholash asosiy xo'jalik yuritish turlari uchun amalga oshiriladi. Tumanni rejalashtirish tuzilmalarida: shaharsozlik, qishloq xo'jaligi va dam olish; tumanni rejalashtirish loyihalarida esa — sanoat va grajdan qurilishi, qishloq va o'rmon xo'jaligi, ommaviy dam olish va tabiatni qo'riqlash ishlab chiqiladi.

3 Tumanni rejalashtirishning asosiy masalalari

Tumanni rejalashtirish – iqtisodiy yoki ma'muriy tumanni kompleks hududiy-xo'jalik tuzilishini loyihalash va uning xalq xo'jaligi tarmoqlarini, shaharlar va qishloqlarni optimal joylashuvini hamda aholi mehnati va dam olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishni ta'minlovchi tarhiy tarkibni shakllantirishdan iboratdir.

Tumanni rejalashtirishning vazifasi – loyihalanayotgan tumanni hududiy-xo'jalik tuzilishini ratsional hal etish, ishlab chiqarish, shaharsozlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy yodgorliklarni saqlashni ta'minlovchi

me'moriy-tarhiy tarkibini va funksional qismlarga bo'lishni shakllantirish bunda tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslaridan kompleks foydalanish nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda tuman rejalashtirish bo'yicha loyiha ishlarining 2 turi shakllangan:

- tuman rejalashtirish tuzilmasi (sxema);
- tuman rejalashtirish loyihasi.

Tuzilma va loyiha — birinchi bosqich (5 yil), hisob vaqtiga (20 yil).

Tuman rejalashtirish tuzilmasi — viloyat, o'lkalar, avtonom respublikalar uchun bajariladi. 20-30 dan 200-300 ming km/kv gacha hududlarni qamrab olib 1: 100 000

yoki 1: 50 000 nisbatda bajariladi.

Tuman rejalashtirish loyihasi — viloyat, o'lkalar qismlari hamda ma'muriy bo'laklar uchun bajariladi. 1 dan 20-30 ming km/kv gacha hududlar uchun bajariladi 1: 25 000 dan 1: 50 000 gacha.

Tuman rejalashtirish tuzilmalari va loyihalari buyurtmachi tomonidan berilgan loyihalash topshirig'i asosida bajariladi va chizmalar, hamda tushuntirish xatidan iborat bo'ladi. Topshiriqda rejalashtirilayotgan hududda ishlab chiqarish kuchlari va aholi joylashishi rivojining kelajak yo'nalishi belgilanadi, bundan tashqari, loyihalash tartibi va muddati ko'rsatiladi. Tuman rejalashtirish loyihalari takliflari 20-25 yil muddatga ishlanadi va unda 2 bosqich: 1 bosqich va hisobga olingan muddat ajratiladi. Tuman rejalashtirish tuzilmasi va loyihalarining chizma xujjatlariga topografik xaritaga ishlangan loyihaviy tarh va boshqalar kiradi.

Yozma hujjatlar tarkibiga tushuntirish xati (bayonnomasi) kiradi va unda qabul qilingan rejaviy yechimlarning asoslanishi, hamda amalga oshirish tartibi va muddatlari keltiriladi.

Tuman rejalashtirish qat'iy ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastavval tuman rejalashtirish tuzilmasi ishlanadi, unda xalq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari ko'rsatiladi; hududlarni rejaviy va funksional tashkil qilish asoslanadi; ayrim hududlar o'rtasidagi aloqalar belgilanadi, viloyat muhandislik- texnik infratuzilmasini tashkil etish belgilanadi, so'ngra alohida ma'muriy tumanlar uchun tuman rejalashtirish loyihalari ishlanadi, ularda hududlarni batafsil tahlil qilish asosida sanoat va fuqaro qurilishi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va dam olish hududlari maydonlari ko'rsatiladi. Har bir tuman va uning tarkibiga kiruvchi aholi yashash joylari aholisining soni aniqlanadi, aholi joylashishi, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va ommaviy dam olish hududlari tizimlarini shakllantirish bo'yicha arxitektura-rejaviy takliflar ishlanadi; tabiatni muhofaza qilish va landshaftni yaxshilash takliflari beriladi.

Tuman rejalashtirish tuzilmalari va loyihalarining quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

- sanoat tumanlarini rejalashtirish;
- qishloq ma'muriy tumanlarini rejalashtirish;
- kurort tumanlari va hududlarini rejalashtirish;
- yirik shaharlar atrof qismini rejalashtirish.

Sanoat tumanlari. Sanoat iqtisodiy tumanlar shakliga kuchli ta'sir korsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Sanoat tumanlarini rejalashtirishning asosiy masalalari bu quyidagi omillarni hisobga olgan holda hududlarni tashkil etish:

- quvvat va xom ashyo manbalariga yaqinlik;
- mahsulot iste'molchilariga yaqinlik;
- mehnat kadrlari bilan ta'minlanganlik;
- yuk tashishni osonlashtiruvchi qulay transport aloqalari mavjudligi;
- aholi uchun turar-joy va ish joylari hududlari o'rtasida qulay aloqani ta'minlash;
- shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun shahar atrofi qishloq xo'jaligi bazasini tashkil etish;
- atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tadbirlar.

Qishloq xo'jaligi tumanlari. Ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jaligi tumanlarining tuman rejalashtirish loyihasi ularning ishlab chiqarish va aholi jolashishi xususiyatlariga bog'liq. Avvalo ushbu qishloq xo'jaligi tumanining yo'nalishi aniqlanadi (sabzavot yetishtirish, bog'dorchilik va h.k.). Ma'lum miqdorda tabiiy sharoitlar orqali belgilanadigan yo'nalish yer fondidan samarali foydalanishga yordam beruvchi tuman hududini qismlarga ajratish darajasida chuqurlashadi. Qishloq xo'jalik muassasasining turi ko'p jihatdan qishloq aholi joylari shakli va o'lchamlariga, sekin-asta shahar sharoiti bilan tenglashadigan yashash sharoitlarining qulayligiga ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida tuman rejalashtirish loyihasini amalga oshirishda asosiy masala tuproq va ekinzorlar sifatini yaxshilash uchun olib boriladigan tabirlardir (suvini ketkazish, sug'orish, o'rmon-himoya hududlarini, suv omborlarini tashkil etish).

Kurort tumanlari. Rekreatsion xizmat ko'rsatish va hududning rekreatsion tashkil etilishi bilan tuman rejalashtirish shug'ullanadi. —Rekreatsion xizmat ko'rsatish tushunchasi dam oluvchilar hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmat turlarini o'z ichiga oladi (mehmonxona, tomosha ko'rsatish, maishiy, ovqatlanish, transport xizmatlari).

Yirik shaharlar atrof qismi. Aholi joylashishi guruhli tizimining asosiy shakllaridan biri shahar aglomeratsiyalaridir. Ular o'zida yirik va katta shaharlar va ularga tortiluvchi kamroq aholisi bo'lgan shahar atrofi hududlarini jamlaydi. Shahar va shahar atrofi hududi o'rtasida mustahkam ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik aloqalar mavjud. Tuman rejalashtirish asosiy shaharlar va shahar atrofi hududlarining vazifaviy ahamiyati va rivojlanishini ko'rib chiqadi. Tuman rejalashtirishning muhim vazifalaridan biri — shahar mikroiklimini yaxshilash va aholining dam olishi uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida markaziy shahar atrofida ko'kalamzorlar halqasini hosil qilishdir. Halqaning bevosita shaharga tegib turuvchi qismi odatda, qurilmalardan holi bo'ladi va yashil barer vazifasini bajaradi. Uydan dam olish joyigacha maksimal 1 soat uzoqlikkacha radiusda shahar aholisining qisqa muddatli ommaviy dam olish joylari tashkil etiladi. Ko'kalamzorlar halqasining tashqi hududida uzoq muddatli dam olish joylari – san'atoriyalar, dam olish uylari, sayohat maskanlari va h.k.


4 Shaharning tarhiy tarkibi

Yangi shaharlar yaratish, shakllangan shaharlarni qayta qurish va yangilash bo'yicha turli shaharsozlik faoliyatining umumiy asosi bu – zamonaviy shaharning arxitekturaviy-rejaviy tarkibini shakllantirishdir.

Umumiy tushuncha sifatida, shaharning arxitekturaviy-rejaviy tarkibi – uning hududida sanoat, turar-joy, jamoat markazi va dam olish hududlarini joylashtirish, ular orasidagi aloqa tizimini yaratish va har bir hududni tarkibiy tashkil etishni bildiradi. Bularning barchasi yaxlit holda shahar rejasining arxitekturaviy kompozitsiyasini tashkil etadi.


Shaharning tarhiy tarkibini shakllantirishning muhim sharti avvalo asosiy funksional hududlar – aholi yashash va sanoat hududlariga bog'liq holda uning kelajakda rivojlanishini hisobga olishdir. Agar shahar aholi joylari guruhli tizimining tashkil etuvchisi sifatida qaralsa, bu shaharning kelajakda rivojlanishini hisobga olish tumanni rejalashtirishdan boshlanadi. Shaharning asosiy hududlarini rivojlantirish qo'shni shaharlar rivojlanishiga xalaqit bermaydigan va ular bilan hududiy qo'shib ketmaydigan yo'nalishda amalga oshiriladi. Shaharning kengayishi uchun maxsus hududlar ajratiladi. Shaharni tashkil etuvchi asosning kengayishi taxminlari, bir kishiga turar-joy maydoni me'yorining o'sishi, tabiiy-iqlimiy omillar ta'siri, shaharning iqtisodiy-geografik joylashishi, uning ma'muriy-madaniy va ilmiy ahamiyatidan kelib chiqib, ushbu hududlarning o'lchamlari va shaharning umumiy rejaviy tuzilishidagi o'rni aniqlanadi. Shaharning asosiy hududlari uchun kelajakda talablarning me'yorlari mavjud. Ular ming kishi hisobiga aniqlanadi. Shaharning asosiy qurilish massivi ichida barcha qurilish turlari uchun hudud 15-20 ga/ming kishi, yashash hududi uchun 10-12 ga/ming kishi hisobida ajratiladi.

Amaliyotda shaharning asosiy hududlarining bir nechta o'ziga xos hududiy-fazoviy rivojlanish tizimi shakllandi. Bular: sektorli, parallel, ikkita sanoat-yashash majmualari va aholi joylarining guruhli tizimidir.



2.3-rasm. Shaharning asosiy qismlari hududiy-makoniyl rivojlanish chizmasi:
a – sektorli; b – parallel; v – ikkita ishlab chiqarish aholi yashaydigan komplekslar bilan; g – aholi joylarining guruhli tizimida.

Mavjud shaharlarning kelajakda rivojlanish tizimi ko‘p jihatdan shaharning tarixiy shakllangan tarkibi bilan belgilanadi. Yangi shaharlarda hududiy-fazoviy rivojlanish tizimi yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda shaharning bosh tarhini ishlab chiqishda ko‘rib chiqiladi.



2.4-rasm. Shaharning bosh tarhi sxemasi (yopiq kompozitsiya):
1–turar-joy tumanlari; 2–shahar markazi; 3–og‘ir sanoat; 4–yengil sanoat; 5 – sport markazi; 6–sog‘liqni saqlash markazi; 7– savdo markazi; 8– stadion; 9 – shahar chegarasi.

Ko‘p funksiyali shaharlar — ma’muriy-xo‘jalik, madaniy va iqtisodiy funksiyalarni o‘zida muvofiqlashtiruvchi, hamda rivojlangan sanoat va transportga ega. Bular — poytaxtlar, viloyat markazlari va boshqa yirik shaharlar (ularda yuqoridagi sanab o‘tilgan funksiyalarning har biri) shaharsozlik ahamiyatiga ega. Bu turdagi shaharlar muhim tuman tashkil etuvchi markazlardan bo‘lib, keng va xilma- xil aloqalarga, murakkab hudud tuzilishiga egadirlar.

Tumanlararo ahamiyatli sanoat va transport funksiyalari ustun bo‘lgan shaharlar. Bu turdagi shaharlarni sanoat, transport va sanoat-transport shaharlarga ajratish mumkin.

Sanoat shaharlarining turlari xilma-xil. O‘zida turli sanoat tarmoqlarini birlashtirgan shaharlar keng tarqalgan bo‘lib, ular asosan rivojlangan sanoat

Shahar va qishloq Funksional vazifasi	Shahar va qishloqning Funksional	Shahar va qishloqning Funksional
ma'muriy-xo'jalik	Umumiy jarayonlar	Yirik shahar
madaniy — iqtisodiy	Yordamchi	O'rta kichik shahar
sanoat — transport	Maxsus jarayonlar	Kommunikatsiyalar
<i>Funksional funksiya</i>	<i>Funksional Konstruksiya</i>	<i>Funksional shakl</i>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF- 5789- sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 5-sentyabrdagi Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarining bitiruv (loyiha) ishini tayyorlash va himoyaga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi12-2017-son buyrug‘i Toshkent sh.,2017-yil 5-sentyabr

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isamuxamedova D.U., Ismoilov A. T., Xotamov A. T. "Injenerlik obodonlashtirish va transport". 2009.
2. Isamuxamedov D.U., Adilova L.A. "Shaxarsozlik asoslari va landshaft arxitekturalari". 2010.
3. ShNQ 2.07.01-03* "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi pctlari Hududlarini rivojlantirish va qurilishini qayta tiklash" / O'zbekiston Respublika Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi - Toshkent, 2009-177 b
4. Isamuhamedova D.U. Turar-joy massivi va mikrorayon loyihasi: darslik / O'zbekiston Respublikasi.
5. O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to'g'risida - <https://lex.uz/uz/docs/-6600549#-660580> T .:
6. G.Yeldasheva, G. Karimova Ta'lim tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua Toshkent sh. 2018-y.
7. X.T. Omonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent sh. 2012 y
8. L.A. Muxtorova Ta'lim jarayonida interfaol interfaol metodlarning imkoniyatlari Uslubiy qo'llanma Termiz-2013-y.
9. Q.T. Olimov Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'quv uslubiy majmua Buxoro 2018-y.
10. N.A. Muslimov "Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish" moduli bo'yicha o'quv -uslubiy majmua Toshkent sh. 2019 y

Internet resurslari:

1. <http://www.arhitekto.ru/txt/2razv16.shtml>
2. http://www.glazychev.ru/books/mir_architektury/glava8glava08-01.htm
3. www.newhorizons.org. Ta'limning yangi ufqlari
4. <http://www.natlib.uz/rus/calendar2006.pdf> Natsionalnaya biblioteka Uzbekistana
5. <http://www.archunion.com.ua/clovarik.shtml> - Arxitekturnaya ensiklopediya.

5-6-KO'CHMA MASHG'ULOT:

Zamonaviy urbanizmning asosiy muammolari. Istiqbolli tendentsiyalarning paydo bo'lishi.

Kalit soz'lar: urbanizatsiya, industrial, agrar, postindustrial, megapolis, megalapolis, aglomeratsiya, iqtisodiy rivojlanish.

1. Dunyodagi zamonaviy urbanizmlarni o'rganish. Urbanizatsiyaning geografik jihatlari ham kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda

o'zgacha sodir bo'lmoqda. Urbanizatsiya, garchi shaharlarning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lsa-da, u XIX asr oxirlarida sanoat inqilobi natijasida aholining ish izlab qishloqlardan shaharlarga yoppasiga ko'chib kelishi asosida jadal rivojlandi. Dastlab urbanizatsiya Yevropada boshlanib, hozirda cho'qqisiga yetib, orqaga qaytmoqda. Masalan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Belgiya kabi rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya darajasi 80-90 foizga yetdi. Shaharlar nihoyatda kattalashib, aholisi 10-12 mln. ga yetdi. Hozirda aholi o'ta zich joylashgan binolar, shovqin-suron, turli asabbuzarliklar, keskin ekologik-nozoogeografik vaziyatdan qochib (dezurbanizatsiya), ochiq tabiat qo'yniga intilmoqda. Natijada suburbanizatsiya, ya'ni shaharlarning shahar atrofida o'sishi kuzatilmoqda. Lotin Amerikasida bu jarayon o'z cho'qqisida, Osiyo, Shimoliy Afrika mamlakatlarida jadal bormoqda, aholining qishloqlardan shahar, ayniqsa, poytaxt shahar-larga ko'chishi natijasida Mumbay, Kalokut, Jakarta, Karachi, Qohira, Tehran, Manila, Lagos, Dakka kabi yirik shaharlar aholisi 12-15 mln. ni tashkil etmoqda. Ayrim davlatlarda-Afg'oniston, Nepal, Bangladesh, Butan, Tropik Afrika davlatlarida esa u hali

boshlangani yo'q. 1994—2025-yillarda Osiyo 1.5 mlrd. shahar aholisiga ega

bo'lishi kutiladi. Yoki bu Yevropaning har bir yangi shahar fuqarosiga 23 ta osiyolik shahar fuqarosi to'g'ri kelishini bildiradi. Lotin Amerika va Karib havzasida ham umumiy urbanizatsiya darajasi keskin ko'tarilib, 1970-yilda 163 mln. aholi shaharlarda yashagan bo'lsa, 1994-yilgake, 349 mln. ga yetdi. Mintaqa shahar aholisi 2025-yilgacha 601 mln.ga yetishi kutilib, bu raqamlar Yevropadagiga nisbatan yuqori bo'lib hisoblanadi - 598 mln. Afrika esa dunyoning har qanday mintaqasidan tezroq o'sishni namoyish etib, 1970-yilda 84 mln. aholiga ega bo'lgan bo'lsa, 1994-yilgacha aholi soni 240 mln. ga ortdi, 2025-yilgacha 804 mln. ga yetishi kutiladi. Bu barcha urbanistik ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali tasdiqlangan bo'lib, kelgusida mintaqalarning urbanizatsiya darajasini yaqqol namoyish etib beradi. O'rta Osiyo va O'zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu yerda urbanizatsiya ko'rsatkichini yaqin kelajakda 70-80 foiz bo'lishini tassavvur qilish qiyin va bunday aslo bo'lmaydi ham. Sababi - bizda shaharlar rivojlanishi qishloq joylar bilan qadimdan an'anaviy holda bog'liq. Qolaversa, bunday mamlakatlarda urbanizatsiya ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni amalga oshirish, qishloq industriyasi va infrastrukturasiga jiddiy e'tibor qaratmoqdaki, bu ham urbanizatsiya, uning ichkaridan, «yashirincha» rivojlanishidan darak beradi. Demak, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi, garchi ma'lum qulayliklarga ega bo'lsada, «uning ayrim nozik» jihatlari ham mavjud. Amerikalik shaharshunos olim J.Jibbs urbanizatsiya jarayonini o'rganish asosida uni quyidagi bosqichlardan iboratligini aniqlaydi: 1-bosqich qishloq joylarda qishloq belgilari ustun bo'lgan shaharlar vujudga kela boshlaydi, ammo ular hali qishloqlar rivojlanishidan ortda bo'ladi. 2-bosqich-shahditiw rivojlanishda qishloqlardan o'zib ketadi, qishloq areallarida markazlar paydo bo'ladi. 3- bosqich qishloqlardan aholi shaharlarga ko'chib boradi, areallarning markazlarida aholi ko'payib, aglomeratsiyalashuv jarayoni ro'y bera boshlaydi, atroflarida aholi kamayadi. 4-bosqich-aholi yirik shahar va aglomeratsiyalarda to'planadi, kichik shahar va qishloqlarda esa kamayadi.

5-bosqich yirik shaharlardan aholi kichik shahar va qishloqlarga, shahar atroflariga

qaytadi. Demak, urbanizatsiya ana shu bosqichlarni bosib o'tadi, biroq u turli hududlarda o'ziga xos tarzda turli vaqtlarda amalga oshadi.

Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni (IGO) birqancha komponentlardan tashkil topadi. Bular esa o'z navbatida yana bir necha elementlarga bo'linib

ketadi. Jumladan:

1. Shaharlarning tabiiy geografik o'rni:

- Tabiat zonalariga nisbatan o'rni;
- Tabiiy resurslarga nisbatan;

2. sanoat –geografik o'rni:

- xom ashyo manbalariga nisbatan, ya'ni elektro energiya, yoqilg'i va hokozo;
- qayta ishlash sanoti markazlariga nisbatan;

3. shaharlarning agro-geografik o'rni:

- qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan;

4. transport-geografik o'rni:

- ichki muhim transport magistraliga nisbatan;
- xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan bozor-geografik o'rni;
- maxsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan;
- ist'emol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan;
- geodemografik o'rni:
- aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rni;
- fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan o'rni.

- siyosiy-geografik o'rni:

- mamlakat poytaxtiga nisbatan;
- davlat chegaralariga nisbatan;

5. harbiy-geografik o'rni:

- mudofaa ahamiyatiga ega ob'ektlarga nisbatan;
- siyosiy (harbiy) konflikt o'choqlariga nisbatan.

Shaharlarning mazkur geografik o'rinlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishiga imkon beradi. Har bir shahar uchun eng muhim

geografik o'zni bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo'lsa ham turli hududlarda IGO' ahamiyati bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi.

2. Shahar aholi manzilgohlarining turlari. Shaharlar hoh u yirik, hoh mayda bo'lishidan qat'iy nazar har birining bajaradigan o'z funktsiyasi bor. Shaharlarning funktsiyasi-aholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Shaharlarni shahar hosil qiluvchi funktsiyasiga ko'ra ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

I. Ishlab chiqarish (industrial)

3) savdo-sotiq

II. Noishlab chiqarish

1) harbiy

2) madaniy

3) kurort

Shuningdek, ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi.

Siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar.

Ko'p funktsiyali shaharlar-viloyat markazlari.

Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari.

Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar.

Transport markazlari.

Agroindustrial shaharlar.

Tuman markazlari.

Rekreasiya shaharlari.

Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k.

2. Zamonaviy urbanizmning asosiy muammolari.


So'nggi yillarda urbanizatsiya jarayoni sifat jihatdan o'zgarib, o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi; yirik shaharlar o'z doirasidan chiqib, yangi hududiy tizimlar - shahar aglomeratsiyalari va megalopolislar ko'rinishida namoyon bo'la boshladi(1-rasm)[6]. "Aglomeratsiya" lotincha so'z bo'lib, "to'plamoq", "qo'shib olmoq" ma'nosini bildiradi. Mazkur termin ko'p sohalarda, masalan, sanoatda, geologiyada ishlatilib, keyinchalik aholi manzilgohlari uchun ham qo'llanila boshlandi. Umuman olganda, "aglomeratsiya" tushunchasi dastavval nemis olimi Alfred Vebeming sanoat shtandorti nazariyasida qo'llanilgan. U sanoat korxonalarini joylashtirishda transport, iste'mol omillari qatorida aglomeratsiya omiliga ham katta e'tibor bergan.

Bu soʻzni birinchi marta amerikalik shaharshunos olim Adna Veber 1899- yilda shaharlar geografiyasi faniga olib kirdi va aholi manzilgohlarining bir joyda toʻplanishi uchun ushbu terminni ishlatdi. Shahar aglomeratsiyalari rus - sovet adabiyotlarida 1910-20-yillardan A. Kruber, M. Dikanskiy, V. Semyonov - Tyan - Shanskiy tomonidan oʻrganila boshlandi va turli nomlar bilan ataldi, masalan, “iqtisodiy shahar”, “shahaming xoʻjalik okrugi”, “planlashtirilgan rayon” va h.k.[15] Yirik shaharshunos olim G.M. Lappo unga shunday taʼrif beradi: “Shahar aglomeratsiyalari xilma-xil intensiv aloqalar bilan yagona, dinamik tizimga birlashgan aholi manzilgohlarining ixcham hududiy guruhidir”. “Shahar aglomeratsiyasi” tushunchasi maʼlum maʼnoda shartli xarakterga ega. Sababi, bunday hududiy tizimlarda faqat shahar joylar emas, balki ular orasida qishloqlar ham mavjud boʻlib, ulaming aholisi ham aglomeratsiyalashuv jarayonida ishtirok etadi. Ammo shahar, ayniqsa, yirik shaharlarning bunday murakkab tizimlarni shakllanishidagi yetakchi rolini hamda shahar aholisi va shaharcha hayot tarzini tarqalishini hisobga olib, bunday tuzilmalar shahar aglomeratsiyalari deb ataladi.

Shahar aglomeratsiyalarining vujudga kelishini G.M.Lappo 2 xil turini ajratadi. “Shahardan” - asosiy shahardan unga mos kelmaydigan obyektlar yaqin atrofiga olib chiqiladi yoki shahar uchun zarur boʻlgan obyektlar uning atrofidagi yoʻldosh shaharlarga quriladi.⁵ Shu tariqa aglomeratsiya paydo boʻladi va rivojlanadi. “Rayondan” - konlar yoki yangi yerlar oʻzlashtirilayotgan rayonlarda, Sharq mamlakatlarida koʻproq sugʻorma dehqonchilik rayonlarida bir necha aholi manzilgohlaridan birortasi qulay IGOʻ ga ega boʻladi, u tez rivojlanib, dominantlik qiladi va aglomeratsiya yadrosiga, qolganlari esa unga yoʻldosh shaharlarga aylanadi. Lekin koʻpchilik hollarda aralash tipdagi aglomeratsiyalar uchraydi.

Jahon urbanizatsiya darajasi⁶

2-rasm



⁵ Zulkaynar oʻg T. G. et al. SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK OʻRNI, CHEGARALANISHI VA UNING GIS TAHLILI //World scientific research journal. – 2023. – T. 16. – №. 1. – C. 12-16.

⁶ Temirov M. “Urbanizatsiya jarayonining geografik tasnifi” Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Hosted online from Plano, Texas, USA.

Shahar aglomeratsiyalari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalari bo'lgan hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy majmualar va iqtisodiy geografik o'rin bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, ular hududiy tarkib, hududiy tizim va hududiy majmualarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Avvalambor, shahar aglomeratsiyalari har qanday hududiy tarkibni shakllantiruvchi asosiy belgidir. Ular o'ziga xos hududiy tizimni anglatadi. Bunda shahar aglomeratsiyalari zaminida sanoat va transport tuguni yotadi. Kengaygan urbanistik tizim va integratsiyalashgan yo'l bo'ylari o'rtasida kapital, mahsulot, odamlar oqimi kuchayadi, bu qishloq va shahar faoliyati o'rtasidagi farqlarni pasaytirishga xizmat qiladi[18]. Ayni vaqtda, shahar aglomeratsiyalari yagona iqtisodiy geografik o'rin, iqtisodiy makon, bozor muhitini ham bildiradi. Ularda yagona investitsiya muhiti, ekologik, nozoogeografik va kriminogen vaziyat ham vujudga keladi. Xususan, shahar aglomeratsiyalarining yagona sotsial muhit ekanligini ta'kidlash lozim.

Chunki aglomeratsiyada o'ziga xos yashash shareiti, kishilarning haftalik mehnat - hayot faoliyati sodir bo'ladi.

3. Zamonaviy urbanizm istiqbolli tendentsiyalarining paydo bo'lishi.

Zamonaviy urbanizm istiqbolli tendentsiyalarining paydo bo'lishini aglomeratsiya jarayoni orqali ko'rishimiz mumkin. Joyning tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, aglomeratsiyalar turlicha hududiy qiyofalar - "polosasimon", "chiziqsimon", "zanjirsimon", "yulduzsimon" kabi konfiguratsiyaga ega bo'ladi. Ularning hududiy tarkibi ham murakkab bo'lib, aglomeratsiya to'laqonli shakllanishi uchun bosh shahar - "yadro", yo'ldosh shaharlar, ular o'rtasida intensiv aloqalar bo'lishi talab etiladi. Odatda, markaziy shahardan tarqaluvchi radial yo'l bo'ylari tez rivojlanadi, ularning oralari esa ochiq joylar - bufer zonalar qoladi. Bu zonalar ko'pincha "yashil zonalar" yoki qishloq xo'jalik yerlari bilan band bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda esa ular qurilishlar, uy-joylar bilan to'lib ketib, yoidosh shahar bosh shaharga qo'shib ketadi. Markaziy shahar aglomeratsiyaning "yadro"sinini tashkil etadi, ular bitta (monotsentrik), ba'zan esa ikki va undan ortiq (politsentrik) bo'lishi ham mumkin (Donetsk - Makeevka-Gorlovka, Gdansk - Gdinya-Sopot va b.). Markaziy shahar qanchalik katta bo'lsa, uning ta'sir doirasi ham shunchalik keng bo'ladi. Odatda, uning aholi soni 100 mingdan ortganda aglomeratsiyalashuv uchun ko'proq imkoniyat vujudga keladi. Undan uzoqlashgan sari, aholi zichligi va aholi manzilgohlari kamayib boradi, ular o'rtasidagi aloqalar ham susayadi.

Aglomeratsiya chegarasi ko'pincha 50-60, ba'zan esa 100-110 km li radiuslarga ham teng bo'lishi mumkin. Shahar aglomeratsiyalari turli yerlarda, turli tabiiy va iqtisodiy geografik omillar va sharoitlar ta'sirida tarkib topgani uchun, jahon tajribasida ularni ajratishda yagona mezon qabul qilinmagan, masalan, AQSHda ular "yadro"sining aholisi 50 ming kishi, Kanadada esa 100 ming kishi bo'lishi talab etiladi. MDHdagi ko'pchilik aglomeratsiyalarni ajratishda G.M.Lappo metodikasidan foydalangan holda, markaziy shahar aholi soni 250 mingdan, yo'ldosh shaharlar soni to'rttadan kam bo'lmazligi talab etiladi. Yo'ldosh shaharlar, odatda, monofunksional bo'lib, sanoat markazi, kurort, ilmiy markaz, tuman markazi, agrosanoat markazi kabi ayrim funksiyalarni bajarib beradi. Shahar

aglomeratsiyalaridagi barcha elementlar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi, bu yerda umumiy hayot faoliyati, yagona xo‘jalik tizimi shakllanadi. Ushbu hududdagi barcha resurs va imkoniyatlardan: tabiiy va mehnat resurslari, suv va energiya ta‘minoti, yirik shaharning ilmiy-texnik salohiyati, yer va uy-joy fondi, mehnat qilish, dam olish, davolanish, bilim olish kabi xizmatlardan umumiy holda foydalaniladi. Bu esa, o‘ziga xos aglomeratsiya samaradorligini ta‘minlaydi.

Yirik shahar va shaharchalar hududi o‘zaro tutashib, qo‘shilib ketsa, u holda yaxlit - ulkan shahar vujudga keladiki, ularni - konurbatsiya deyishadi (London, Rur havzasi konurbatsiyasi va h.k.). Biroq, konurbatsiya ham aglomeratsiyalarning bir shakli, ko‘rinishi bo‘lsa-da, har qanday aglomeratsiya ham konurbatsiya emas. Bu terminni ingliz olimi P.Geddes 1913-yilda fanga kiritgan bo‘lib, u yirik shaharlarning hududiy jihatdan o‘zaro qo‘shilib ketishini nazarda tutadi. Dunyodagi eng yirik konurbatsiya Katta Golland konurbatsiyasi bo‘lib, uning asosini Rotterdam, Amsterdam va Gaaga shaharlari tashkil etadi. Hozirgi kunda yer sharidagi eng yirik aglomeratsiya Tokio aglomeratsiyasi bo‘lib, unda 35 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Aholi soniga ko‘ra, keyingi o‘rinlarni Mexiko, Nyu-York, San-Paulu va boshqa aglomeratsiyalar egallaydi. Ammo so‘nggi vaqtlarda ularning demografik o‘sish sur‘atlari sekinlashdi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi Bombay, Manila, Karachi, Dakka, Lagos va boshqalarda «urbanistik portlash» yuz bermoqda: ish topish maqsadida ko‘plab aholi poytaxt shaharlarga ko‘chib kelib, shaharga demografik bosim kuchaymoqda. Ularning aholi soni yiliga 3-5% dan ko‘paymoqda (jahon bo‘yicha shahar aholisining o‘rtacha yillik o‘sishi 1,8%).

Yevropa, Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyodagi ana shunday 40-50 ta yirik aglomeratsiyalar yonma-yon joylashib va bir-biriga qo‘shilib, yirik urbanizatsiyalashgan areallar, ya‘ni megalopolislarni hosil qilgan. Umuman esa, megalopolis yoki megapolis ulkan shahar (mega - katta, yirik) ma‘nosini bildiradi. Ushbu terminni birinchi marta amerikalik sotsiolog olim L.Mamford qo‘llagan. J.Gottman esa Atlantika qirg‘oqlari bo‘ylab deyarli 1000 km ga polosasimon shaklda cho‘zilib ketgan 50 ga yaqin aglomeratsiyani va 50 min. dan ziyod aholini o‘z ichiga olgan Bosvash (Boston-Vashington) aglomeratsiyalar tizimini birinchi bo‘lib tadqiq etdi va uni megalopolis nomi bilan atadi. Ana shunday urbanizatsiyalashgan hududlardan sayyoramizning sharqiy qismida, markazi Tokioda joylashgan Tinch okeanining muhim savdo yo‘llari bo‘ylab cho‘zilgan Tokaydo (Tokio-Osaka) megalopolisi Sharqning o‘ziga xos o‘sish qutbi hisoblanib, unda aholi va ishlab chiqarishning asosiy qismi mujassamlashgan. Tokaydo megalopolisida mamlakat aholisining deyarli 60 foizi to‘plangan bo‘lib, bu yerda mamlakat umumiy sanoat mahsulotining 2/3 qismi ishlab chiqariladi. Mazkur Tokaydo megalopolisining yadrosini Katta Tokio deb nomlanuvchi Yaponiyaning Tokio poytaxt aglomeratsiyasi hududi tashkil etadi. Katta Tokio Yaponiyaning Tokio poytaxt okrugi va Chiba prefekturasining katta qismini birlashtirib, o‘z ichiga oluvchi, Kanto mintaqasida joylashgan yirik urbanizatsiyalashgan hudud bo‘lib hisoblanadi (M.Pacione, 2009, 127-b.). O‘zimizning Farg‘ona vodiysida ham aholi joylashuvining o‘ziga xos shakli vujudga kelgan, uni yirik shaharlarning bosh harfi bilan “FAN“ megalopolisi deb atash mumkin (Farg‘ona-Andij on-Namangan).

Daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasini biz deltapolis deyishimiz mumkin. Grek arxitektori Doksiadis kelgusida hatto, oykumenapolis

vujudga kelishi haqida ham fikr bildirgan bo'lib, bu butun dunyo shaharlarining yagona tizimidir. Megalopolis so'zi ikki yoki undan ortiq shahar aglomeratsiyalarining qo'shilib ketishini anglatadi, megapolis termini esa, hozirgi vaqtda BMT tasnifiga ko'ra, aholi soni 8 mln. dan ortgan shahar uchun qo'llanilmoqda.

Odatda, bunday shaharlar o'z ma'muriy-hududiy chegarasi doirasidan chiqib ketadi, shahar atroflari ham shaharga bevosita qo'shilib ketadi. Bunday yirik shaharlarga ega bo'lmagan ko'pgina mamlakatlar o'zlarining bosh, yetakchi, ko'p hollarda poytaxt shaharlarini megapolis deb atashmoqda. Hozirgi kunda 29 ta aholi soni 8 mln. dan ortgan megapolis qayd etilgan. Ularning aksariyati (19 tasi) Osiyo mamlakatlarida. Ularda 400 mln. dan ortiq aholi yashaydi. 1900-yilda bunday shaharlar soni dunyoda 10 ta edi. Bunday ulkan urbanizatsiyalashgan hududlar, jahonning asosiy sivilizatsiya markazlari bo'lishi bilan bir qatorda, transport, sotsial, ekologik, shovqin-suron, irqiy-milliy muammolar bilan birga rivojlanmoqda. Ayniqsa, urbanizatsiya jadal rivojlanayotgan Afrika, Janubiy Osiyo mintaqasida shaharlar nazoratsiz qolmoqda.

Qishloqlardan ko'chib kelayotgan, ro'yxatdan o'tmagan aholi shahar chekkalariga rejaga mos kelmaydigan uy-joylarni qurib, joylashib olmoqda. Natijada shahar hududi kengayib, nazoratdan chiqib ketmoqda. Shaharlarda yuqori, boy qatlam aholi yashaydigan "elitko'chalar" atrofidan qashshoqlarning xarobalari o'rin olmoqda. Bunday xarobalarda shahar infratuzilmasi, toza ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr energiyasi, yo'llar va kommunal xizmatlarning yo'qligi turli kasalliklarning, transport, shovqin-suron, ekologik tengsizlik, jinoyatchilik kabi muammolarning ortib borishiga olib kelmoqda. Bu esa shahar ko'rki va mavqeyini pasaytiradi, urbanizatsiya bilan bir qatorda ruralizatsiya (qishloqlashish) jarayoni ro'y beradi.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayoni 3 ta asosiy bosqichdan o'tib rivojlanib boradi.

I. Shakllanayotgan urbanizatsiya bosqichida shahar aholisining ulushi $\frac{1}{2}$ dan past bo'lib, yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o'tib ketadi.

Ayniqsa yirik shaharlar tez o'sishni boshlaydilar. Bunda eng yirik, odatda poytaxt yoki port shahar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o'sishi ayrim hollarda "soxta" urbanizatsiya tarzida, ya'ni shahar chekkalarida qishloqdan kelgan qambag'allarning xarobalari zichlashib borishi ko'rinishida kechadi (rasm). Hozirda Osiyo va Afrikaning rivojlanayotgan mamlakatlarining ko'pchiligi urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechirmoqdalar.

II. Rivojlangan urbanizatsiya bosqichi "millioner"-shaharlarning yuqori sur'atlar bilan o'sishlari hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning (turli kattalikdagi shaharlarning ma'muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi), megalopolislarning (yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo'shilib ketishi) vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaharliklarning jami aholidagi ulushi 50% dan ortib ketadi, yangi shaharlar deyarli vujudga kelmaydi, mavjud shaharlar esa, ayniqsa yiriklari tez rivojlanadi, shahar manzilgohlarining tizimlari shakllanib boradi, natijada shahar va qishloq o'rtasidagi o'zaro

bog'liqliklar yanada mustahkamlanadi. Urbanizatsiyaning bu bosqichi SHarqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerika, Shimoliy Afrika, Janubi-G'arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko'p mamlakatlarga xos.

III. Yetuk urbanizatsiya bosqichi Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroilda kuzatilmoqda. Bunda aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar atrofiga ko'chib boradi, lekin shaharda ishlash, o'qish, turli faoliyat yuritishni davom etadi va buning uchun har kuni shaharga qatnaydi. Natijada shaharlar markazlari asosan tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlashib boraverdi. Bunday ijtimoiy-geografik jarayon suburbanizatsiya deb ataladi. Transport va aloqaning zamonaviy texnologiyalari rivojlangan sari urbanizatsiyaning bu bosqichida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib boradi, natijada shahar va qishloqlardagi yashash sharoiti tobora yaqinlashadi. Ya'ni, qishloq joylar rasman o'zining qishloq maqomini saqlab tursada, aslida tub ma'noda shaharlashib ketadi. SHahar bilan qishloq joylar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo'qolib borish jarayoni rurbanizatsiya atamasi bilan yuritiladi.

Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovvtlari. Jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Yevropa, SHimoliy Amerika, Lotin Amerika, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi davlatlarda urbanizatsiya ko'rsatkichi o'rtacha hisobda 70 foizdan oshgan Bu borada ayniqsa Islandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina, Venesuela kabi shaharlashuv darajasi 90 foizdan yuqori bo'lgan davlatlar ko'zga tashlanadi.

Jahon aholisining 60 foizi va dunyodagi shaharliklarning yarmi yashaydigan Osiyo qit'asida urbanizatsiyaning umumiy darajasi birmuncha pastroq, 50% atrofida bo'lib, o'sishini davom ettirmoqda. Afrikada ham urbanizatsiya ko'rsatkichi 40%dan sal ko'proq.

Dunyo va yirik regionlarining urbanizatsiya darajasi (2016)

1-jadval

No	Hududlar	Urbanizatsiya, %
1	Dunyo	54
2	Rivojlangan davlatlar	78
3	Rivojlanayotgan davlatlar	49
4	Evropa	74
5	Osiyo	48
6	Afrika	41
7	Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada)	81


8	Lotin Amerika	80
9	Avstraliya va Okeaniya	70

Lekin har ikkala qit’ada ham yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar bor. Jumladan, Osiyoda bu borada Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Fors qo’ltig’i arab mamlakatlari, Tailand, Afrikada esa Liviya, Jazoir, Misr, Marokash, JAR kabi davlatlar ajralib turibdi. SHu bilan birga, Butan, Burundi, Malavi, Uganda, CHad, Afg’oniston va boshqa mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi 25%, xattoki 15%ga ham yetmaydi. Ammo ohirgi yillarda shahar aholisining umumiy soni va jahon aholisidagi ulushi aynan Osiyo va Afrika davlatlarida kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari hisobiga ko’paymoqda. Bunda eng salmoqli hissa shaharlari ancha yuqori sur’atlar bilan o’sib borayotgan Xitoy va Hindiston davlatlariga tegishli.

Shahar rivojlanishining ushbu tendensiyasi hududlarning transport aloqasi pastligi, aholini infratuzilma bilan ta’minlanmaganligi, ta’lim, tibbiyot, ko’ngilochar va boshqalarga yetishishning qiyinligi kabi muhim kamchiliklarga ega. Quyidagi rasmda shahar qurilishlari dog’lar ko’rinishida yirik shaharlar atrofida qanday to’planganligi aks ettirilgan. Bunday rivojlanish asosan xususiy yakka tartibdagi turar-joy binolari bilan ifodalanadi va aholi zichligi past bo’lgan joylarning tarqalishiga olib keladi.(3-rasm)

Samarqand atrofi aglomeratsiyasi.


3-rasm.



Urbanizatsiyaning haqiqiy manzarasi O‘zbekiston shaharlarining tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Urbanizatsiya darajasini shaharlarning rivojlanish joylari bo‘yicha baholash O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 85 foizdan oshishi mumkinligini ko‘rsatadi. Katta ehtimol bilan bu raqam haddan tashqari oshirilgan, deyiladi Jahon banki tadqiqotida. Aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha yangilangan ma‘lumotlar yo‘qligi sababli urbanizatsiyaning to‘liq manzarasi noma‘lumligicha qolmoqda. Biroq, rasmiy statistika va GHS natijalari o‘rtasidagi bunday chuqur tafovut, rasmiy statistika urbanizatsiya manzarasining qisman aks ettirishidan dalolat beradi.(4-rasm)

Andijon atrofi aglomeratsiyasi.

4-rasm.



Aholining shahar atroflarida to‘planishi faqat O‘zbekistonga xos emas. Xuddi shunday manzara rivojlanayotgan mamlakatlarda, masalan, Janubiy Amerikada ham kuzatilmoqda. Bu hodisa “yashirin urbanizatsiya” deb ataladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, shaharlar tobora o‘shib bormoqda va siqishmayapti. 15 yil davomida Toshkent shahri aholisi 10,9 foizga, zichligi esa atigi 2,2 foizga o‘tdi. Shu bilan birga, Ashxobod, Olmaota va Dushanbeda aholi zichligi 26–36 foizga oshgan.

Bularning barchasi O‘zbekistonda shaharlar o‘shishini boshqarish yomon ekanligidan dalolat beradi. Global amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yomon boshqariladigan urbanizatsiya inson farovonligi darajasining oshishiga olib kelmaydi.

O‘zbekiston shaharlari iqtisodiyoti

Shaharlar iqtisodi o‘shishiga urbanizatsiyaning o‘zi emas, balki unga hamroh bo‘lgan ta’sir hisoblanadi. Asosiy rolni odamlar va kapitalning harakatchanligi, yer resurslarini qayta taqsimlashning qulayligi va shaharni boshqarish sifati o‘ynaydi. Shaharlar iqtisodi o‘shishi uchun davlat siyosati va mahalliy darajadagi boshqaruv shaharlar o‘shishidan foyda olishga olib kelishi, ko‘chib o‘tishlarning salbiy oqibatlari pasayishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, biznes uchun shaharlarda ishlash foydalidir, chunki ularda potensial xodimlar, yetkazib beruvchilar mavjud, korxonalar tomonidan infratuzilmalardan foydalanish arzonroq. Ammo agar shaharlar betartib rivojlansa, asosiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirish uchun davlat investitsiyalari yetarli bo‘lmasa, urbanizatsiyaning salbiy oqibatlari kuchayib, shaharlar kamroq pul olib keladi. Tirbandliklar, elektr energiyasidagi uzilishlar, ishonchsiz suv ta’minoti — bularning barchasi xususiy sarmoyani to‘xtatadi va biznesni yo‘qotishga olib keladi.

Urbanizatsiya iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan mamlakatlarda (Braziliya, Turkiya, Malayziya) aholisi 100 ming kishidan ortiq bo'lgan shaharlarning yalpi ichki mahsuloti darajasi umummilliy ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori. Bu shahar iqtisodiyotining o'sishi urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Insoniyatning deyarli butun tarixi davomida dunyo aholisining ko'p qismi (hatto 1800-yilda — 97%) qishloq joylarda yashagan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar jarayonining boshlanishi hamisha bir xil ssenariy asosida bo'lib kelgan. Dastlab aholining katta qismi qishloq xo'jaligida band edi. Ishchi kuchining asosiy qismi kam malakali bo'lib, o'rtacha ish haqi nisbatan past edi.

Ammo qishloq xo'jaligida texnologiyani qo'llash qo'l mehnatiga bo'lgan talabni kamaytirdi, shu bir qatorda hosildorlik o'sdi. Qishloq daromadlarining oshishi shaharlarda ko'proq to'plangan tovarlar va xizmatlarga talabni keltirib chiqardi. Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohaslarining o'sishi qishloq xo'jaligidan shaharlarga ko'proq ishchi kuchini jalb qildi. Odamlarning kuch-quvvati va malakasi yanada samarali iqtisodiyot turlariga to'plandi, shuning uchun iqtisodiyot va aholi daromadlari o'sdi.

Jahon banki hisobotiga ko'ra, yuqori daromadli mamlakatlarda 2020-yilda aholining atigi 3 foizi qishloq xo'jaligida, 64 foizdan ortig'i esa xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan. O'zbekistonda esa 2019-yilda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1996-yilga nisbatan yuqori bo'ldi. 2019-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi besh baravar, xizmatlar ulushi esa shu davrda Yevropa va Markaziy Osiyoning rivojlanishning yuqori darajasiga erishmagan boshqa davlatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichning deyarli yarmini tashkil etdi.

O'rta va past daromadli Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida eng yirik aglomeratsiya ikkinchi yirik aglomeratsiyaga qaraganda taxminan 70 foiz ko'proq aholiga ega. O'zbekistonda Andijon va Qo'qon aglomeratsiyalari poytaxtdan mos ravishda 36 foiz va 47 foizga kichikdir. Eng yirik shahar markazlari o'rtasidagi bunday kichik farq qishloq joylarda tug'ilishning yuqori darajasi va migratsiyani cheklaydigan sharoitlarning natijasi bo'lishi mumkin.

XIX asrda sanoat inqilobi natijasida aholining qishloqlardan shaharlarga ko'plab ko'chib borishi, yirik shaharlar sonining ko'payishi, shahar aholisi salmog'ining ortib borishi va qishloq joylarga shahar turmush tarzi hamda madaniyatining kirib borishi bilan bog'liq bo'lgan urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlana bordi. 1800-yilda yer shari aholisining 3 foizi, 1900-yilda 13,6 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, XXI asrda bu ko'rsatkich 50 foizdan ortib ketdi. 2009-yilda jahon shahar aholisining soni 3.4 mlrd. ni tashkil etib, ilk marotaba qishloq aholisi soni bilan tenglashdi. 2023-yilda jahon urbanizatsiya darajasi 57,5 % ni tashkil qilyapti. 2020-2023 yillarda jahonda urbanizatsiya darajasi o'rtacha 1,73 % ga o'sdi. Tarixiy davrlar mobaynida shahar aholisi nisbatan sekinlik bilan o'sgan. Masalan, 1800-1850-yillar orasida shahar aholisi 50 mln. ga, keyingi asming dastlabki 50 yili ichida 500 mln. ga ko'paygan bo'lsa, so'nggi 50 yil davomida esa bu ko'rsatkich 2,5 mlrd. dan ortiqni tashkil etdi (1-jadval). Xususan, dunyoning qator rivojlangan davlatlarida

urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. «Urban» (lot. urban - shahar), «zatsiya» -jarayon demakdir. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko'rsatkich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo shunday bo'lsa-da, barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa, mamlakat va boshqa hududlar aholisining qanchasi, qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 51%, Tojikistonda - 32%, Afgonistonda - 19%, Turkmanistonda - 48% va h.k.

Dunyo shahar aholisi dinomikasi⁷

2-jadval

T/r	Yillar	Shahar aholi soni, mln. kishi	Jami aholidagi ulushi, % da
1	1800	29,3	3,0
2	1850	80,8	6,4
3	1900	224,4	13,6
4	1950	730,4	28,9
5	1960	1028,0	33,9
6	1970	1381,2	37,4
7	1980	1822,3	41,1
8	1990	2261,3	43,0
9	2005	3125,6	47,9
10	2015	3 880,1	53,0
11	2023	4621,8	57,5

Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi vauning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. Chunonchi, agar urbanizatsiya koeffitsiyenti taxminan 70-75 va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi; 50-70% - bu ham rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial-agrar; 30-50% - rivojlanayotgan agrar-industrial va 30 foizdan past bo'lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo'ladi.

Urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar kompleks bo'lib, iqtisodiy o'sish urbanizatsiyaning yuqori darajalarida natija berishi mumkin, urbanizatsiyaning yuqori darajalari, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi.

Siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar.

Ko'p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari.

Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari.

Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar.

Transport markazlari.

⁷ BMT va Jahon Bankining xalqaro aholini o'rganuvchi va prognoz qiluvchi rasmiy sayti ma'lumotlari - <https://www.worldometers.info/world-population/>

Agroindustrial shaharlar.

Tuman markazlari.

Rekreasiya shaharlari.

Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k.

Shaharlar mazkur yuqorida keltirilgan funksiyalari bo'yicha bir-biridan ma'lum darajada farq qilishadi. Masalan, dunyoda AQShdagi Detroyt, Rossiyadagi Tolyatti shaharlari avtomobilsozlik, Fransiya-dagi Dyunkerk, Ukrainadagi Odessa, Rossiyaning Vladivostok, Murmansk transport, ya'ni port shaharlar; Angliya-dagi Kembridj, Germaniyaning Xaydelburg, Dubna o'quv, ilmiy markazlar; Hindistonning Varanasi, Saudiya Arabistonining Makkasi diniy markazlar vazifasini bajarishi bilan ajralib turadi. Ko'pgina shaharlar bitta emas, birqancha funktsiyani bajaradi, bunday shaharlar "polifunksional" shaharlar hisoblanadi. Shaharlar kattakichikligiga qarab ham funktsional tiplarga ajratiladi. Shaharlarning kattakichikligi ular aholisi soniga qarab belgilanadi. Odatda, shaharlar aholisi soniga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

I. kichik shahar: 20 ming kishi

II. o'rta shahar: 20 mingdan 100 ming kishigacha

III. katta shahar: 100 mingdan 500 ming kishigacha

IV. yirik shahar: 500mingdan 1000 ming kishigacha

V. millioner shahar: 1000 ming va undan ortiq

VI. o'ta millioner shahar: 10 mln va undan ko'p kishi.

3-jadval

Jahon davlatlarida millioner shaharlar soni

No	Davlat	Millioner shaharlar soni
1	Xitoy	199 ta
2	Hindiston	54 ta
3	Rossiya	15 ta
4	Braziliya	14 ta
5	Indoneziya	12 ta

Aholisi soni 10 mln.dan ortiq shaharlari megasitilar deb nomlanadi. Jahonda 15 ta shahar shunday maqomga ega.Ular orasida Shanxay, Karachi, Pekin eng yiriklari bo'lib hisoblanadi.

Shaharlarning funktsional tuzilishi shahar hayotining barcha jabhasida yaqqol seziladi, shu boisdan shaharlarni turli yo'nalishda tadqiq etishda buni albatta hisobga olish lozim.

Shaharlarning funktsional tuzilishi aholi takror barpo bo'lishi sur'atiga, aholi demografik tarkibiga, aholi bandligi, aholi migratsiyasi xarakteriga, aholi ijtimoiy tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholining yirik shaharlarda to'planishi yirik-katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o'rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda. Qishloq aholi punktlapining ikkinchi guruhiga bir qismi aholi qishloq xo'jaligida, qolgani sanoat, transport, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan aholi punktlapi kiradi. qilishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023y.
2. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. 22.02.2021. <https://lex.uz/docs/5307951>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida PF-158-son farmoni. Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son
6. BMT va Jahon Bankining xalqaro aholini o'rganuvchi va prognoz qiluvchi rasmiy sayti ma'lumotlari - <https://www.worldometers.info/world-population/>
7. ShNQ 2.07.01-03* Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish.- Toshkent shahar 2009yil.
8. Isamuxammedova D.U., Adilova L.A. “Shaharsozlik asoslari valandshaft arxitekturasini” (II-qism).—T., 2010.
9. Pacione, M. Shahar geografiyasi: global istiqbol. London: Routledge. 2009. 134-137-b
10. Olimov A., Madrahimova M. Oliy o'quv yurtlarida elektron kutubhonaning o'rni // Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion ahborot va ta'lim texnologiyalarining roli va ahamiyati mavzusida Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami - Namangan, NamMPI, 2016. - B.16-108.
11. Абдувахобов Д., Мамарасулов Р., Мамасолиева С. Ўзбекистонда илм-фанни ривожлантириш // “O'zbekistonda ilm-fan, ta'lim va texnologiyani rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami – Наманган, НамМҚИ, 2021. – Б.3-4.
12. Tovbayev G. Z. Global ekologik muammoni hal qilish yo'llari // Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 279-283.
13. Temirov M. “Urbanizatsiya jarayonining geografik tasnifi” Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Hosted online from Plano, Texas, USA.
14. Zulkaynar o'g T. G. et al. SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O 'RNI, CHEGARALANISHI VA UNING GIS TAHLILI //World scientific research journal. – 2023. – T. 16. – №. 1. – С. 12-16.
15. Zulkaynar o'g T. G. et al. SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O 'RNI, CHEGARALANISHI VA UNING GIS TAHLILI //World scientific research journal. – 2023. – T. 16. – №. 1. – С. 12-16.

16. Хидиралиев К. Э., Ўғли Т. Ф. З., Холдоров Д. Б. Ў. ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ ХУДУДИЙ ЖИХАТЛАРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – С. 136-142.
- 17.https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/b/b6/Urbanized_population_2018.png
18. Pacione, M. Shahar geografiyasi: global istiqbol. London: Routledge. 2009. 134-137-b
19. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
- 20.https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/b/b6/Urbanized_population_2018.png

KEYSLAR BANKI

“KEYS № 1”

Topshiriq. Yangi ishga kelgan muxandis temir-betondan iborat bo‘lgan dambalarni filtratsiya hisoblarini bajarishda ko‘plab xatoga yo‘l qo‘ydi, unda zaminni suv o‘tkazuvchanligini hisobga olmadi, buning natijasida filtratsiya sarfi uni haqiqiy hisobiy sarfidan bir necha barobar oshirib yuborildi, filtratsiya sarfi miqdori va gradientini noto‘g‘ri aniqlandi. Bu esa drenaj qurilmalarini o‘lchamlarini noto‘g‘ri tanlashga va to‘g‘on qirg‘oqlar bilan tutashgan joydagi filtratsiya miqdorini ortishi hisobiga uni hajmini ko‘payishiga olib keldi. Natijada davlatga katta miqdorda zarar keltirdi.

Savollar:

1. Filtratsiya hisoblarini vazifasiga nimalar kiradi?
2. Drenaj qurilmasi o‘lchamlari nimalarga bog‘liq?
3. Nima uchun zaminni suv o‘tkazuvchanligi hisobga olinadi?
4. Qanday hollarda zamin suv o‘tkazuvchanligini hisobga olmaslik mumkin?
5. Ushbu xolatlarni bartaraf etish uchun nima qilish kerak?

“KEYS № 2”

Temir-beton to‘g‘onni loyihalaganda drenaj qurilmasi suv sarflari galeriya orqali olib chiqib ketiladi. Uni qurib bitkazilganda ushbu drenaj orqali betonda xolatlari kuzatildi va ma’lum bir vaqtdan so‘ng drenajni ish faoliyati buzildi. Buning natijasida filtratsiya suvlarini to‘g‘onning ma’lum bir balandligidan sizib chiqish xolatlari yuz berdi.

Shundan soʻng zudlik bilan chora tadbirlar ishlab chiqildi va drenajni ish faoliyati qayta tiklandi.

Savollar:

- 1. Drenaj prizmadan qanday holatda foydalaniladi?
- 2. Nima uchun drenaj orqali yemirilish yuz berdi?
- 3. Kvitatsiya xodisasi yuz bermasligi uchun nima qilish kerak?
- 4. Nima uchun maʼlum bir vaqtdan soʻng drenaj ish faoliyati buzildi?
- 5. Agar ushbu suv sizishni oldi olinmasa nima yuz berishi mumkin?
- 6. Toʻgʻonda drenaj qurilmalari qanday vazifani bajaradi?
- 7. Toʻgʻondagi drenaj qurilmalarini yana qanday turlarini bilasiz?

“KEYS № 3”

Yangi qurilayotgan beton toʻgʻonni loyihalashda toʻgʻon tanasida va tubida filtratsiyaga qarshi qurilmalar koʻzda tutildi. Lekin shunga qaramasdan maʼlum bir vaqt oraligʻida ushbu toʻgʻon atrofidagi yer osti suvlarini sathi koʻtarilganilganda , zamindan sizib oʻtgan suvlar natijasida toʻgʻonda choʻkish sodir boʻldi. Ushbu kamchiliklar bartarab etilgunga qadar ushbu toʻgʻondan foydalanish foydalanish taqiqlab qoʻyildi.

Savollar:

- 1. Nima uchun toʻgʻon tanasi va zaminida filtratsiyaga qarshi qurilmalar koʻzda tutilganiga qaramasdan zamindan nima uchun filtratsiya yuqori darajada sizib oʻtdi?
- 2. Ushbu temir-beton toʻgʻonni loyihalashda loyihachi qanday xatoga yoʻl qoʻydi?
- 3. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak boʻladi?
- 4. Betonli va temir-beton toʻgʻonlarni filtratsiyaga qashi qurilmalarini qanday turlarini bilasiz?

“KEYS № 4”

Topshiriq: Loyihalash sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etishda qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb oʻylaysiz?

1-jadval

Muammolar	Yechim	Natija

“KEYS №5”

Mavzu: Modul maqsadi va vazifalari. Gruntlarni dala sharoitida tadqiq qilish va nazariy asoslash.

Berilgan case study maqsadi: « Gruntli to‘g‘onlar va ularning mustahkamligini taminlash » ga umumiy tavsif beradi. Tinglovchilarga baho berish mezonlari tushuntiriladi, guruhchalar tashkil qiladi, keys stadining individual bosqichida bajarish uchun mavzu beriladi. Tinglovchilarga keys daftarchalari tarqatadiladi. Mavjud adabiyot bilan tanishtiriladi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu mavzuni o‘rganish jarayoni orqali « Gruntli to‘g‘onlar va ularning mustahkamligini taminlash » modulining asosiy vazifalari, yutuqlari, boshqa modullar bilan bog‘lanish darajalari, jamiyatdagi ahamiyati hamda bugungi O‘zbekistandagi taraqqiyot darajalari haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Sase studyni muvaffaqiyatli bajarish uchun Tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

Tinglovchi bilishi kerak: Modul maqsadi va vazifalarini. Gruntli to‘g‘onlar va ularning mustahkamligini taminlash

Tinglovchi amalga oshirishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganadi, muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi, ma’lumotlarni taqqoslaydi, tanqidiy xulosa chiqaradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Sase study-ning obekti: Gruntli to‘g‘onlar va ularning mustahkamligini taminlashga doir misollar.

Sase study-da ishlatilgan ma’lumotlar manbai: « Gruntli to‘g‘onlar va ularning mustahkamligini taminlash » moduli bo‘yicha adabiyotlar. Sase study-ning tipologik xususiyatlarga ko‘ra xarakteristikasi: Sase study kabinetli toifaga kirib syujetsiz hisoblanadi, sase study ma’lumotlarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, hamda tahlil

GLOSSARIY

GRUNT – ba’zi inshootlar uchun zamin, xom ashyo sifatida foydalaniladigan tog’ jinsi.

POYDEVOR – inshootdan tushayotgan yukni zaminga teng taqsimlab beradigan qurilma, shag’al va sement qorishmasidan hosil bo’ladi.

DISPERS – yunoncha so’z bo’lib, *maydalangan, ezg’ilangan* degan ma’noni bildiradi.

QOYA GRUNTLAR – yopishqoq, jipslashgan yaxlit holatdagi magmatik, metamorfik tog’ jinslari.

YARIM QOYA GRUNTLAR – ohaktosh va suvda maydalanadigan yoki eriydigan jinslar, changli ohaktosh bo’r tosh tuzi.

YIRIK TOSH – 10-100 mm o’lchamdan yirik bo’lgan usti silliq yoki tekis toshlar.

QUMLI GRUNTLAR – 0,05-2,0 mm atrofida bo’ladigan ko’pincha yumaloq yoki g’adir-budur.

GIGROSKOPIK SUV – grunt zarrachalari sirtiga o’ralgan suv qobig’i.

GRUNTNING ZICHLIGI – grunt tarkibidagi massaning zichligiga nisbati.

GRUNT NAMLIGI – grunt suvi massasining shu grunt zarralarining massasiga bo’lgan nisbati.

GRUNTNING G’OVAKLIGI – uning tarkibidagi g’ovaklarni zarralar nisbatiga aytiladi.

OQISH CHEGARASI – namlikni bir oz oshishi bilan gruntning oquvchanlik holatiga o’tishga tushuniladi.

QOTISH CHEGARASI – bunda namlikning bir oz kamayishi gruntning qattiq holatga olib kelishin ifodalaydi.

TA’SIR BOSIMI – bu vaqtda batamom grunt zarralariga o’tgan bo’ladi va mazkur bosim *ta’sir bosimi* deb yuritiladi.

SIZISH BOSIMI – grunt zarrachalari orasidagi suvning haraktlanishi natijasida hosil bo’ladigan bosimga tushuniladi.

GRUNTNING QUYQALANISHI – suvga to’yingan gruntlarning kuch

ta'sirida o'zgarishi oqibatida yuz beradigan holat.

SIQIB CHIQARILGAN GRUNT – Yuk ta'sirida grunt harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan jarayon.

YARIM FAZO – zamin zo'riqishi holatida gruntlarda uzluksiz tarqaluvchi elastik jism jarayoni.

FAZOVIY MASALA – tik ta'sir etadigan zo'riqishlar natijasida uch o'q bo'ylab tarqaladigan masala.

ZAMIN YUZASINING ZO'RIQISHI – poydevordan ta'sir ko'rsatuvchi miqdor, poydevorlar hisobida az qoyuvchi masala.

OG'ISH BURCHAGI – zo'riqishlardan hosil bo'luvchi nurlar orasidagi burchakka aytiladi.

MAYDON, MOMENT – aylanma silindir yuza bo'ylab siljish usulini aniqlashda qo'llaniladigan usul.

TUGAL CHO'KISH – gruntning butunlay zichlashuviga mos keluvchi cho'kish qiymati.

SIQILUVCHAN QATLAM – tashqi yuk ta'sirida grunt zo'riqishi natijasida qiymatlarni 20%ni tashkil etuvchi chuqurlik.

MONAND – gruntlar qatlamida bo'ladigan jarayonni bir-biriga o'xshashligi, bir xilligi, yaqinligi.

SIZISH JARAYONI – gruntlar tarkibidagi suvlarni harakatlanishi natijasida hosil bo'ladigan jarayon.

SHURF – to'g'ri to'rtburchak shaklidagi chuqurlik (3-5m).

ZOVUR – shurfga o'xshagan lekin undan chuqurroq va yirikroq bo'ladi.

YER OSTI YO'LAGI – bir tomoni ochiq bo'lib, yotiq holatda qaziladi.

QURILISH PASPORTI – bir turdagi loyihalarni bir-biri bilan bog'lash uchun hizmat qiladigan hujjat.

YAXLIT HOLDAGI OG'IR POYDEVORLAR – ko'prik ustunlari, suv omborlarida ishlatiladi.

ALOHIDA TURUVCHI POYDEVORLAR – elektr simlarini ko'tarib turuvchi ustunlar

JO'YAKSIMON POYDEVORLAR – yuk ko'taruvchi devorlar ostida ishlatiladi.

JO'YAKSIMON CHORRAHA POYDEVORLAR – alohida turuvchi ustunlar osti poydevorlar

BIKR POYDEVORLAR – hom ashyosi siqiladigan poydevorlarga aytiladi.

ROSTVERK – panjara degan ma'noni bildiradi.

KAMUFLET QOZIQLI – tag qismi kengaygan qoziqlardir.

BIKR POYDEVOR – xom ashyosi faqat siqilishga ishlaydigan poydevor, egiluvchan

QOZIQLI POYDEVORLAR – yukni mustaxkam gruntga etkazib beruvchi qurilma

ROSTVERK – nemischa so'z bo'lib panjara ma'nosini bildiradi

OSMA GURZILAR – choyandan quyilib, vazni 400-1000kg gacha

XAVO YORDAMIDA ISHLOVCHI GURZILAR – bir xarakatida 6-8 atm bosimli xavo sarflanadi

KESSON – bunda siqilgan xavo ta'sirida pastlashuvchi maxsus usti berk quduqlar

YENGIL G'ALTAKLAR – gruntlarni zichlashda ishlatiladigan qurilma 0,5-1 tonna

MUVOZANAT TEZLANISHI – bu shunday zilzila tevlanishiki unda tebranayotgan grunt o'z mustaxkamligini saqlaydi

TEBRANISHNING DEKREMENTI – grunt satxida zilzila xarakatini so'nishi

VERANDA, TERRASA, NAVES - ayvon

MERA, KRITERIY, FORMA, SHABLON - andaza

ARKA - ark

OSNOVA - asos

ZDANIE, POMESHENIE, POSTROYKA - bino

STROITEL - binokor

STROITELSTVO - binokorlik

ZAKROM - bordon

NAVES, KRO`TIY KORIDOR - bostirma

KOMNATA, OTDELENIE - bo'lma

KUPOL, SVOD - gumbaz

VOROTA - darvoza
PEREDNYA, PRIXOJAYA- daqliz
PODOKONNIK - dereza rafi
STOLYAR, PLOTNIK - duradgor
DEREVO, LES - yoqoch
DREVESINA - yoqochlik
DEREVOOBDELOCHNIK - yoqochsoz
SHLIFOVAT - jilolamoq
TACHKA - zambilqaltak
OSNOVANIE - zamin
ZADVIJKA - zulfin
ZAXVAT, KRYUCHOK - ilmoq
STROENIE, ZDANIE, POSTROYKA - imorat
SOORUJENIE, STROENIE - inshoot
DOLOTA - iskana
PRESS, TISKI - iskanja
TROTUAR, DOROJKA - yo'lka
PRIPAYKA - kavsharlash
KOROBKA - kesaki
SECHENIE - kesim
REZETS - keskich
IZRAZETS, KAFEL, MOZAIKA – koshin, kafel
PIGMENT - kukunbo'yoq
POD'YOMNIK - ko'targich
GLINA - loy
SUPES - loyli qum
ZADVIJKA, HEKOLDA - lo'kidon
KAPITAL - mablaq
MESNOST, OKRESTNOST - mavze
DEKORATIVNO`Y - manzarali
MRAMIR - marmar
ALTOR - meqrob

ZODCHESIVO - me'morlik
ARXITEKTURA - me'morchilik
MINARET, BASHNYA, VO`SHKA - minora
ZONA, POYAS, OBLAST - mintaqa
VEHESTVO - modda
MASLO, SMAZKA, MAZ - moy
VINT, BOLT - murvat
PROPORTSIONALNOST, SORAZMENOST - mutanosiblik
SPETSIALIST - mutaxassis
INJENER - muqandis
SREDA, ATMOSFERA - muqit
VOYLOK - namat
PRISTAVNAYA LESTNITSA - narvon
TRANSPORT – naqliyot
UZORCHATO`Y, RASPISNOY – naqshdor
JIVOPISETS, REZChIK PO DEREVU, MASTER- naqqosh
OSNOVA, BAZA, YADRO – negiz
UGLON, NAKLON, SKAT – nishab
PRIZNAK, ZNAK, METKA – nishon
BLAGOSTROENNO`Y, ZASYOLENNO`Y, LYUDNO`Y – obod
BLAGOUSTROYSTVO – obodonchilik
VODOSBROS – obpartov
ZASTEKLYONNO`Y – oynaband
STEKOLHIK – oynachi
FASAD – old
OLIFA – olif moy
VISYACHIIY, PODVESNOY – osma
VISYACHIIY SVAY – osma qoziq
NEBOSKRYOB – osmono'par bino
SBROSNAYA VODA – oqova
IZVEST – oxak
IZVESTNYAK – oxaktosh

PEREGORODKA – pardevor, pardadevor
PARAPET – pardevor ustki qismi
OTDELKA, POLIROVKA – pardozi
SVERLO, BURAV – parma
GLINOBITNO`Y – paxsa
TERRASA, VERANDA, PORTIK – peshayvon
PORTAL – peshtoq
LESTNITSA, KRO`LTSO – pillapoya
RO`CHAG – pishang
PROTIVOVES, BALANSIR – posangi
PODRYADCHK – pudratchik
ARKA, PORTAL – ravoq
RUBANOK – randa
STROGAT, FUGOVAT – randalamoq
PRAVILO – rejacho`p
VERANDA – voron
RAMA – rom
UROVEN – satx
PLOHADKA – saqn
KARKAS – sanch
POVERXNOST – sirt
LYOSS – soqtuproq
SHTUKATURIT – suvamoq
STROENIE, STRUKTURA – tarkib
SET, OTRASL – tarmoq
JYOLOB, VODOSTOCHNAYA TRUBA, AKVEDUK – tarnov
PLAN, PROEKT, CHERTYOJ – tarq
NISHA – taxmon
DOSKA, TESINA, LIST, PLITA – taxta
OPORA – tayanch
MELNITSA – tegirmon
JELEZOBETON – temirtosh

**CHETO`REXGRANNIK** – to`rtyoqlik
PLOTINA – to`qon
STOL, KOLONNA – ustun
SVAISTOYKI – ustunqoziqlar
NADSTROYKA – ustqurma
TRENOJNIK, TRENOGA – uchoyoq
NASO`P – uyum
ZAKROM, BUNKER – xampa
TRANSHEYA, YAMA – xandaq
BALKA, MATITSA – xara
VALUN, KAMENNAYA GLO`BA – xarsang tosh
BREVNO – xoda
PRUTOK – chiviq
SLESAR – chilangar
SHNUR – chilvir
SHOV – chok
SHOVNAYA SVARKA – chokli payvand
**RAMA, CHETO`REXUGOLNAYA RAMA** – chorcho`p
KIRKA, KAYLA – cho`kich
VATERPAS, UROVEN – shayton
STEKLO, STEKOLNO`Y – shisha
OTVES – shovun
NAPILNIK, PODPILOK – egov
POVERXNOST, PLOHAD – yuza
GRUZ – yuk
ARMATURA, SERDTAEVINA, YADRO – o`zak
YAMA – o`za
VITOK – o`ram
PLETYONKA – o`rim
PROXOD – o`tish yo`li
TOPKA – o`txona
ETAJ, YARUS – qavat

BITUM, DYOGOT – qatron
REBRO – qirra
RAZREZ – qirqim
SVAYA – qoziq
OPALUBKA, FORMA – qolip
OBLITSOVKA, OBSHIVKA – qoplama
SMES, RASTVOR – qorishma
SMESITE – qorishtirma
ZABIVKA – qoqish
KUPOL – qubba
LITOI – quyma
VILET(stereło`krana) – quloch
ZAMOK – qulf
PESOK, PESCHANO`Y – qum
SUGLINOK – qumli loy
PESCHANIK – qumtosh
BRUSOK – qumqayroq
DIAMETR – qutr
KATOK – g’altak mashina
KAMENSHIK – g’isht teruvchi
KIRPICHNO`Y, KAMENNO`Y – qishtin
PORISTO`Y KIRPICH – g’ovak g’isht
LESA – havoza
REMESLO – hunar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., O‘zbekiston 2017.
2. Mirziyoyev.Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilanbirga quramiz. T., O‘zbekiston 2017.
3. Абелев М.Ю., Ильичев В.А., Ухов С.В. и др. Строительство зданий и сооружений в сложных грунтовых условиях. — М.:, 1986.
4. Айталиев Ш.М., Исаханов Е.А., Телтаев Б.Б., Достанова С.Х. Исследование напряженно-деформированного состояния дорожной насыпи с учетом ползучести грунта. Труды 1-го Центрально-Азиатского геотехнического симпозиума. — Астана, 2000.
5. Будин А.Я. Учет реологических свойств грунтов при расчетах портовых сооружений. –В кн.; Труды II симпозиума по реологии грунтов. Ереван, 1976.
6. Namunaviy texnologik karta 01.01.2017 yildagi amaldagi normativ hujjatlar yordamida tuzilgan.
7. Seed H.B., HarderL.F. SPT based analysis of cyclic porepressure generationand undrained residual strength. //Proceedings of the B.Seedmemorial Symposium.1990,Vol.2,P.351-376.
8. Kokusho T.,TanakaY. Dynamic properties of gravel lay ersinvestigated byin situ freezing sampling. //Proceedings of the ASCES pecialty Conference on Ground Failuresunder Seismic Conditions.–Atlanta, 1994.pp.121-140.
9. TanakaY.,KudoY.,YoshidaY.Astudy on the mechanical properties of sandy gravel-dynamic properties of reconstituted sample.//Central Research Institute of Electric Power Industry,1987, Report U87019.
10. Ишихара К. Поведение грунтов при землетрясениях (Превод с английского по лицензии издательства «Oxford University Press» под ред. Проф.Фадеева). - Санкт-Петербург, 2006.–383с.
11. Hamada M, Wakamatsu K. Astudy on ground displacement cause by soil liquefaction. //J.“Geotechnical Engineering”.Proc.JSCI,№596,III-43,1998.–P.189-208 (inJapanese)
- 12.Yasuda S. Introduction of the course, Liquefaction-induced flow of ground and its

effect to structures.//J.“Tsuchi-to-Kiso”(Vol.47),№5,2000.—P.53-54.

13. Н.Н.Маслов Условия устойчивости водонасыщенных песков. М.Изд-во Энергия, 1961. – 328 с.

14. Иванов П.Л. Грунты и основания гидротехнических сооружений.- М.:“Высшая школа”,1985.-352с.

15. Расулов Х.З. Сейсмостойкость грунтовых оснований.—Ташкент:Изд-во«Узбекистан»,1984.-192с.

16. Ставницер Л.Р. Об опасности разжижении водонасыщенных грунтов при динамических воздействиях. //Материалы Международной научно-технической конференции. – Тюмень, 2007. – С.77-78.

17. Эйслер Л.А., Альберт И.У., Смирнов Ю.Г., Гладких С.Н. Экспериментальные установки для определения динамических, прочностных и деформационных характеристик мелкозернистых грунтов в условиях сдвига и трехосного напряженного состояния //С.Перербург: Известия ВНИИГим.Б.Е.Веденеева (Т.235),1999.-С.57-65.

18. Красников Н.Д. Сейсмостойкость гидротехнических сооружений из грунтовых материалов. –М.: Энергоиздат, 1981. -230 с.

19. Добров Э.М., Шкицкий Ю.П. и др. Методы повышения несущей способности грунтов.Учебное пособие.–М.:Изд-во Академия,2014.-208с.

20. Мусаэлян А.А. Состояние и перспективы развития фундаментостроения в Таджикистане.–Душанбе:ТаджикНИИНТИ,1986.-40с.

21. РашидовТ.Р. Перспектива развития проблем сейсмодинамики подземных сооружений. //Ўзбекистонда геотехника муаммолари ва уларнинг замонавий ечимлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари.- Тошкент:ТАҚИ,2018,16-17апрел.—С.20-27.

22. Абдуллабеков К.Н. Глобальные, региональные и локальные особенности проявления сейсмической активизации. //Сборник «Проблемы сейсмологии в Узбекистане» №3. –Ташкент, 2006. –С.5-11.

23. Хожметов Г.Х., Расулов Р.Х. Сейсмопросадочная деформация увлажненных лессовых грунтов. //Ж.“Строительство и архитектура Узбекистана”.— Ташкент:2008.-№4.С31-33.

24. Расулов Х.З. Прикладной метод сейсмоустойчивого основания. //Материалы

- Конференции «Научные и прикладные основы решения актуальных проблем сейсмологии».-Ташкент,2006.–С.202-204.25. ХасановА.З., ХасановЗ.А. Основания и фундаменты на лессовых просадочных грунтах. - Ташкент: Изд-во «Узбекистан», 2006.–158с.
26. Садыков А.Х. Экспериментальные исследования факторов, влияющих на критическое ускорение лессовых грунтов склона. //Ж.:Проблемы архитектуры и строительства.–Самарканд: СамГАСИ,2010,№1,С.37-39.
27. Шерматов М.Ш., СапаровА.С., ХусамиддиновА.С. К вопросу о методике изучения просадочных свойств лессовых пород Узбекистана. //Труды и тезисы Республиканской научно-практической конференции.- Ташкент: Институт Сейсмологии АН Узбекистана,2015. С.20-23.
28. Джураев А. Влияние просадочности лессовых грунтов территории г.Ташкента на сейсмический эффект при Ташкентском землетрясении 1966г. //Материалы конференции «Научные и прикладные основы решения актуальных проблем сейсмологии».–Ташкент:2006.–С.282-285.
29. Султанов К.С., Салямова К. Д. Напряженно-деформируемое состояние грунтовых гидротехнических сооружений с учетом нелинейных моделей грунта и нестационарности сейсмического воздействия.//Материалы Международной научно-технической конференции «Современные проблемы механики»–Ташкент:ИМССИААНУзб.,2009.–С.498-503.
30. Мажидов И.У., Расулов Р.Х. Изменение сеймопросадочной деформации лессов по глубине толщи в свете полевых исследований //Ж. «Меъморчилик ва қурилиш муаммолари».–Самарканд:Изд-во СамГАСИ, 2016.№2С.22-25.
31. Туйчиева М.А., Джураев А. Проблемы сейсмостойкого строительства для индивидуальных застройщиков на территории Узбекистана. //Труды и тезисы Республиканской научно-практической Конференции.–Ташкент: ИнститутСейсмологииАНУз.,2015.–С.39-41.
32. Частоедов Ю.Н. и др. Роль районирования вновь осваиваемых территорий для массового строительства. //Материалы Межд.Научн.-техн. Конференции «Геотехнические и эксплуатационные проблемы нефтегазовой отрасли».–Тюмень,27-29марта2007г.–С.78-83.
33. РасуловХ.З. Критическое ускорение колебания грунта //Труды II-й

Международной научно-практической конференции «Проблемы механики и строительства транспортных сооружений». - Алматы: Изд-во «КазАТК», 2015. - С. 136-140.

34. Рузиев А.Р. После взрывная консолидация водонасыщенной лессовой толщи нарушенной структуры //Труды III-го Центрально-Азиатского Международного геотехнического Симпозиума «Геотехнические проблемы строительства на просадочных грунтах в сейсмических районах».-Душанбе, 2005.–С.204-208.

35. Rasulov R.Kh. Seismic subsidence deformation of moisturized loess //J.“European Science Review”, March-April,1016.–P.290-292.

36. СП 102.13330.2012. Туннели гидротехнические. Актуализированная редакция СНиП 2.06.09-84

37. СП 14.13330.2014. Строительство в сейсмических районах.
Актуализированная редакция СНиП II-7-81*.

38. СП16.13330-2017 «Стальные конструкции». Актуализированная редакция СНиП II-23-81*» (с Поправкой, с Изменением №1).

39. СТО 17330282.27.140.002-2008 «Гидротехнические сооружения ГЭС и ГАЭС. Условия создания. Нормы и требования»

40. Справочник проектировщика. Расчетно-теоретический. М.,
Стройиздат,1960.

41. Чертеж 23ПС 226897ВО.

42. Стандарт ОАО «Трест Гидромонтаж» СТП 00117794-2-11-95.

Механическое оборудование и специальные стальные конструкции гидротехнических сооружений. Система управления качеством. Основные положения проектирования.

43. Встроенная информационная база данных Ansys Help.

44.<http://www.glossary.rug'sgi-bing'gl sch2.cgi?Rcukuxhwux:# 41771730>.

45. <http:g'g'www.uzvod.uzorganization.html>.

46. <http:g'g'www.vniig.ru>

47. <http:g'g'www.gidrostoi.ru>.